

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA URTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

ONA TILI

Ma'ruza matnlari



Mualliflar:

f.f.n., dots. D.Qozoqov

f.f.n., dots. M.Hamidova

NAMANGAN – 2010

Mavzu: Sintaksis.

Gap va uning asosiy belgilari

R e j a :

1. Sintaksis haqida tushuncha.
2. Gap va uning belgilari.

Tayanch iboralar:

Sintaksis, gap bosh va ikkinchi darajali bo'laklar, predikativlik, gap turlari, so'roq, darak, undov, buyruq, gap strukturasi.

M a v z u g a d o i r m u a m m o l a r

1. Sintaksis haqida ma'lumot bering.
2. Sintaksisning o'rganish ob'ektini ayting.
3. Gap deb nimaga aytiladi.
4. Gapni asosiy belgilarini tushuntiring.

Sintaksis haqida tushuncha.

Sintaksis girekcha” Sintaksis” so’zidan olingan bo’lib, ”Tuzish” degan ma’noni anglatadi. Sintaksis gramitikaning bir bo’limi bo’lib, bunda so’zlarning va gaplarning o’zaro aloqasini, so’z birikmalari va gaplarni turlarini, birikish usullarini o’rganadi.

Bu jihatdan sintaksis morfologiyadan farqlanadi. Chunki morfologiya so’zlarning tuzilishi, yasalishi, turlanishi, tuslanishi kabilarni kabilarni tekshiradi. Sintaksis esa, ana shu formalarning dindmikasini, ularning funksiyasini ma’lum bir fikrini ifodalashdagi rolini o’rganadi.

Morfologiya va sintaksis bir-birini to’ldiruvchi, o’zaro munosabatda bo’lgan sohalardir. Gap-turlari – darak, so’roq, buyruq, undov gaplarning bir-biridan farqlanishi, asosan kesmlarning qanday so’z turkumi orqali ifodalanishiga bog’liq.

Masalan:

1. Nosir bu ertakni buvisidan eshitdi.-darak gap/
2. Ekskursiyaga kim qatnashmadi? – so’roq gap.

So’z birikmalari ham bosh=aruvchi, ya’ni bosh so’zning qanday so’z turkumi ekanligiga qarab, tasnif qilinadi. Sintaksisda esa, ergash gaplar bosh gap tarkibidagi ayrim belgi hususiyatlariga ko’ra ega, kesm, to’ldiruvchi, aniqllovchi ergash gaplarga ajratiladi.

Demak, har-bir sintaksisning kategoritasi morfologiya bilan bog’langan holda tahlil qilinadi va belgilanadi. Ba’zan esa bu ikki sohani, ya’ni morfologiya va sintaksisni bir-biridan ajratish ham qiyin bo’ladi.

Masalan: Kelishiklar morfologiyada ham, sintaksisda ham o’rganiladi. Ammo, morfologiyada, asosan kelishik yolg’iz formal jihatdan, ya’ni kelishikning formasi,

qanday soʻz turkumiga qoʻshilishi tekshirilsa, sintaksisda esa kelishikning vazifasi, qanday soʻzlar bilan, boʻlaklar bilan bogʻlanishi oʻrganiladi. Ammo kelishikning vazifasi ham hisobga olinadi.

Shuningdek, sintaksis kategoriyalari morfologik kategoriyalarga teng emas. Masalan: Bizning oila - tuk oila.

Bu jumladan morfologik jihatdan toʻrt soʻz, uch xil soʻz turkumi bor. (olmosh, ot, va sifat, ot). Sintaksis jihatdan esa faqat bitta boʻlak –ega va kesm mavjud xolos.

Demak sintaksisda soʻzlar kengroq aspektda, ularning maʼnosi va vazifasi xisobga olingan holda tekshiriladi.

3. Gap va uning asosiy belgilari.

Kishilar bir-birlari bilan fikr almashadilar. Bu fikr almashuv gap orqali boʻladi. Gap uning gramatik xususiyatlari, soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishi yoʻllari sintaksisda oʻrganiladi. Sintaksisning asosiy oʻrganish obʼekti gapdir.

Voqeylikni va unga boʻlgan munosabatni ifoda qilish uchun gramatik jihatdan shakillangan intonasion hamda mazmun jihatdan nisbatan mustaqillikka ega boʻlgan soʻzlar bogʻlanmasi yoki yakka soʻz **gap** deyiladi. Gap fikrni ifoda qiluvchi nutq birligidir. Gapning asosiy belgilari quyidagilar:

1. Fikr turli gap tiplari orqali ifodalanadi, fikr sodda yoki qoʻshma gaplar orqali, darak, soʻroq, undov gaplar orqali, ikki sostavli yoki bir sostavli gaplar orqali, toʻliq yoki toʻliqsiz gaplar orqali ifodalanishi mumkin. Bu hol fikrning harakteriga, maʼlum maqsad yoki niyatga qarab belgilanadi.

2. Gapning asosiy belgilari, uning soʻz yoki soʻz birikmalaridan farqi nimada? Gapning asosiy belgilari, unda nisbiy fikr tugalligi predikativlikning mavjud boʻlishi, Grammatik jihatdan maʼlum qonun va qoidalar asosida shakillanishi, tashqi tomondan oʻziga hos intonasiyaga ega boʻlishi shart. Gapning

bu xususiyatlari ko'pchilik tillar uchun umumiydir. Ammo bu belgilarning turli tillarda nomoyon bo'lishi va ularning ahamiyati, o'zni turlichadir har bir gapda ma'lum maqsad yoki xis-hayajon ifodalanadi. Aks holda u so'z birikmasi bo'lib qoladi.

Masalan: Nodira o'qidi va Nodiraning daftari.

Bu misolda birinchisi gap, ikkinchisi esa so'z birikmasidir. Avvalgisida ma'lum fikr almashyapti. Keyingisi esa tushuncha aks etgan.

Bu maqsad yoki xis-hayajon soda yoki qo'shma gap shaklida ifodalanishi ham mumkin.

Qo'shma gaplarda komponentlar birikkandagina ma'lum maqsad anglashiladi.

Masalan: Ko'z qo'rqqoq-qo'l botir – gapida qo'rqqoqligi bilan qo'lning botirligi haqidagi fikrlar ifodalangan. Shuning uchun ham qo'shma gapga ikkita soda gapning mehanik tarzda biri kuvi holda emas, balki gap strukturasi o'ziga xos alohida bir tipi sifatida qaraladi. Ammo qo'shma gaplarda fikr, maqsad bitta bo'sa ham, hukm birdan ortiq bo'ladi. (yuqoridagi keltirilgan misolda ikkita hukm ifodalangan, ko'zning qo'rqqoqligi, qo'lning botirligi) o'zbek adabiy tilida birdan ortiq hukm bir soda gap orqali ifodalanishi ham mumkin.

Masalan: Kitob olganiga xursand bo'ladi. Har bir brigada ekishga tayor bo'lib turishi zarurligini qayta-qayta o'qtirdi.

Bu soda gaplarning har birida ikki xul ifodalangan.

Gapning asosiy belgilaridan yana biri predikativlikdir. Predikativlik gap mazmunining borlikka munosabatini ifodalashdir. Gap orqali so'zlovlovchi biror voqea, xodisa yoki xususiyatning mavjudligi yoki biror zamonda ro'y beriahi, realligi yoki norealligi, xoxish yoki norozilik kabi munosabatni ham ifodalaydi. Bu munosabatni ham ifodalaydi. Bu munosabat, ya'ni predikativlik modallik va zamon,

shaxs-son kategoriyalari orqali ro'yobga chiqadi/ bu kategoriyalar turli morfologik, sintaktik, intonasiya va boshqa yo'llar bilan ifodalanadi.

Gapning o'ziga xos belgilaridan yana biri unda maxsus intonasiyaning bo'lishidir.

Har bir gap intonasion jihatdan ham shakllangan bo'ladi gapning boshlanishi va tugallanishi uning intonasiyasidan sezilib turadi. Gap oxirida intonasiya ham tugallanadi.

O'zbek tilida gapning asosiy belgisi:

1. *Gapda ma'lum bir fikr, maqsadning tugalligi.*
2. *Predikativlik.*
3. *Gramatik struktura.*
4. *Intonasion tugallik.*

3. Gap gramatik strukturasiga ko'ra o'ziga hos bir konstruksiyani tashkil etadi. Ikki sostavli gaplar konstruksiyasining asosini bosh bo'laklar – ega va kesim tashkil etadi. Ikki sostavli gapga, *masalan*: Ishonchsiz hamroh, zaharli ilondan xavfli bo'ladi. Ega gapda u to'g'rida gap brogan, bosh kelishikdagi mutloq bo'lakdir.

Ammo har qanday bosh kelishik formasidagi so'z ega bo'la olmaydi. Bosh kelishikdagi so'z kesim, ikkinchi darajali bo'lak, undalma bo'lib kelish ham mumkin. Ega uchun avvalo uning ma'nosi va gapdagi vazifasi asosdir.

Kesim ega haqidagi gapning xukm, tasdiq va inkordir. Kesm shaklan turlicha bo'ladi. *Masalan*: Sovg'a menga.

Odatda ega bilan kesim bir-biri bilan shaxs va soda moslashadi.

Masalan: Karim sizni so'radi. O'quvchilar ekskursiyaga chiqdilar. Ammo bu xususiyat o'zbek tili uchun asos bo'la olmaydi. Chunki ega bilan kesim sonda moslashmasligi ham mumkin.

Masalan: Magazinlar ochildi. Qushlar sayraydi kabi...

5. Gaplar strukturasi ko'ra uch xil bo'ladi:

a) soda: b) Murakkab v) qo'shma gaplar.

Sodda gap ma'lum bir fikr, maqsadni ifodalovchi, bir sintaktik strukturadan iborat bo'lgan gap xisoblanadi. Sodda gap tuzilishiga ko'ra yirik va yoyiq bo'lishi mumkin. Bosh bo'laklardan tashkil topgan gaplar soda gap, bosh bo'laklardan tashqari, ikkinchi darajali bo'laklar ham ishtirok etgan gap sanaladi.

Murakkab gap tarkibida asosiy gap bo'laklaridan tashqari ajratilgan bo'laklar (unalmalar), kirish bo'lak va birikmalar ham qatnashadi. Qo'shma gap va o'ndan ortiq soda gapning mazmun va ohang jihatdan o'zaro birikuvi asosida shakillangan gapdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Sintaksisning ma'nosini tushuntiring?
2. Gap haqida ma'lumot bering?
3. Gapning asosiy belgilarini ayting?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashri. T., "Ozbekiston". 1991yil.
2. A.Nurmatov va boshqalar. "O'zbek tilining nazariy sintaksisi". T. "Fan"., 1992 yil.

3. R.Rasulov. "So'z valentligi va sintaktik aloqa". "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 1992 y. № 5-6.
4. A.Aliev, K.Sodiqov, "O'zbek adabiy tili tariixidan" (Universitet talabalari uchun darslik)., T., "O'zbekiston", 1994 yil.

Mavzu: Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari.

R e j a :

1. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida tushuncha.
2. Darak gaplar.
3. So'roq gaplar.
4. Buyruq gaplar.
5. Undov gaplar.

Mavzuga doir muammolar.

1. Gapning maqsadga ko'ra turlari va ularning bir-biridan farqini izohlang.
2. Darak gapning belgilarini tushuntiring.
3. So'roq gaplar turlarini bir-biridan farqini izohlang.
4. Buyruq gaplar ma'no turlarini misollar bilan tushuntiring.
5. His-hayajon gaplarning ma'no turlarini ayting.

Tayanch so'zlar.

Gapning ma'nosiga ko'ra turlari, darak gap, so'roq gap, undov gap, buyruq gap, tinish belgilari, intonasiya.

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari haqida tushuncha.

So'slovchi o'z oldiga turli maqsadni qo'yadi. Ma'lum voqea hodisa haqida xabar beradi yoki noma'lum bo'lgan biror voqea hodisa haqida ma'lumot olishni istaydi, yoki tinglovchini biror narsani bajarishga undaydi, yoki shu haqida istak bildiradi, yoki turlicha xis-hayajonni bildiradi.

Shunga ko'ra gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Darak gaplar.
2. So'roq gaplar.
3. Buyruq gaplar.
4. Undov gaplar

Bularning har-bir tuzilishi jihatidan, ya'ni so'zlarni va gramatik formalarini ishlatishda, so'z tartibida, innivasiyada o'z hususiyatiga ega.

2.Darak gaplar.

Darak gaplarda voqea hodisa haqida xabar beriladi yoki predmetda biror xususiyatning majudligi tug'risidagi tasdig'l yoki inkor mazmuni ifodalanadi.

Masalan: Sayramovning ko'zlari gulzordan uzilmas edi. (o)

Darak gapning kesimi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. ***Aniqlik fe'li bilan:*** Salqin shamollargina qizning sochlari bilan o'ynashadi.
(o)
2. ***Otlar bilan:*** Inson qo'li gul. Kitob – bilim manbai.
3. ***Sifat bilan:*** Qiz o'z yoridek, uddaburon, chechan. (X.O.)
4. ***Son bilan:*** Onning – yarim besh.

Dunyoning jannati ro'zg'orimiz bir, taqdiri yangi zo'r boshimiz bir. (R.B)

5. ***Olmosh bilan:*** Uning haqi senda emas, sening haqing unda. (P.T.)
6. ***Ravish bilan:*** Har qanchalik motam unga oz, olam-olam gap unga oz. (X.O.) Bogim boru, gulzorimda gulim ko'p, har yoqda gul, shohlarida bulbulim ko'p. (X.O.)
7. ***Ish otlari bilan:*** Insonga hurmat bu o'zining tanimoq. (G.G.) Zahar solmoq emish kasbi ilonnig. (Uyg'un).
8. ***Bor yoki yo'q so'zlari bilan:*** Xalqimizning chuqur idroki bor, g'ururi, an'anasi bor. Bu-Sharqning yulduzi O'zbekistondir, o'rta erlarning Osiyosi yo'q! (G.G.).

Tinch ohang bilan aytilib, darak-habar ma'nosini ifodalagan nominative va to'liqsiz gaplar ham darak gap hisoblanadi.

Masalan: Kuz... acchiq shamol. (O).

2000 yil. Mart (Gazetadan).

Darak gap turlariga qaraganda ko'proq qo'llaniladi. Bu hol darak gapning ifodalanishi xilma-xilligidan kelib chiqadi. Xatto butun-butun matnlar darak gap harakterida bo'ladi.

Darak gap darak intonasiyasi bilan aytiladi. Bunda gapning birinchi qismida ohang ko'tariladi. Ikkinchi qismida esa pasayadi.

Masalan: Biz butun mashg'ulotlarda aktiv ishtirok etamiz.

Darak gapning mazmun turlari.

Darak gaplar turli mazmunni ifodalaydi va uning har bir turning o'ziga hos intonasiyasi bor.

1. ***Darak-habar:*** Yo'li menga besh qo'ldek ravshan bo'ladi. (Yo.Sh.). Quyosh g'arbga botib, bulutlar etagini istayman. (X.O.).

2. Orzu-umid mazmuni ifodalangan darak gaplar sifatdoshning kelasi zamon formasi, - *moqchi* qo'shimchasi yordami bilan tuzilgan fellaprdan va mazmunan orzu-umidni anglatuvchi istamoq, orzu qilmoq, tilamoq kabi fe'llar bilan ifodalanadi.

3. *Ishonch, taqdir, g'urur:*

Nomingga munosib, huddi quyoshdek, abadiy yashaysan, Mustaqil O'zbekiston!

Qo'ldan berganga qush to'ymas, degan gapni bilasiz-ku!

O'qituvchilar ichida eng yaxshisi bizning o'qituvchimiz – deyishdi qizlar.

4. *Sevinch:* Ha, aytmoqchi, bu – Tursunoy-a!

Sevinch mazmuni ko'tarinki intonasiya bilan aytiladi. Bu tur gaplarda ko'pincha ta'kid yuklamalari bo'lib, ular ma'noni yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

5. *Taajjub:* Tavba, bunday ustomonni ko'rgan emasman. (O).

6. ***Gumon:*** Bu ishimizning kelajagi yo'q shekilli.

7. ***Achinish, tashvish, kinoya.***

a) Juda ko'p g'am chekding, bolam.

b) Hozir ushlaydilar, qo'lga tushdim. (M.G.)

c) Ey Akramjon, nafasing muncha saraton! (Ya)

Darak gaplar odatda, xabar ma'nosini ifodalaganda, o'rtacha, tinchintonasiya bilan talaffuz etiladi. Ammo darak gaplar o'z mazmunidan tashqari, sevinch, g'azab, kinoya kabi ma'nolarni ifodalaganda ularning intonasiyasi ham shunga mos bo'ladi.

3. So'roq gaplar.

So'zlovchiga noma'lum bo'lgan voqea-hodisa haqidahi so'roqni bildirgan gap so'roq gap deyiladi. Bunday gap o'ziga hos innovasiya bilan aytiladi.

Masalan: Kel, ko'zim, nima ishing bor?. (O).

So'roq gaplarda suhbatdoshni o'z fikrini anglatishga yoki ifodalanayotgan fikrga bo'lgan munosabatini bildirishga chaqiriladi.

So'roq gaplar quyidagi vositalar yordami bilan tuziladi:

1. So'roq yuklamalari: - mi, - chi, a (ya), ba'zan-da, ku.

Masalan: Nazira, shahar aylangani chiqamizmi? – Men imtihonga tayyorgarlik ko'rayapman. – Sen-chi? Demak, olg'a, g'arb tomonga ekan-da? – mi, - chi yuklamalari vositasida hosil bo'lgan so'roq gaplarda intonasiya kuchli bo'lmaydi. – da, - a, - ya, -ku yuklamalari yordamida tuzilgan so'roq gaplarda intonasiyaning roli katta bo'ladi.

2. **So'roq olmoshlari-kim?, - nima?, - qanday?, - qanaqa?, -qaysi?, -necha?, nechanchi?,** kabilar.

Shaxs va narsalar haqida kim, nima, predmetining belgi qancha, necha, harakat-holatning bajarilishi yoki pretning bajarilishi yoki pretning mavjudlik o'rni, payti, holati, sababi maqsadini aniqlash uchun qaerda, qachon, qanday qilib, nechuk, nima uchun, nima sababdan, nima maqsadda kabi olmoshlar xizmat qiladi.

Masalan: Uy vazifasini kim bajarmadi?

G'ulom aka, o'sha vaqtlarda qancha xosil olar edingiz? (A.K.). Xey yigitlar, bugun nima uchun bunchalik sust ko'rinayapsiz?

3. Nahot, nahotki kabi yuklamalar yordamida: Nahotki bugun yomg'ir yog'sa?

Bunday vositalar bilan hosil qilingan so'roq gaplarda taajjub, shubha ottenkalar ham ifodalanadi.

4. So'roq intonasiyasi katta rol o'ynaydi.

Masalan: - Bugun dam olaman.

- Bugun dam olaman?

Ba'zan so'roq gaplarning kesimi sostavida – (a) grafikasi va kerak, shekilli, muncha, balki kabi so'zlar bo'ladi. Bu tip so'roq gaplarda intonasiya rol o'ynaydi.

Masalan: Sizni qiziqtiradigan savollar border?

Bu imorat otangizdan qolgan bo'lsa kerak? – deb so'radi. (Ask.M)

Ilgari durust edi shekilli? (A.K)

So'rash ma'nosi ta'kidlangan so'roq gaplarda grammatik vositalar birdan ortiq bo'lishi ham mumkin.

Masalan: Necha yoshga kirgan edim-a? (O.G.)

Dadam qayda-a? (O.)

So'roq gaplarning ma'nolari.

So'roq gaplar turli – tuman ma'nolarni, xis – tuyg'ularni va so'zlovchinini voqeylikka bo'lgan munosabatini ifodalaydi.

1. Sof so'roq gaplar. Bu tip so'roq gaplar tinglovchini ma'lum javobini talab qiladi.

Masalan: Qayoqqa olib ketayotibsiz? (A.K.).

Yulib tashlash kerakmi, yaxshiroq parvarish qilish kerakmi? (A.K.)

Ba'zan bu tip so'roq gaplar takrorlanib kelishi ham mumkin.

Bu hol savolga tezda javob olina boshlaganda voqe bo'ladi.

Masalan: Darsga nega kechikib kelding? nega?

Sof so'rq gaplarda so'roq bilan bir qatorda, taajjub, gumon, shubha kabi qo'shimcha ottenklar ham ifodalanishi mumkin.

- a) **Taajjub ottenkasi:** Nahotki, oily ta'lim egasi bo'luvchi kishi ham intizomsizlik qilsa?
- b) **Gumon-shubha ottenkasi:** direktorga borib, yashirinib yotgan Qudrat haqida so'zlab bersammikan?

2. Ritorik so'roq gaplar.

Bu xil so'roq gaplarning mazmunidan tasdiq ma'nosi anglashilib turadi. Shu sababli ritorik so'roq gaplar adabiy tilda emosional ma'nolarni ifodalash uchun stilistik vosita bo'ladi.

Bo'yraday joyga sholg'om ekan odamga ham suvmi? (O.).

Onalarni ham ezozlamaydi?

Ritorik so'roq gapning maxsus turini aytmay sizmi, bo'ladimi so'zlari bilan kelgan gaplar tashkil etadi.

Ertasiga ot og'rib qolsa bo'ladimi? (O).

Ritorik so'roq gaplarda turli emosional ottenka (kinoya, kesatish, achinish, tanbeh, norozilik) ifodalanadi.

Masalan: Xo'sh, endi xoling qalay?

Pichoqni shu Xasan akang uradimi? (X.X.)

3. So'roq – buyruq gaplar.

So'roq-buyruq gaplarda so'roq va buyruq ottenkalari mavjud.

Masalan: tez-tez yurmaysanmi? So'roq gapning manosiga alohida ahamiyat berilib, so'roq inotasiyasi bilan talaffuz etish lozim topilsa, har bir so'roq gapdan so'ng so'roq belgisi ishlatiladi.

Diviziya komandiri qalay? Bu erda nimalar bo'layotganini biladimi? (Kaz).

Bular ichida sof so'roq gap ko'p qo'llanadi.

4. Buyruq gaplar.

Buyruq gaplar kishining xoxish, iltimos, maslhat, buyruq kabiturli niyatlarini ifodalab keladi.

Masalan: Agar axil-inoq yashasanglar, hech bir kuch sizlarni engamaydi.

Buyruq gaplarning tuzilishi:

Buyruq – istak fe'lining kesim vazifasida kelishi bilan.

I-shaxs: Olimjon aka! Er-larimizni qondirib-qondirib sug'oraylik! (Sh.R.)

II-shaxs: Mening ham yurtim mash'alday porlasin! (P.T.)

2. Shart fe'lining kesim vazifasida ishlatilishi bilan:

Qaxraton qish bo'lsa!.. (O). Qani endi, snga o'hshab hamma aqlli bo'lsa! (Kerb).

Bunday gaplar tarkibida koshki, qani, qani endi so'zlari bo'lishi ham mumkin.

Qani endi, senga o'xshab hamma aqlli bo'lsa! (Kerb).

Shart fe'lidan so'ng to'liqsiz fe'lidan so'ng to'liqsiz fe'l, emokning turli shakllari keladi.

Tezroq kela qolsa edi. (M.G.).

3. Kerak, mumkin so'zlarining harakat nomi tarkibida kelishi bilan:

Bu masalani jamoa boshqaruvi majlisiga qo'yish kerak.

4. Ayrim to'liqsiz gaplar ham buyruq mazmunini ifodalaydi. Bu xil gaplarda intonasiyaning roli kuchli bo'ladi.

a) Egasiz to'liqsiz gaplar:

Bas! Bas! Bas! O'rtamang meni. (X.X.).

b) Kesimsiz to'liqsiz gaplar: O'lim yovga! (X.O.).

Senga o'lim, senga nafrat, ey ajal !! (A.U.).

v) Ega va kesimsiz: Tinchlik ahdi uchun! (Ask. M.)

Buyruq gapning mao'no turlari.

Buyruq gaplar quyidagi ma'nolaruni ifodalaydi:

1. **Buyruq:** Ot soling kun botar yoqqa! (U)
2. **Mslaxat:** Oysara, tirik etim qilmang og'lingizni! (X.X.).
3. **Iltimos:** Ashuladan yana bo'lsin! (Kerb).
4. **Orzu-istak:** Koshki til bo'lsa-yu, u bilan suhbatlashib o'tirsang!
5. **G'amxo'rlik:** Sovuq kotib qolma, issiqroq yot, Shermatjon do'stim! (Ya)
6. **Tashvish:** Paxtani navlarga ajratib teraylik! (Gazetadan).
7. **Gumon, tashvish:** Ehtimol, u keyinchalik bizni ham eb qo'ysa. (ertakdan).
8. **Hayajon:** Ayajon, menga rah meting! Arzu-dodimga eting! (N.S.).
9. **G'azab, do'q:** Xatdan o'chir o'g'limni xozir. (O).

Buyruq gaplar turli intonasiya bilan talaffuz etiladi. Kuchli hayajon, do'q, g'azab, qat'iy buyruq gaplarda intonasiya kuchli, maslahat, iltimos, gumon ma'nolari ifodalangan gaplarda oddiy, o'rtacha darajadabo'ladi.

5. Undov gaplar

fikr kuchli his-hayajon bilan ifodalangan gap undov gap deyiladi.

Masalan: Men etim o'sganman, ox u etimlik. (G.G).

Darak, so'roq, buyruq gaplar ham mahsus intonasiya bilan aytilib, undov gapga o'xshab, so'zlovchining ichki his-hayajonini, voqeylikka bo'lgan turlicha munosabatlarni anglatishi ham mumkin. Ammo u turdagi gaplarda asosiy etakchi ma'no darak, so'roq, buyruq ma'nolaridir. Shuning uchun ham ular intinasiya bilan gapga aylanib ketmaydilar.

Undov gaplarda ichki his-hayajon, so'zlovchining voqelikka bo'lgan munosabati ifodalanadi. Shuningdek, undov gaplarning tuzilishida o'ziga hos struktura va Grammatik belgilar mavjud.

Undov gaplarning tuzilishi:

Undov gaplar quyidagi quyidagi vositalar yordamida tuziladi:

1. Qanday, qaysi, qanaqa, qancha, necha, shuncha, shunday kabi emotsional kuchaytiruv ma'nosidagi olmoshlar:

Tun nega bu qadar uzun! (Ask.M.).

2. Undov so'zlar: E, baxtlarni balog'atga etkazgan ona! (X.O.).

3. Ana, mana yuklamalari: Ana tantana-yu, mana tantana!- dedi.(A.K.).

So'z, so'z birikmalar ham undov gap xosil qiladi. Eh, xo'rlik qursin! (O). Tavba! (A.K.). Astag'firulloh... (U). Barakalla Ortiq! Qoyilman, polvon inim.

4. Maxsus intonatsiya: Tamom! Endi nima bo'lsa bo'ldi! Endi buning gapiga qarang! (B.P.). Bu tipdagi gaplar shaklan darak, so'roq, buyruq gap bo'lsalar ham, mazmunan kishilarning ichki his-tuyg'ularini ifodalaydi va maxsus intonatsiya bilan aytiladi. Shu bois bunday gaplar undov gap sanaladi.

Undov gaplarning ma'no turlarui.

Undov gaplar quyidagi emotsional ma'nolarini ifodalaydi:

1. Taajjub: Ajab zamona ekan! (O). Tavba! (O).

2. Tashakkur va Rag'batlantirish. Otangga rahmat! (A.K.).

3. Xayratlanish: Sensan har narsadan mo'tabar aziz! (U).

4. Zavqlanish, shodlik mamnunlik: polvon nima! (O).

Judas oz, juda yaxshi! (B.P.).

5. Orzu-umid: Xudo baxtingni bersin, o'g'lim! (O).

6. Muxabbat: Uning ko'zi oldida Nuri! (O).

7. Achinish: Ey, o'zingni, xolatingni bilmagan Asrorqul! (A.K.).

8. Kinoya: Yangi kasb qulluq bo'lsin, boyvochcha! – dedi O'rmonjon. (A.K.).
9. G'azab, nafrat: Bu qanday maynabozchilik! (O).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashri. T. "O'zbekiston " 1991 yil.
2. A.Nurmatov va boshqalar. "O'zbek tilining nazariy sintaksisi". T, "Fan", 1992 yil.
3. A.Aliev., K.Sodiqov. "O'zbek adabiy tili tarixidan" (Universitet talabalari darslik). T., "O'zbekiston", 1994 yil.
4. R.Rasulov. "So'z valentligi va sintaktik aloqa". "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. № 5-6. 1992 yil.

Mavzu: Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi.

So'z brikmasi.

Reja:

1. So'zlarning o'zaro sintaktik munosabatga kirishuvi.
2. Teng va ergash bog'lanish.
3. So'z brikmasi.
4. So'z brikmasining tasnifi.

Mavzuga doir muammolar.

1. Teng va ergash bog'lanishning farqini ayting.
2. Qaratqich va qaralmish munosabatini izohlang.
3. Boshqaruv usuli bilan birikkan tobe so'zning birikish usullarini tushuntiring
4. So'z brikmalarini tasnif qiling.

Tayanch iboralar: Teng bog'lanish, ergash bog'lanish, so'zbrikmasi, boshqaruv, bitishuv, sintaktik munosabat, tasnif, so'z, so'z birikmasi, gap.

So'zlarning o'zaro sintaktik munosabatga kirishuvi.

Gapda so'zlar ma'lum qoidalar asosida bir-biri bilan bog'lanadi. So'zlarning sintaktik munosabatlari har bir tilda turli vositalar yordamida ifodalanadi.

O'zbek tilida so'zlar quyidagi vositalar yordamida aloqaga kirishadi:

1. Affikslar.

Affikslar so'zlarning sintaktik munosabatga kiritishda

Keng qo'llaniladi. So'z o'zgartiruvchi affikslar, egalik qo'shimchalar, turlovchilar, (kelishik qo'shimchalar), tuslovchilar ana shunday vazifani bajaradi. Ular so'zlarning gramatik formasini o'zgartiradi va bir so'zni boshqa bir so'zga bog'laydi hamda so'zlarning gapdagi vazifasini belgilab beradi.

Masalan: “Men Namanganga qaytib ketaman ” gapida –ga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi Namangan so'zini ketmoq so'zi bilan, -man tuslovchi qo'shimchasi qaytib ketmoq so'zini men so'zi bilan munosabatga kiritadi. Bu gapda men so'zi bosh kelishikda qo'llanib ega, Namangan so'zi jo'nalish kelishigida kelib o'rin holi, qaytib ketmoq so'zi-man tuslovchi affiksini olib, kesim vazifasida qo'llangan.

Kelishik qo'shimchalari otlarning boshqa so'zlar bilan (ko'pincha fe'llar bilan) munosabatini ifodalaydi.

Tuslovchi qo'shimchalar harakatning, belgining sub'yekt bilan bo'lgan munosabatini va shaxs, son, zamon ma'nolarini ifodalaydi: Men o'qidim. Siz bordingiz. Ular keldilar kabi.

Demak, tuslovchi qo'shimchalar ega bilan kesimni aloqaga kiritadi.

2. Yordamchilar.

Yordamchilar-ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalar-so'zlarni sintaktik aloqaga kiritishda alohida rol o'ynaydi.

Ko'makchilar otlarning boshqa so'zlar (ko'pincha fe'llar) bilan munosabatini ifodalaydi. Ko'makchilar grammatik funksiyasi jihatidan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadi. Ular ba'zan kelishik qo'shimchalari o'rnida kelib, u bajargan vazifalarni ado etadi.

Qiyoslang: Do'stinga oldim-do'stim uchun oldim kabi. Ko'makchilar ayrim hollarda ma'lum kelishik qo'shimchasi bilan birga ishlatiladi. Maktabga tomon ketdi. Bundan ko'ra yaxshiroq. Manzilga qadar yayov bordik kabi.

Kumakchilar o'zi bog'langan so'zlar bilan birgalikda bir gap bo'lagi vazifasini bajaradi.

Masalan: Men do'stim uchun qayg'uraman. Bunda do'stim uchun Kim uchun(so'rog'iga javob bo'lib, to'ldiruvchilardir.

Bog'lovchilar:

Bog'lovchilar so'z, so'z brikmasi va gaplarning munosabatlarini ifodalaydi.

Nodira va Xanifa. Gulning chiroyi va bulbulning nafasi shoirni maftun etgan. Bahor keldi va kunlar isiy boshladi kabi.

Yuklamalar:

Yuklamalar yordamchi so'zlar sifatida ayrim mustaqil so'z yoki gapning mazmuniga kushimcha ma'no beradi. Ba'zan ular gapda bog'lovchi vazifasida qo'llaniladi va so'z, brikma va gaplarning o'zaro munosabatlarini ifodalaydi.

Masalan: Shamol birdan ko'tarildi-yu, tezda tindi. Zamira biroz dam oldi-da, keyin dars tayyorlashga o'tirdi.

Bog'lama ega va kesim munosabatini ifoda qiluvchi yordamchidir.

Masalan: Men o'qituvchi bo'laman.

So'z tartibi.

So'z tartibi so'zlarning sintaktik munosabatini ifodalashda alohida o'rin tutadi. So'zlarda maxsus marfalogik ko'rsatkichlar bo'lganda so'z tartibining o'zgartirishi sintaktik holatga ta'sir etmaydi.

Bu vaqtda gap bo'laklarining o'rni o'zgarsa ham, ularning sintaktik funksiyasi o'zgarishsiz qoladi.

Masalan: Hayolimni gulga o'rayman. (X.O). Gulga xayolimni o'rayman.

O'rayman xayolimni gulga.

So'zlarning sintaktik vazifasi maxsus morfologik ko'rsatgichlar bilan ifodalanganda so'z tartibi sintaktik munosabatlarini ko'rsatuvchi muxim vosita bo'lib qoladi. Bu vaqtda gapdagi so'zlarning vazifasi tartibiga bog'liq bo'lib qoladi. So'z tartibining o'zgarishi bilan sintaktik xolati ham, mag'no xam o'zgaradi.

Masalan: Ag'lochi Zulfiya-Zulfiya a'lochi. Birinchisida so'z birikmasi. Ikkinchisida gap. Zulfiya-ega, a'lochi kesim.

Intonasiya.

Intonasiya so'zlarni sintaktik munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Intonasiya qo'shimcha komponentlardan: logik va ritmik urgu, pauza, melodikdan tashkil topgan. Bu komponentlar bir-biri bilan uzviy bogliqdir. Logik urgu so'zlovchining eng ahamiyatli deb xisoblangan so'zini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi. U gapdagi xar qanday so'zga tushishi mumkin. Ko'p xollarda gapning mazmuni logik urgu bilan belgilanadi.

Masalan: Mening akam Toshkentda o'qiydi

Bunda mening so'zigalogik urgu tushsa, boqalarning emas, faqat

Mening akam o'qishi anglashiladi. Maboda, o'qiydi degan ma'no anglashiladi va xokozo.

Ritmik urgu gapning katta bir bo'lagini ajratib ko'rsatadi va uning mazmuniga aniqlik kiritadi.

Masalan: Siz kecha kitob o'qidingizmi? Biroq bu gapda kitob o'qidingizmi birikmasi butunicha bir ritmik urgu bilan aytilishi xam mumkin. U vaqtda ob'yektni emas, balki xarakatni aniqlash nazarda tutilgan bo'ladi.

Qiyoslang:

Siz kecha kitob o'qidingizmi? – Siz kecha nima o'qidingiz?

Pauza gaplarning, ayrim bo'laklarining, sintagmallarning chegarasini, ular orasidagi sintaktik munosabatlarni ko'rsatadi. Pauaning o'zgarishi grammatik xolatga xam, ma'noga xam ta'sir etadi.

Masalan: Yangi ko'ylak oldim,. Gapida yangi ko'ylak so'zidan keyin pauza qilinsa, ko'ylakni yangi (xozir) oldimmazmunini ifodalaydi.

Yoki: Ikkita bolalik xtin keldi – ikkita bolasi bor yoki bolasi bor ikkita xotin keldi ma'nolari anglashiladi. *Yoki:* Qiz bola ko'rди, qiz-bola ko'rди va xokozo.

Metodik – tovushning baland – past bo'lib tovlanishi – gapning fikriy maqsadga ko'ra turlarini belgilaydi.

Masalan: Onam keldi-darak gap

Onam keldi-so'roq gap

Onam keldi-undov gap

So'zlarning sintaktik munosabatlarini ifodolovchi bu vositalarning xammasi o'zaro bog'liq bo'ladi, doimo bir-birini to'ldirib turadi. Biroq ma'lum nutq prosessida ularning ayrimlari aktiv ba'zilar esa passif ro'l o'ynashi mumkin.

2. Teng va ergash bog'lanish

So'zlar o'zaro ikki xil bog'lanadi: teng bog'lanish, ergash bog'lanish. Teng bog'lanishda so'zlar bir xil gap bo'lagi bo'ladi. Sanash intonasiyasi yoki teng bog'lovchilar yordami bilan birikib keladi.

Masalan: Mashxura bilan Nilufar birgalikda dala tomon ketdilar.

Yaxyoxon va Aakmaljon inistitutda a'lo baxoga o'qir edi. Nazira, Odina, Ruxsoralar o'quvchilar konferensiyasida aktiv qatnashar edilar. Yuqorida keltirilgan Misollarda teng bog'lanish mavjud. Ularning o'rinlari almashtirilsa xam, ma'nosi va gramatik xolati o'zgarmaydi.

Ergash bog'lanishda biri xokim, ikkinchisi tobe bo'lgan so'zlar o'zaro aloqaga kiradi. Ularning bir ikkinchisini aniqalaydi, to'ldiradi.

Ergash bog'lanishdagi so'zlarning tobe-xokimligi odatda, ularga qo'shilib kelgan qo'shimchalardan bilinib turadi.

Masalan: Kitobni o'qidim, kitobda o'qidim.

Bu birikmalardagi kelishik qo'shimchalari o'zlari qo'shilib kelgan so'zlarning tobeligini ko'rsatuvchi elementlardir.

Ergash bog'lanish predikativ va predikativ bo'lmagan bog'lanishni hosil qiladi. Ega va kesim predikativ bog'lanishni, qolganlari esa (sifatlovchi-sifatlanish, xol kesim, to'ldiruvchi kesim kabilar) predikativ bo'lmagan bog'lanishni xosil qiladi.

Masalan: Barg to'kildi. Baxor keldi-predikativ, yangi bino, qizarib gapirdi, kitobni qo'yish-predikativ bo'lmagan bog'lanishlar.

So'zlarning predikativ bo'lmagan ergash bog'lanishi 3 xil bo'ladi.

1. *Moslashuv.* 2. *Boshqaruv.* 3. *Bitishuv.*

Moslashuv. Qaratqich va qaralmish aloqasi bog'lanishning alohida turini tashkil qiladi.

Bundan birini xokim, ikkinchi birini tobe deb qarash qiyin bo'ladi. Chunki qaralmishni xokim bo'lak deb xisoblasak, u tobe so'zining qaratqich kelishigida kelishini talab qiladi. Qaratuvchini tobe bo'lak hisoblasak, xokim bo'lak hisoblangan so'zning egalik qo'shimchasini olib kelishini talab qiladi. Bu o'rinda munosabatdorlik (o'zaro xokimlik, tobelik) munosabati mavjud.

Masalan: Biz har doim sevikli Prezidentimiz I.A. Karimovning amaliy rejalariga sodiqmiz.

Bu gapdagi I.A.Karimov rejali birikmasidagi qaralmish qaratuvchi bo'lakning qaratqich kelishigini olib kelishini, bu bo'lak ega qaralmishining egalik qo'shimchasini olib kelishini talab qilayapti. Bunda xar ikki bo'lak bir-biriga tobe ham xokimdir.

Shu bilan birga qaratuvchi va qaralmish aloqasidagi olmoshning qaysi shaxs va sonda kelishiga qarab, qaralmish vazifasidagi so'z o'sha shaxs va sondagi egalik affiksini oladi. Qaralmish esa, o'sha shaxs va sondagi qaratqich kelishigida kelgan olmosh bilan munosabatga kirishadi. Mana shu ma'noda shunday bog'lanishni moslashuv deb xisoblash mumkin.

Masalan. Mening kitobim, sening kitobing, ularning kitoblari kabi.

Boshqaruv tobe so'zining xokim so'z talab qilgan formani olishdir.

Masalan: Odam mexnatda sinaladi. (Maqol).

Elektor chiroqlari ko'chalarni ravshan qilib yubordi. Bu misolda xokim so'z (sinaladi, ravshan qilib yubordi) tobe so'zning (mexnatda, ko'chalari) o'rin, tushum kelishigida kelishini talab qilayotir. Bog'lanishning bu turida xokim so'z boshqaruv deyiladi. Boshqaruvchi nomini asosan fe'l bajaradi.

Zulfiya maktab bog'ida ochilgan gullarni uzib, mexmonlarga taqdim etdi. Bu gapda boshqaruvchi vazifasini ochilgan, uzib va taqdim etdi fe'llari bajarib kelayotir.

Ayrim xollarda sifatlar ham boshqaruvchilik ro'lini bajarishi mumkin.

Masalan: Po'lat toshdan qattiq. Axmo do'st yovdan yomon. (Maqol). Bularda sifat bilan ifodalangan kesim (qattiq, yomon) so'zidan oldin kelgan so'zning chiqish kelishigida (o'limdan, yovdan) kelishini talab qilayotir.

Boshqaruv ko'makchi konstruksiya shaklida ham bo'lishi mumkin.

Masalan: Men shaxarga ukam bilan bordim. Bunda ukam bilan bordim birikmasida boshqaruvchi (ukam bilan) ko'makchili konstruksiya orqali ifodalangan.

Bitishuv.

So'z birikmasining bitishuvli birikmasida xokim va tobe so'z o'zaro so'z tartibi hamda oxang yordamida munosabatga kirishadi.

Masalan: Oppoq paxta. A'lochi o'quvchi. Ilg'or paxtakor... birdan g'azablanmoq kabilar.

Bitishuv quyidagi bog'lanishlarda uchraydi:

1. Sifatlovchi bo'lib kelgan so'zlar bilan otning bog'lanishi.

Masalan: Intizomli talaba xar joyda o'rnak. Ikki ariqning o'rtasi kichkina maydon edi. Bu gaplarda sifatlovchi vazifasida kelagn sifatlar (Intizomli, kichkina) va son (ikki) otlar bilan bitishuv yo'li orqali bog'langan.

2. Xol bo'lib kelgan ravish, ravish bilan felning bog'lanishi.

Masalan: Biz olimpiyadada g'olib chiqish uchun astoydil harakat qilmoqdamiz birikmasida ravish (astoydil) fe'lga (harakat qilmoqdamiz) bitishuv yo'li bilan bog'langan.

Ko'm-ko'k bahor osmoni Dadajonning ko'ziga xadsiz yaylovdek yarqirab ko'rindi. (I.R). Bunda ravishdosh (yarqirab) bilan fe'l (ko'rindi) ning aloqasi bitishuvdir.

3. So'z birikmasi.

Tushunchalar orqasidagi turli munosabatlarni iroda qilish uchun grammatik jihatdan o'zaro birikkan ikki va undan ortiq so'z, so'z birikmasi deyiladi.

Masalan: Kitobni o'qimoq, ukamning do'sti, soy bo'ylab yurmoq, yangi bino, tiniq suv kabi.

So'z birikmasida ayrim tushunchalarni ifoda qiluvchi so'zlar o'zaro sintktik munosabatga kirib murakkab tushunchani bildiradi va boshqa gap bo'lagi bo'lib keladi.

Masalan: Katta ariq, chiroyli bino, oltinning qiymati, beshinchi sinf kitobi kabi.

So'z birikmasi mustaqil so'zlarning o'zaro munosabatiga kirishuvidan xosil bo'ladi. Ko'makchi so'zlar esa o'zi bog'langan xisoblanadi.

Odatda, so'z birikmasida ergash so'z va bosh so'z mavjud. Oldingi so'z ergash so'z, keyingi so'z esa bosh so'z xisoblanadi.

Masalan: Kalxozning bog'i, chiroyli bino, dala tomon bormoq, ukam uchun oldim kabi.

So'z birikmasi moslashuv, boshqaruv, bitishuv usuli bilan hosil bo'ladi.

So'z birikmasi turg'un birikmalardan farq qiladi. Turg'un birikmalar til birligi bo'lib, bir butun holda leksik ma'no ifodalaydi. Uning komponentlari o'zaro jipslashgan holda quyma shaklda bo'ladi va boshqa so'z birikmalarni tuzishda ishtrok etmaydi.

So'z birikmasi esa nutq birligi bo'lib, uning komponentlari o'z ma'nolarini saqlagan holda leksik ma'no ifodalaydi va boshqa so'z birikmalarani hosil qilishda ishtrok etishi mumkin.

So'z birikmalari gapdan farq qilishi kerak. So'z birimasi tushuncha ifodalab, atash ohangi bilan aytiladi.

Gap esa fikr ifodalab, tugullangan ohang bilan aytiladi.

So'z birimasi ikki va undan ortiq mustaqil so'zdan hosil bo'ladi, gap esa birgina so'zdan hosil bo'lishi mumkin:

Masalan: Soy bo'ylab bormoq-so'z birikmasi.

Dala. Atrofda ish qizg'in.

Yoki: -Ertaga mashg'ulotga borasanmi?

-Xa.

Bu misollarda dala va xa so'zlari gapdir. Shuningdek, so'z birikmasi tobe-xokim modelida, gap esa xokim-tobe modelida hosil bo'ladi.

Qiyos qiling: Yangi bino-Bino yangi. So'z birikmalarini tashkil etgan bo'laklarning o'z aloqasi o'zgarishi, ulardan qo'shma so'zlar kelib chiqishi mumkin.

Masalan: Belning bog'i-bel-bog'

Oshning qozoni-osh qozoni kabi.

So'z birikmasi tarkibidagi sintaktik aloqalar tubandagi yo'llar bilan yo'qola boradi:

1). Ayrim so'z birikmalarida sintaktik aloqalarning yo'qolishi bilan unday birikmalar bir so'z (qo'shma so'z) shakliga keladi. So'z birikmasi ma'no va strukturasiga ko'ra bir so'zga aylanadi, bitta umumiy urg'uga ega bo'ladi, yozilishda ham o'zgarish vujudga keladi.

Masalan: Otboqar, kungaboqar, Soykeldi, Yangiqo'rg'on, Beshariq, ko'zoynak, baqaterak, Oqtepa kabilar.

2). Ba'zi so'z birikmalarida komponentlar o'rtasidagi sintaktik aloqaning susayishi bilan bunday birikmalar predmet, hodisa, ma'lum proseslarning nomini bildiradi, ammo har bir komponent o'z mustaqil urg'usini saqlaydi. Toshkent **viloyati**, Yuqori Chirchiq, kuyi chirchiq, O'rta Osiyo kabilar.

Biroq tildagi bunday faktlar xali qo'shma so'zlar bo'lmaydi, shu bilan birga, ular to'liq ma'nodagi so'z brikmalari ham hisoblanmaydi.

4. So'z birikmalarining tasnifi.

So'z birikmalari quyidagi belgilari asosida qilinadi:

1. So'z birikmalari komponentlarining grammatik tabiatiga ko'ra.

2. So'z birikmalarining strukturalariga ko'ra tasnif qilinganda, xokim bo'lakning qaysi so'z turkumidan ekanligi, tobe bo'lakning sintaktik vazifasi asosga olinadi.

So'z birikmalari xokim so'zining qaysi so'z turkumidan ekanligiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. Otli birikma.

2. Fe'lli So'z birikma.

3. Ravishli So'z birikma.

4.Sifatli So'z birikma.

5.Modal so'zli So'z birikmasi.

1.Otli So'z birikma Bu til So'z birikmalarining xokim so'z vazifasida ot, otlashgan so'zlar keladi. Bu quyidagicha ko'rinishlariga ega:

-*Xokim so'z vazifasida ot keladi:* Uzoqdan kattabino ko'rindi.

-*Xokim so'z vazifasida olmosh keladi:* Zulfiyaning o'zi keldi.

-*Xokim so'z vazifasida otlashgan son keladi:* Talabalarining uchtasi musobaqada g'olib chiqdi.

-*Xokim so'z vazifasida sifatdosh keladi:* Musobaqada g'olib chiqqanlarga mukofat berildi.

-*Xokim so'z vazifasida undov keladi:* Uzoqdan jangchilarimizning urasi eshitildi.

-*Xokim bo'lak vazifasida taqlid so'z keladi:* Uzoqdan bombalarining gumbir-gumbiri eshitildi.

Otli so'z birikmasining komponentlari moslashuv, boshqaruv usulida birikadi.

2. Fe'lli so'z birikmalari. Bu tip so'z birikmalarda xokim so'z vazifasida sof fe'l va ravishdosh keladi.

Xokim so'z vazifasida sof fe'l keladi: Odina har doim kulib gapiradi.

3. Ravishli so'z birikmasi: Buning xoyeim bo'lagi vazifasida ravish keladi. O'tloqda bedana ko'p, dangasada bahona ko'p.

Fe'l so'z brikmalari o'zaro boshqaruv va bitishuv, ravishli so'z birikmalari esa, o'zaro boshqaruv yo'li bilan birikadi.

4. Sifatli so'z birikmalari. Bu tip so'z birikmalarining xokim bo'lagi sifat bilan ifodalanadi.Komponentlari boshqaruv yo'li bilan birikadi.

Masalan: Odam temirdan qattiq, guldani nozik.

5. Modal so'zli so'z birikmalari. Bunda so'z birikmalarining xokim so'zi vazifasida modal so'z keladi. Komponentlari o'zaro boshqaruv yo'li bilan aloqaga kirishadi. O'zingda yo'q, olamda yo'q.

So'z birikmalari tobe so'zning sintaktik vazifasiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. To'ldiruvchili so'z birikmasi. Buning tobe bo'lagi to'ldiruvchi vazifasida keladi va komponentlari o'zaro boshqaruv usuli bilan birikadi. Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi.

2. Aniqlovchi so'z birikmasi. Bunda tobe bo'lak aniqlovchi vazifasida va komponentlari o'zaro moslashuv va bitishuv yo'li bilan birikadi. Aniklochi so'z birikmasiga izohlovchi so'z birikmasi ham kiradi: Shoir Usmo Nosir xotirasi hech qachon unutilmaydi.

3. Xolli so'z birikmasi. Bu xil so'z birikmalarining tobe bo'lagi hol vazifasida keladi. Komponentlari boshqaruv va bitishuv yo'li bilan birikadi:

Zuxra fabrikada ishlaydi.

So'z birikmalari strukturalariga ko'ra ikki xil:

- 1) Oddiy so'z birikmalari.
- 2) Murakkab so'z birikmalari.

Oddiy so'z birikmalari ikkita mustaqil so'zdan iborat: -Kitobni o'qish, maktab sari yurmoq, yangi kitob kabilar.

Murakkab so'z birikmalari ikkitadan ortiq leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlardan tashkil topadi.

Masalan: Oq ko'ylakli qiz, uch kilogramm tosh, yangi ochilgan yer, yuz so'mlik mato kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashri. T, "O'zbekiston". 1991 yil.*
2. *A. Nurmatov va boshqalar. "O'zbeki tilining nazariy sintaksisi". T, "Fan", 1992 yil.*
3. *R. Rasulov. "So'z valentligi va sintaktik aloqa". "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 1992 yil № 5|6.*
4. *A. Aliyev, K. Sodiqov. "O'zbek adabiy tili tarixidan" (Universitet talabalari uchun darslik). T, "O'zbekiston", 1994 yil.*

Mavzu: Gap bo'laklari. Bosh bo'laklar.

Reja:

1. Gap bo'laklari haqida ma'lumot.
2. Ega va uning ifodalanishi.
3. Kesim va uning ifodalanishi.

Tayanch iboralar: Gapning bosh bo'laklari, mutloq

Xokimlik, ifodalanish, tasdiq

Va inkor, sodda va qo'shimcha fe'l,

Fe'l, kesim va ot kesim.

Mavzuga doir muammolar.

1. Gap bo'laklari to'g'risida tushuncha bering.
2. Bosh bo'laklarni izohlang.
3. Ega va uning ifodalanishini ayting.
4. Kesim uning turlari, ifodalanishini tushuntiring.
5. Ega tarkibini holda kesim tarkibini misollar asosida izohlang.

1. GAP BO'LAKLARI HAQIDA MA'LUMOT.

Gap bo'laklari dastlab, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi.

Bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi. Fikr asosan gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi. Gapning ega va kesimi bosh bo'laklar hisoblanadi. Ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarni aniqlab, to'ldirib keladi. Ikkinchi darajali bo'laklarga to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol kiradi. Masalan: Mashina shiddat bilan qaltis tog' yo'lidan uchib ketdi.

1. EGA VA UNING IFODALANISHI.

Gapda mutloq xokim vaziyat egallab, fikrning kimga, nimaga qarashli ekanligini anglatuvchi gap bo'lagi ega deb ataladi. Ega keng ma'noda predmat tushunchasini bildirib, kesimdan anglashilgan belgi, harakat, holatning kimga yoki nimaga oidligini ko'rsatadi. Ega bosh kelishikdagi so'z bilan ifodalanib, kim? Nima? Kimlar? Nimalar? qayer degan so'roqlardan biriga javob bo'ladi. Ega ikki sastavli gapning bosh bo'laklaridan biridir. Ma'lumki, gap biror predmet yoki hodisa haqida nimadir aytish maqsadida shakllantiriladi. Demak, gap tuzilish uchun asos bo'ladigan biror tushuncha kerak. Gapda butun bo'laklar ana shu asosiy tushunchani ifodalash uchun to'g'ridan-to'g'ri yoki biror vosita orqali predmet tasavvuridagi so'zga yoki birikmaga bog'lanadi. Shuning uchun ham u bosh bo'lak tarzida o'qiladi. Bu hususiyat uning shaklida ham ko'rinadi: Bunday xokim tushuncha bosh kelishik shaklida bo'ladi. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, ega gapda fikr ifodalanishiga asos bo'lgan bosh kelishikdagi xokim kismidir. Eganing sintaktik jixatdan, asosan, ikki xususiyati bor.

1. U bosh bo'lak bo'lib, xech qanday boshqa bo'lakni izoxlamaydi, ya'ni biror bo'lakka tobe bo'lmaydi, aksincha, boshqa bo'laklarni o'ziga tobe etib oladi.

1. Ega bosh kelishikda kelgan ot, olmosh va olashgan so'zlar bilan ifodalanishidir. Masalan: 1) Qumri patirlarni dasturxonga tera boshladi. 2) Kimdir unga darrov bir kosa ovqat keltirib berdi. 3) yaxshilikni qadrllovchi kishi o'zini munosib saqlar. 4) Bilimli o'zar bilimsiz to'zar (Maqol)

Ega ba'zan-dan formasini olib kelgan ot bilan ifodalanishi mumkin. Bunga ega to'dadan qismini, butundan bo'lakni ifodalaydi. Masalan: (Qalandarov) Qulluq! Ammo lekin hozirchalik, nasiyaga olamizda, puldan yo'qroq. (U). . . Magazinga ajoyib uzumlardan keldi. Ega, odatda va olmosh, otlashgan so'z, sifat, son, harakat nomi, sifatdosh, ravish, undovlar bilan ifodalanadi.

1. Eganing ot bilan ifodalanishi.

Qishloq quyuq daraxtlar ichida oppoq bo'lib ko'rinardi.

(SH.R)

2.Eganing olmosh bilan ifodalanishi. Ega bosh kelishikdagi kishilik, o'zlik, so'roq, belgilash, gumon, birgalik, ko'rsatish olmoshlari bilan ifodalanadi.

1) Biz fan va texnika barq urib rivojlanayotgan zamonda yashayapmiz.

2) Ko'rganlari haqida o'zi gapirib berdi.

3) Bugungi seminarga kim qatnashmadi?

4) Har kim o'z dardini aytar edi.

5) Devor ostidan allakim ko'ringanday bo'ldi.

6) Barchamiz institutini muvaffaqiyatli bitirish uchun kurashaylik.

7) Bular chap tomoni butazor, ung tomoni tukay bo'lgan arava yo'ldan borishdi (A.Q)

3. Eganing otlashgan sifat bilan ifodalanishi.

Sifatlar otlashib gapda ega vazifasida kelishi mumkin. Bunday vaqtda sifat aniqlab kelayotgan so'z tushuriladi. Lekin uning ma'nosi sifatdan anglashilib turadi.

Masalan: Birinchi kundan boshlab unga katta-kichik samimiy xurmat bilan qaray boshlaydi. (A.M.)

Sifatlarni otlashishi ko'proq maqollarda uchraydi.

Masalan: Mard bir marta o'ladi. (maqol)

4. Eganing son bilan ifodalanishi.

Masalan: Ikkalovlari atrofni qiziqish bilan kuzata boshladilar.

5. Eganing harakat nomi bilan ifodalanishi. Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir (maqol)

6. Eganing sifatdosh bilan ifodalanishi. Sifatdoshlar ham otlashib, gapda ega vazifasida keladi.

Masalan: Birlashgan yovni qaytarar. (maqol)

7. Ravish va undovlar bilan ifodalanishi. Masalan: Ko'pimiz sport seksiyalariga aktiv qatnashmayotirmiz. Dod-voy, ox-uf borgan sari kuchaydi.

8. Eganing turli so'zlari, xato ayrim tovushlari bilan ifodalanishi.

A. Har yomonning bir ammosi bo'lishi kerak, har “yaxshi” ning bir lekini.

b| Childirmaning birdan ko'tarilgan “taka-taka, gijbang”i zalni yangratib, quloqlarni qomatga keltirdi.

V) Shu ulug' nomlar-la ochilda maktab, “M” budur va bunday yoziladi “G”

9. Otlashgan shaxsli fe'l bilan.

Keldi-ketdi kechasi allamaxalgacha davom etdi.

10. Fraziologik birikmalar bilan.

Uq otishimizga xali yetti qovun pishig'i bor.

11. Bir butun xolda qo'llaniladigan bog'lanmalar ega bo'lib keladi.

12. Son| miqdor bildiruvchi boshqa suv |Q ot tipidagi so'z birikmalari ham ba'zan butunligicha ega bo'lib keladi. Bunday xolat bosh kelshikdagi ot kesim bilan yolg'iz o'zi moslasha olmagan vaqtda yuz beradi.

Masalan: Uch og'a ini butun kun yo'l yurib, bir joyda tunaydigan bo'lishdi. G'folkG'

13. Har olmoshi bilan birikkan otlar ham gapda butunligicha ega bo'lib keladi.

Masalan: har saxifa jonli chamanzor kabi ko'zni qamashtiradi.

14. Egalik affiksini olgan bir soni va unga bog'lanib kelgan qaratqich yoki chiqish kelishigidagi so'z butunicha ega bo'lib keladi.

Masalan: Dushmanning biri ham hatar G'MaqolG'

15. Gapda teng xolat ham ba'zan ma'lum o'zgarishlar bilan butunicha gapda ega bo'lib kelishi mumkin.

Karimning diqqat bo'la boshlaganligi basharasidan ham bilinib turar edi. G'oG' Bu gapda; Karim diqqat bo'la boshlagan. Karimning diqqat bo'la boshlaganligi.

3. Kesim va uning ifodalanishi.

Ega xaqida tasdiq yoki inkorni, so'roqni bildirgan gap bo'lagi kesim deyiladi. Kesim egaga tobe, o'ziga bog'lanib kelgan so'zlarga nisbatan xokimdir. Kesim turli so'z turkumlari bilan ifoda qilinadi. Tuslangan fellar ikki sastavli gaplarning kesimi uchun tipik formadir. Odatda, gap bir so'z orqali ham ma'lum intonasiya yordamida ifodalanishi mumkin. Bir sastavli gapda predikativli struktura jihatidan ko'pincha kesim orqali ro'yobga chiqadi. Demak, kesim egasi maxsus so'z orqali ifodalanmagan gapda ham mavjud bo'ladi.

Gapda predikativligini anglatish har vaqt egani izohlashga asoslana bermaydi. Ifodaning musbiy tugalligini yuzaga keltirishda kesim asosiy rol o'ynaydi. Kesim so'z yoki so'zlar birikuvi bilan ifodalanadi. Bunday kesimli gaplar ikki xil konstruksiyada bo'ladi. Birinchi xil konstruksiya ikki sastavli gap bo'lib, ularda keisim ma'lum ega to'g'risidagi xukumni ifodalaydi. Demak, ikki sastavli gaplardagi kesim egani izohlab, unga tobe bo'lib keladi. Kesimni bir tarkibli gaplarda kesim yolg'iz ifodalanib, egaga bog'lanmaydi, chunki eganing o'zi ifodalanmaydi. Bunga gaplarda kesimdan anglashilgan bo'lishli yoki bo'lishsiz ish-harakat, xolat yoki biror belgi maxsus bir predmetga-egaga bog'liq bo'lmaydi. Shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan gaplarda esa kesim ma'lum biror konkret shaxs bilan bog'lanmaydi.

Kesimning nuqtadagi funksiyasi gapni shaklantirishdangina iborat bo'lmay, balki gapdagi sintaktik va semantik hususiyatlar asosida bir yoki bir necha bo'laklarning o'ziga ergashtirib, fikrni to'la ifodalash imkoniyatini ham yaratadi. Kesimlar fel'dan tashqari, ot, sifat, son olmosh, ravish, shunigdek, ravishdosh, harakat nomi bilan ham ifodalanadi. Qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanishiga qarab, kesimlar ikki gruppaga bo'linadi:

1. Fe'l kesim
2. Ot kesim

FE'L KESIM

Felning tuslangan formalari, ba'zan ravishdosh formasi gapda fe'l kesim bo'lib keladi.

Masalan:

1. Uning qo'l ostida.. yigirmadan ziyod odam ishlaydi. (P.K)
2. Ona rozi bo'lgach, suyunib ketdi. (M.G)
3. Quyosh ko'tarilib, atrofni yorita boshladi.

OT KESIM

Fe'ldan boqa so'z turkumlari bilan, shunigdek, fe'lning harakat nomi formasi bilan ifodalangan kesim ot- kesim deb yuritiladi.

1. Otning kesim bo'lib kelishi;
Xona ichi issiq, jimjit, dim. (N.F)
2. Sifatning kesim bo'lib kelishi;
Sen poksanu, men iflosmi?
3. Sonning kesim bo'lib kelishi;
Qilgan ishing yarimta. Biz qirqtamiz.
4. Olmoshning kesim bo'lib kelishi;
Ishongan bog'im, suyangan tog'im o'zingsan.

5. Ravishning kesim bo'lib kelishi;

Xali barg yozmay bezrayib turgan ikki tup sada tagida odam ko'p.

6. Harakat nmining kesim bo'lib kelishi;

Yashamoq, xalqqa va vatanga foyda keltirmoqdir.

7. Bir butun holda qo'llaniladigan bog'lamlarning kesim bo'lib kelishi;

Vatanimiz O'zbekiston Respublikasidir.

8. Turg'un birikmalarini kesim bo'lib kelishi;

Rais aytilgan fikrlarni ovozga qo'ydi.

Ot kesim, odatda bosh kelishik formasida bo'ladi. Ba'zan chiqish, jo'nalish, o'rin kelishigi formalarida kelgan so'z ham kesim bo'lib kelishi mumkin.

Masalan: Xotin birdan o'zini tundlikka oldi. Xalimaxon u yerda, zikir xona bu yerda. Bu ishni bajarish sizlardan. Kesimlar ba'zan modal so'zlar, yordamchi so'zlar, undovlar va hamda bor va yo'q so'zlari bilan ifodalanadi. Bundan ular eganing keng ma'nodagi turli belgisini ifodalaydi. Bu xil kesimlar hozirgi o'zbek tilida kam uchrab, asosan badiiy va ilmiy ifoda, chaqiriq ham tabriklarda ishlatiladi.

Masalan:

1. Yetimlik ayib emas, inson uchun fazlu kamol lozim.
2. Ulug' xind xalqiga qizg'in salom. ("Chaqiriq"lardan)
3. Boy oxiri voy. (maqol)
4. Xato qilmoq bordir, tuzatmaslik ordir.(maqol)
5. Betka aytganning zaxri yo'q.

Sodda va sostavli kesimlar

Kesimlar tuzilishi jihatidan sodda va sostavli bo'ladi.

1. Sodda kesim birgina so'z bilan ifodalanadi. Masalan:

1. Ochil buva bugun chinor bilan xayrlashmoqda. (As.M)
2. Bahor maysalariga to'yib-to'yib boqish uning orzusi.

Sodda kesimlar qaysi so'z turkumi bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

1. Sodda fe'l kesim.
2. Sodda ot kesim.

Sodda fe'l kesim bu fe'l hamda uning ravishdosh va sifat-dosh formalarini bilan ifodalanadi.

Masalan:

1. U keng va go'zal Nodirshox ko'chasiga chiqdi.
2. U barcha topshiriqlarni siddiqidildan bajargan.
3. Bahor kelib gullar ochildi.

Sodda ot kesim Bu ot, sifat, son, olmosh bilan va fe'lning harakat nomi formasi bilan ifodalanadi.

Masalan: 1. Bilaman, siz qo'li ochiq, bag'ri keng odamsiz

2. Yashamoq-kurashmoq.
3. Uning yarmi besh.

Sostavli kesim. Mustaqil so'z bilan yordamchi so'zlarning birikishidan tuzilgan kesimlar sostavli kesim deyiladi. Sostavli kesim, odatda, so'zning analitik formasi bilan ifodalanadi.

Masalan: Biz o'quvchi bo'lamiz. Sostavli kesimlar ham ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Sostavli kesim.
2. Sostavli fe'l kesim.

Sostavli ot kesim fe'ldan boshqa so'zlarning bog'lama vazifasida kelgan ko'makchi fe'l yoki to'liqsiz fe'l bilan birikishidan yuzaga keladi. Sostavli ot kesimda asosiy ma'no birinchi elementda bo'ladi. Ikkinchi element esa qo'shimcha ma'noni ifodalaydi. Birinchi element o'rnida ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, harakat nomi kelishi mumkin.

Masalan: Zaynabxon bolalar bog'chasida murabbiy edi. Bilim negizlarini qunt bilan egallash kerak. Sostavli ot kesim harakat nomi kerak, zarur, lozim tipidagi so'zlar formasida ham bo'ladi.

Masalan: Maqsadga erishish uchun siddiqidildan mehnat qilish zarur.

Sostavli fe'l kesim. Bu xil kesimlar ikki yoki undan ortiq negizdan tuzilgan fe'llar bilan ifodalanadi. Bunda o'zining leksik ma'nosini saqlagan fe'l yetakchi fe'l hisoblanadi.

Qolganlari esa ko'makchi fe'l bo'lib, yetakchi fe'ldan anglashilgan harakatning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan turli qo'shimcha ma'nolarni ifodalaydi. Yetakchi fe'l asosan ravishdosh formasida bo'ladi.

Masalan:

- 1.Eshikni qo'qqisidan ochilishi Vali akani cho'chitib yubordi.
- 2.Tong oralig'i asta-asta torayib braverdi. (S.N) Sostavli fe'l kesim ayrim hollarda juft fe'llar bilan ifodalangan bo'ladi.

Masalan:

1. Gapning naq onasini aytdingiz-qo'ydingiz.
2. Onaxon yangi qaynoq ishning o'rtasidan tushdi-qoldi. (A.M)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika inistitutlar uchun) qayta ishlangan 2 nashri. T., "O'zbekiston" 1991 y.
U. Tursunov, J,Muxtorov, SH. Raxmatullayev, Xozirgi o'zbek adabiy Tili. T, "O'zbekiston" 1992 y.
2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi. T., "Fan", 1992 y.
3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №5G'6. 1992 y.
4. A.Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabalari uchun darslik) T., "O'zbekiston" 1994 y.
5. G'. Abduraxmonov, S. Mamajanov O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T., "O'zbekiston" 1995 y.
6. M. Mirtojiyev Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi. "O'zbek tili va adabiyoti jurnali" №2. 1995 y.

7. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar xaqida ba'zi bir muloxazalar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №1. 1997 y.

A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir.

"O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1998 y.

Mavzu: Gapda so'zlar tartibi.

Tayanch iboralar: Gap, gap bo'laklari tartibi, odatdagi tartib, o'zgargan tartib (inversiya)

Mavzuga doir muammolar.

1. So'zlar tartibi t'g'risida ma'lumot bering.
2. O'zgargan tartibni tushuntiring.
3. Odatdagi tartibni izoxlang.
4. So'z tarkibini o'zgarishi ma'noga ta'sir etishini misollar asosida tushuntiring.

Gap bo'laklarining tartibi o'zbek tilida asosan erkindir. Ularning o'rinlarni almashtirish gramatik xolatni ko'pincha o'zgartirmaydi. Masalan: Tush kezlari oftob elkani qizdiradi. (U. X.) Oftob tush kezlari elkani qizdiradi.

Bu gaplarda so'zlarning o'rinlarini almashtirish gramatik xolatni o'zgartirmagan. Lekin gap mazmuniga ma'lum darajada ta'sir etgan, ya'ni hahar gal boshqa-boshqa gap bo'lagiga odatdagidan ortiq ahamiyat berilgan. So'z tarkibini o'zgaptirish gramatik holatga ta'sir etishi mumkin. Bunday vaqtda ma'no ham o'zgaradi. Bu hol ko'pincha gap bo'laklarining vazifasi o'rniga belgilanganda yuz beradi.

1. ega bilan kesimning tartibini o'zgartirsak, ega kesim bo'lib qoladi, kesim ega bo'lib qoladi.

Masalan: Ikki o'n besh - bir o'ttiz. Bir o'ttiz – ikki o'n besh.

2. sifatlovchi bilan sifatlanmishning tartibi o'zgarsa, sifatlanmish ega, sifatlovchi kesim bo'lib qoladi.

Masalan: Chiroyli bino – Bino chiroyli.

3. Qaratuvchili birikmada qaratuvchi belgisiz bo'lsa, ularning o'rinlarini almashtirsak, qaralmish ega, qaratuvchi kesim bo'lib qoladi. Bu ko'pincha qaralmish ko'makchi otlar bilan ifodalanganda yuz beradi.

Masalan: Institut oldida – Oldi institute. Soy o'rtasi – O'rtasi soy.

O'zbek tilida so'zlar tartibi asosan, erkin bo'lsa ham, uning ma'lum normative xolati bordir. Bu muayyan tartib bo'lib, turli mazmunli gaplarda turlicha bo'ladi. Agar bu muayyan tartib, ya'ni gap bo'laklarning normative tartibi o'zgarsa, jonli tilda va she'riyatda uchraydi. Inversiya xossasini o'zgargan tarkib deyiladi. O'zgargan tartibda gap bo'laklarining odatdagi tartibi boshqacha bo'ladi. Bunda o'qiyotgan yoki tinglayotgan kishining diqqatini o'rni o'zgartirilgan bo'lakka jalb

qilish ko'zda tutiladi. O'zgargan tartibda gap bo'laklari, odatda quidagicha joylashadi.

1. Ega kesimdan keyin keladi, masalan: a) Yashasin tinchlik,
b) Xursandliligidan shoshilib qo'g'di chol.

2. To'ldiruvchi kesimdan keyin kelsdi, masalan: a) To'xtat suvni!

3. Vaziyat holi Fe'l – kesimdan keyin keladi, masalan; Mayin shamol esadi gir-gir. O'zbek tilida ega sostavi gap boshida keladi, oxirida esa kesim keladi. Ikkinchi darajali bo'laklar asosan, shular orasiga joylashadi. Bunday tartib oddiy xabar mazmundagi gaplarda bo'ladi. Har bir gap bo'lagiga nisbatan tartib quyidagicha bo'ladi:

1. Ega odatda gap boshida keladi: Dolimov bu gaplarni yurakdan aytdi. Yoyiq gapda ega ba'zan kesim oldida ham keladi. Bunday holatda uning gapda tutgan o'zni yanada ortdi. Masalan: Shu dam Maloxatga qadimiy Sharq bozorlarini serqatnov ko'cha eslatdi. Ba'zan gapning oxirida ham keladi. Bu vaqtda undan oldin kelgan gap bularga odatdagidan ortiq ahamiyat berilgan bo'ladi.

Masalan: Arslonqulning yo'lini to'sib gapirdi chol! (O).

2. Kesim odatda gapning oxirida keladi. Masalan: Daryo uzoqdan tovlanib ko'rinar edi.

3. Vasitasiz to'ldiruvchi ko'pincha fe'l kesim oldida keladi. Masalan: Dilshod kimningdir kuzatib turganini payqagan edi. Bu tartib o'zgarishi ham mumkin. Ba'zi hollarda to'ldiruvchidan boshqa bir bo'lakka odatdagidan ortiq ahamiyat berilgan bo'ladi. Masalan: Zamirani ko'm-ko'k dalada dars tayorlab o'tirgan holatda uchratdim. Vositali to'ldiruvchilar ham, odatda, kesim oldida keladi. Agar kesim oldida vositasiz to'ldiruvchi bo'lsa, vositali to'ldiruvchi undan oldin keladi. Masalan: O'qituvchi uyga berilgan vazifani hammadan so'rab chiqdi.

Vositali to'ldiruvchi ba'zan gap oxirida keladi. Bunda ham unga e'tibor berilgan bo'ladi. Masalan: Men hech narsaga tushunmadim bu gaplaringdan.

4. Hol asosan kesimdan oldin keladi. 1. Payt holi, odatda, gap boshida, ba'zan egadan keyin, ya'ni kesimga oid so'zlardan oldin yoki kesim oldida keladi. Masalan: 1. Kecha yosh xavaskorlar to'plandilar. 2. Cho'ponlar tong otishi bilan qo'ylarini Samarqandga haydab ketdilar. (S.A.) 3. Xasanali Otabekda shu vaqtgacha ko'rinmagan qiziq bir holatga besh-olti kundan beri ajablanar edi. (A.K). Payt holi ba'zan gap oxirida keladi. Masalan: Suvni tekis ichadigan yo'sinda jo'yak oldirasam, keyin. (O)

2. O'rin holi, odatda, fa'l kesim oldida keladi. Masalan: Bu kuylarni farg'onani Marg'ilonida eshitdim. (A.K.)

3. Ravish holi, odatda fe'l kesim oldida keladi. Masalan: bizning jamoa bu yilgi ishga astoydil kirishdilar.

4. Sabab va maqsad hollari kesimdan oldin, gapning boshida, ichida keladi. Masalan: Soch oldirish uchun Yolchi chopiqqa chiqmasdan oldin guzarga chiqdi. (O). Men Azizning xatosini bo'yniga qo'yish uchun necha kundan beri kuyib pishaman. (A.M.)

5. Miqdor-daraja hollari ham odatda kesim oldida keladi. Masalan: Biz yosh xavaskorlar to'garagi a'zolarining uzoq kuzatib turdik.

6. Aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Agar bu tartib o'zgartirilsa, ularning gramatik holati, ma'nilari ham o'zgaradi. Sifatlovchibirdan ortiq bo'lsa, ularning tartibi quyidagicha bo'ladi:

1. O'qiyotgan yosh bola, Guvirlayotgan zo'r shamol.
2. Son (yoki miqdor bildiruvchi boshqa so'z)] sifat] ot: beshta mevali daraxt, ko'pgina yangi binolar.

3. Olmosh] son] ot: mana shu bitta daftar, o'sha o'nta kitob, mana bu o'n talaba.

4. O'xshatish bildiruvchi so'z] sifat] ot; senday qaxramon kishi, Zamiradek serg'ayrat qiz.

5. Sifatdosh] son] ot; o'qiyotgan o'nta talaba uch qiz.

Nazorat savollari:

1. Gap bo'laklari tartibi haqida ma'lumot.
2. Odatdagi tartibni tushuntiring.
3. O'zgargan tartib (inversiya).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2- nashr T. "O'zbekiston" 1992 y.
2. A.Nurmatov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi T.
3. R.Rasulov. So'z valentligi va sintaktik a'loqa "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 5-6 1992 y.
4. A.Aliev, K. Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik) T. "O'zbekiston". 1994 y.
5. B.Abdurahmonov, S.Mamajanov o'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T. "O'zbekiston" 1995 y.
6. M. Mirtojiev Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 2 1995 y.
7. F.Ubaeva, R. Saydullaeva to'liqsiz gaplar to'g'risida ba'zibir mulohazalar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 1 1997 y.
8. A. Xo'jiev. So'zining morfem tarkibi masalalariga doir. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1998 y.

Mavzu: Gapning uyushuq bo'laklari.

Reja:

1. Uyushuq bo'laklar haqida ma'lumot.
2. Uyushgan va uyushmagan sifatlovchi.
3. Uyushuq bo'laklarda bog'lovchilar.
4. Uyushuq bo'laklarda vergulning ishlatilishi.
5. Uyushuq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z.
6. Uyushuq bo'laklarda ikki nuqta va tirenig ishlatilishi.

Mavzuga doir masalalar

1. Gapning uyushuq bo'laklari, deb nimaga aytiladi?
2. Uyushgan va uyushmagan aniqlovchilarning bir-biridan izohlang.
3. Uyushgan bo'laklarni kelishik qo'shimchalarining qo'llanishini tushuntiring.
4. Uyushuq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'zning qo'llanishini izohlang.
5. Uyushuq bo'laklarda ikki nuqta, tire, va nuqtali vergulning qo'llanilishi ayting.

Tayanch iboralar:

Bosh bo'laklar uyushuvi
ikkinchi darajali bo'laklar,
uyushuvi bog'lovchilar,
umumlashtiruvchi so'z, tinish
velgilari.

Uyushuq bo'laklar haqida ma'lumot.

Gap bir so'roqqa javob bo'lib, bir xil sinttaktik vazifani bajarib, o'zaro teng bog'lovchilar yoki sanash intonatsiyasi orqali birikkan gap bo'laklari gapning uyushuq bo'laklari deyiladi.

Masalan: Tobora ko'tarilayotgan quyosh o'rik, olma, shaftoli va giloslarning shohlariga o'zining ertalabki sel-sel yog'dusini sepmoqda. (P.T.)

Yoki: Sherga soldim tuprog'u yulduz,

Mehru vafo, do'st yor suratin.

(T. Sodiqova.)

mazkur misollarning birinchisida o'rik, olma, shaftoli, gilolar, nimalar? So'rog'iga javob bo'lib, uyushib kelgan bo'lsa, keyingisida tuproq, yulduz, mehr, vafo, do'st, yor so'zlari qaratqich aniqlovchi vazifasida kelib, nimaning? So'rog'iga javob bo'ladi hamda bir xil sintaktik vazifa bajarib kelyapti. Har bir gap bo'lagi uyushib kelishi mumkin.

Masalan:

1. Egalarning uyushib kelishi.

Gulos, To'ti, Qumri, Oyxon, Erkinlar,

Navro'z kuni devorlarga qararlar.

(Cho'lpon)

2. Kesimning uyushib kelishi

Haqiqat bu kilar, lekin sinmas. (maqol)

3. To'ldiruvchining uyushib kelishi

a) vositasiz to'ldiruvchi: Botir filosofiyaning, fan axillarini va siyosiy arboblarning obrazlari tasvirlangan badiiy asarlarni sevadi. (S.N.)

b) vositali to'ldiruvchi: Navoiy tarixda mashhur shaxslarning xayotlari, fikrlari, maqsadlari va ularga doir afsonalar haqida asar yozishni Jomiyga taklif etadi. (O.)

4. Aniqlovchining uyushib kelishi.

a) Sifatlovchi: maktabimiz bog'ida oq, qizil, sariq, safsar gullar ochildi.

b) Qaratuvchi: Oq o'rik, shotut, shaftoli, g'aynflining sap-sariq yaproqlari hovli betini ko'mib yotibdi.

5. Hollarning uyushib kelishi.

Ariq suvi bir hilda, jimgina, sharpasiz va shabodasiz oqmoqda. (I.R.)

Uyushuq bo'laklarning har biri boshqa bo'laklar bilan kelib, 'yiq holda bo'lishi ham mumkin. Masalan: Yo'lning har tomonida bir-biriga tutash bog'chalar, kichik-kichik ekin maydonlari, mevazorlar, chamanlar bor edi. (O.)

Gapning uyushuq bo'laklari quyidagi xususiyatlari bilan harakterlanadi:

1. Uyushuq bo'lak komponentlari o'zaro teng a'loqada bo'ladi.
2. Ular gapda bir xil sintaktik vazifalarni bajaradi.
3. Ular umumiy xisoblangan bo'lak bilan bir xil munosabatda bo'ladi.
4. Teng bog'lovchilar yordami bilan bog'lanadi yoki bog'lanishi mumkin.
5. Sanash intonatsiyasi orqali talaffuz qilinadi.
6. Odatda bir xil so'z turkumi bilan ifodalanadi, Grammatik shakillari ham bir xil bo'ladi.

Uyushuq bo'laklarda son, egalik, kelishik affikslari va ko'makchilar, odatda, uyushuvchi so'zlarning oxirisiga qo'shib, hammasi uchun umumiy bo'ladi.

Masalan:

Ariqcha bo'yidagi atirgul, qizilgul, naparmon gullar ochilib yotibdi. (I.R.)
Mana bu xashamatli binolar va tsexlarimiz zabardast ishchilarimizning qo'li bilan yaratilgan. (Gaz) Xirot har kuni dardi, nash'asi mashaqqati bilan yashaydi. (O.)

Son, egalik affikslari va ko'makchilar ba'zan uyushuq bo'laklarining har biriga qo'shilib kelishi ham mumkin. Bunda har biri alohida ta'kidlanadi.

Masalan: Tog'lar, adrlar, uzoq-yaqindagi daraxtlar qurum boskanday qopqora tus oladi. (A.K.)

Mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagi uchun, qudrati uchun, shon-sharifi uchun har bir fuqaro fidokorlik ko'rsatishi zarur. (Gaz).

Elim deb, yurtim deb, yonib yashash kerak!

(I.A.Karimov)

Uyushuq bo'laklarida affikslargina emas, so'zlar ham umumlashtirishdi, bunday so'z har bir uyushuvchi so'z bilan takrorlanmay, uyushuq bo'lak oxirida keladi.

Masalan: Paxta dalalarida kim ko'p, kim oldin, kim toza terishga musoboqa uynaydi. (G.G.) To'pa hola Anorxonning ham onasi, ham otasi, ham singlisi, ham maslaxatchisi edi. (I.R.) Bu gaplarda terishga, edi so'zlari uyushuq bo'lak oxirida kelyapti.

2. Uyuushgan va uyushmagan aniqlovchilar.

Odatda aniqlovchilar uyushgan va uyushmagan bo'ladi. Uyushgan aniqlovchilar – uyushgan sifatlovchilar predmetni bir tomondan aniqlansa va o'zaro teng holatda bo'lsa, uyushib keladi. Bunda ularning har biri to'ldiridan-to'ldiriga sifatlanishiga bog'lanadi.

Masalan: U sodda, uyatchan, kamtarin kamtarin yigit edi. (O.) Bu gapda uyushgan sifatlovchi-sodda, uyatchan, kamtarin o'zaro oxang yordamida birikib, predmet-yigitning belgisini, ya'ni xususiyatini aniqlab kelyapti.

Yoki:

Bahorda qum-qum libos kiyib olgan bog'lar endi sariq, qizish va ko'kimtir barg'lar ichida tovlanadi. (S.Z.) Bu Misoldagi sariq, qizg'ish va ko'kimtir so'zlari o'zaro teng xolatda predmet (barg) ni bir tomondan ya'ni bir tomondan ya'ni rang jihatdan aniqlab kelan.

Uyushgan sifatlovchilar bir predmetning turli belgilarini hamda bir turdagi belgilarini bildiradi, har ikkisida ham predmet bir tomondan aniqlanadi.

Masalan: Bu er kichkina, toza, serdaraxt, shiringiha manzil edi. (O.)Kechqurun kutubxonada u o'tirgan stolning usti qizil, yashil, ko'k, pushti, sariq jildli jurnallarga to'lib ketdi. (A.K.) Quyuq, bahaybat, badjahl bulutlardan yirik yomg'ir tomchilari savalab turadi. (O.)

Uyushmagan sifatlovchilar

Ba'zan bir qancha sifatlovchilar bir predmetni aniqlab kelsa ham, uyushgan sinalmaydi. Masalan: Bog'da katta bir tup yong'oq va har xil meva daraxtlari bor edi. (P.T.)

Bu misolda katta va bir tup so'zlari yong'oq so'ziga nisbatan aniqlovchidir. Lekin ular uyushgan emas. Chunki katta aniqlovchisi yong'oqning hajmini, bir tup esa miqdorini aniqlab kelayotir.

Uyushgan sifatlovchilar uyushgan sifatlovchilardan sanash intonatsiyasining yo'qligi bilan ham farqlanadi.

Masalan: Kichkina qora uyga yig'ilgan etti-sakkiz kelin uyning chetida qator-qator o'tirar edilar. (B.Kerb.)

Soy tomondan yoqimli mayin shaboda esa boshladi.

Yuqoridagi misolda kichkina so'zi hajmni, qora so'zi esa rang-tusni bi'ldirib uyushmagan sifatlovchi hosil qilgan. Keyingi misolda yoqimli so'zi bilan mayin sifatlovchi har xil belgini bildirgani uchun uyushmagan sifatlovchi hisoblanadi.

3. Uyushuq bo'laklarda bog'lovchilar

Gap bo'laklarining uyushib kelishda bog'lovchilarning roli katta. Ularning harakteriga ko'ra, uyushib kelgan bo'laklar ham ma'nolarni ifodalaydi.

Bu quyidagicha:

1. Va, hamda bog'lovchilari uyushuq bo'laklarni biriktiruv yo'li bilan o'zaro bog'laydilar.

Masalan: Yigit tor va qorong'l yo'ldan dalaning keng va yorug' maydoniga chiqdi. Katta xovuzlardagi suvlarda ko'lankalar hamda shu'lalar jim-jim o'ynashdi. (O.)

Uyushuq bo'laklar ko'p bo'lganda, biriktiruvchi bog'lovchi oxirgi juft orasida kelib, sanalishning tugalishini ko'rsatadi.

Masalan: Bozor ichkari xovlidan dasturxon, non va mayiz olib chiqdi. (S.A.)

Bilan aslida ko'makchi bo'lib, ayrim paytlarda biriktiruvchi bog'lovchi vazifasini ham bajaradi. Masalan: Umarjon Qurbon ota bilan Sodiqjonni sozandalar yalla qilayotgan davradan topdi. (A.K.)

Shuningdek, - u (-yu); -da yuklamalari ham biriktiruvchi bog'lovchi vazifasida keladi.

Masalan: Chaqmoq qilichi ufqqacha yargirab cho'zildi-yu, so'ndi. (S.N.) Jannatxon Namanganga ketish oldida o'ziga tanish bo'lgan tepaga chiqdi-da, o'ziga qarashli boqqa nazar tashladi. (Gaz). Biriktiruvchi bog'lovchilardan va, bilan yordamida bog'langan uyushuq bo'laklar juft-juft bo'lib kelishi mumkin.

Masalan: Zulfiya bilan Komiljon ham, Anorhon bilan Ernazar aka ham selning oqibati tog'risida o'ylar edilar. (I.R.) Erta sahardan beri ish boshida yurgan Oygiz va Olimjon, ayniqsa Suvonqul bilan Bekbuta ko'k piyoz sepilgan oshni zo'r ishtaxa bilan edilar. (Sh.P.)

2. Biroq, lekin, ammo bog'lovchilari uyushgan bo'laklarni bir-biriga zid qo'yish yo'li bilan bog'laydi:

Masalan: Komiljon Saodatxonning ko'zlari muloyimgina qaradi, lekin javob bermadi. Boboqul ota uni kimgadir o'xshatdi, ammo tanimadi. (S.Anorboev.) Qiz Saidiydan o'z ishiga doir ko'p ma'lumotlar olishga umidvor, biroq so'ramaydi. (A.K.)

Zidlovchi bog'lovchi vazifasida ba'zan -u; -yu; yuklamalari ham keladi. Masalan: Nazira hola mehmonlar bilan so'rashdi-yu, gapirmadi. Zidlovchi bog'lovchilar yordami bilan ko'proq kesim uyushib keladi.

3. dam ..., dam ..., goh ..., goh ..., ba'zan ..., ba'zan ..., bir ..., bir ..., yohud ..., yohud ..., yoki ..., yoki ..., yo ..., yo ...; bog'lovchilari uyushgan bo'laklarni ayirish yo'li bilan bog'laydi.

Ayruvchi bog'lovchilardan bir guruh (goh ..., goh ..., ba'zan ..., ba'zan ..., bir ..., bir...) uyushgan bo'laklardan anglashilgan ma'noning bajarilish – bajarilmasligida galma-gallikni ko'rsatadi.

Masalan: Chapda, goh o'ngda quloqlarni teshuvchi chinqiriq tovushlar bilan chigirtkalar chirillashadi. (M.I.)

Kechki shabada dam musaffo suv zidini, dam atrofdagi gullarning ajoyib xidlarini, dam yoqimli suv changini olib kelardi. (P.K.) Beklar ba'zan podshoga, ba'zan Navoiyga tikilib jim o'tirishardi. (O.) To'tiqiz bir Dilshodga, bir xolisga, bir onasiga qarab qoyardi. (M.I.)

Ayiruvchi bog'lovchilarning ikkinchi bir guruxi (yoxud..., yoxud ..., yoki ..., yoki ..., yo ..., yo ...;) uyushuq bo'laklarning birini ikkinchisidan ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Masalan: Gulnorning o'ylab qo'ygan oxirgi chorasi yo o'lim, yoki Yodgor bilan birga qochib ketish edi. (S.A.)

4. Uyushuq bo'laklarda vergulni ishlatilishi.

1. Uyushuq bo'laklarda sanash intonatsiyasi bilan birikkanda, yozuvda biri ikkinchisidan vergul bilan ajratiladi. Masalan: Oydin osuda bir tun edi. (O.Yo.) Tus-to'polon ichida bir-birlarini yoqotib qo'ymaslik uchun O'rinboy, Sergey, Matluba, Mishalar qo'l ushlab olishdi. (T.Po'lat.)

2. Uyushuq bo'laklar zidlovchi bog'lovchilar yordami bilan birikkanda ham, shu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: Munavvar seskandi, lekin shu

zahoti o'zini qo'lga oldi. (S.Anarboev) Ketma-ket chaqaloqning yo'g'on, leki bog'iq inga-ingasi eshitildi. (S.Z.)

3. Uyushuq bo'laklar takrorlanuvchi bog'lovchilar yordami bilan birikkanda, ular orasida vergul qo'yiladi.

Masalan: Tog'lar goh chap tomoningda, goh o'ng tomoningda paydo bo'lib qolardi. (U.U.)

4.Uyushuq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'z

Uyushuq bo'lakli gaplarda umumlashtiruvchi so'z uyushuq bo'laklarni umumlashtiradi. Jamlaydi.

Umumlashtiruvchi so'z vazifasida ko'pincha belgilash olmoshlari, ko'rsatish olmoshlari va jamlovchi otlar qo'llanadi.

Umumlashtiruvchi so'z uyushuq bo'laklar uchun berilgan so'roqqa javob bo'ladi va uyushuq bo'laklar bilan bir xil sintaktik vazifa bajaradi.

Masalan: Hamma narsa: uylar, devorlar, daraxtlar, qorong'ulikka jimgina cho'kdi. (O.)

Osmonda, daraxtlarda, toshlarda, bo'g'otlarda – hamma erda chumchuqlar chirqillashadi. (M.Ismoiliy.)

Umumlashtiruvchi so'z ba'zan birikma holida qo'llanishi ham mumkin.

Masalan: Olma, o'rik, shaftoli, qovun, tarvuz, xandalak, bordring – bularning hammasi yozning ziynatidir.

5. Uyushuq bo'laklarda nuqta va tirening ishlatilishi.

Umumlashtiruvchi so'z uyushuq bo'laklardan oldin kelsa ikki nuqta (:),Umumlashtiruvchi so'z uyushuq bo'laklardan keyin kelsa, undan oldin kelsa tire (-) qo'yiladi.

Masalan: Hamma: yoshlar, keksalar, ayollar qatnashdilar. Mehri hola non, mayiz, yong'oq-eguliklar olib chiqdi.

Yoki: Tong pallasida qaryalar, xotin-xalachlar, yoshlar-qishloq ahli choyxona atrofiga to'plandilar.

Ba'zi vaqtlarda umumlashtiruvchi so'z bilan uyushuq bo'laklar orasida kirish so'z ham keladi.

Masalan: Institut talabalari: jumladan, Sanobar Qodirova, Nazira Julomova, Rafiq Usmonovlar sport musobaqalarida birinchilikni oldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashri T. "O'zbekiston". 1991 y.
2. A.Nurmatov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi. T. "Fan" 1992 y.
3. R.Rasulov. So'z valentligi va sintaktik a'loqa "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. № 5-6 1992 y.
4. A.Aliev, K.Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik) T. "O'zbekiston". 1994 y.

Mavzu: Ajratilgan izox bo'laklar.

R e j a

1. Ajratilgan izox bo'laklar xaqida.
2. Ajratilgan to'ldiruvchi.
3. Ajratilgan aniqlovchi.
4. Ajratilgan xol.
5. Ajratilgan izox bo'laklarda tinish belgilari.

Mavzuga doir muammolar.

1. Ajratilgan bo'laklar xususida to'xtaling.
2. Ajratilgan to'ldiruvchilarning odatdagi to'ldiruvchidan farqini ayting.
3. Aniqlovchilarqaysi holatlarda ajratiladi?
4. Holni qaysi turlari ajratiladi?
5. Ajratilgan izox bo'laklarda tinish belgilarining qo'llanishini tushuntiring.

Tayanch so'zlar:

Ajratilgan izox bo'lakli gaplar, ajratilgan to'ldiruvchi, aniqlovchi, xol, so'roqlar o'rni.

1. Ajratilgan izox bo'lakli gaplar haqida.

Sodda gaplar tarkibida ba'zan ajratilgan bo'laklar ham qatnashish mumkin. Gapning ajratilgan bo'laklari o'zlari aloqador bo'lgan so'zlarning ma'nosini izoxlab, konkretlashtirib keladi va ular boshqa bo'laklardan maxsus pauza bilan ajratilib, logik urg'u oladi.

Masalan:

1. Biz dam olish kuni ertalab shahardan tashqarida, biz suv bo'yiga chiqdik (O.Ė)
2. Konvert ichidagi adresga, tanish va qadrli xusni xatga tikilgancha xayolga cho'mdi.
3. Axir uning, Voxidjonning ham o'ziga yarasha obro'si, yigitlik izzat-nafsi borku! (O.Ė) Bu har uchala misolda ajratilgan xol (birinchi gap), ajratilgan to'ldiruvchi (ikkinchi gap), ajratilgan aniqlovchi (uchinchi gap) ifodalangan. Bazan ajratilgan bo'laklar oborot formasida bo'lishi ham mumkin.

Masalan:

Musoaffo osmondagi yulduzlar singari, bexisob elektr lampochkalari kechani kunduzdek yoritib turibdi. ("Ishonch" gaz.) yoki:

Nargiz Gullar bog'ining hayotbaxsh tongini yaratib, pokiza sevgi haqida kuylaydi. Birinchi gapda ko'makchili kostruksiya formasidagi oborot (musaffo osmondagi yulduzlar singari), ikkinchi gapda ravishdosh oborot (gullar

bog'ining hayotbaxsh tongini yangratib) kesimdan anglashilgan ish harakatning qanday holatda bajarilganligini ta'kidlab, aloxida intonasiya yordamida ajratilyapti. Ko'rinadiki ajratilgan bo'laklar, oddiy gap bo'lagi formasida kelgani kabi turli oborot formasida ham bo'lishi mumkin.

AJRATILGAN BO'LAKLAR 3 XIL BO'LADI:

1. Ajratilgan to'ldiruvchi.
2. Ajratilgan aniqlovchi.
3. Ajratilgan xol.

AJRATILGAN TO'LDIRUVCHILAR

ajratilgan to'ldiruvchilar ikki xil:

1. Ko'makchili konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan to'ldiruvchi.
2. Oddiy gap bo'lagi formasidagi ajratilgan to'ldiruvchilar Ko'makchili konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan to'ldiruvchi kesim yonida kelmaydi. To'ldiruvchilarning ajratilishida qaraganda, ustiga, tashqari, ilgari, bilan birga va shu kabi ko'makchi vazifasida kelgan so'zlar ishtirok etadi. Qaysi ko'makchi yoki ko'makchi vazifasidagi so'z bilan kelishiga qarab ajratilgan to'ldiruvchilar quyidagi ma'nolarni ifoda qiladi.

Masalan:

Tashqari ko'makchisi bir predmetni boshqasidan ajratib ko'rsatsa, qaraganda, ko'makchilar predmetlarni qiyos qilishda yordam beradi, bilan, ustiga, ko'makchilar esa ma'noga ikkinchi ma'noning qo'shilishi ko'rsatdi.

Masalan:

1. Usta amaki o'ymakorlikdan bo'lak, boshqa ustaxonalar uchun qog'ozga naqsh va gullar ham chizib beradi. (S.A)
2. Qamishkapaliklar odamlarni nomlari bilan atashdan ko'ra xususiyatlari bilan ta'kidlashni afzal ko'radi. (P.T)
3. Men o'qishimni davom ettirish bilan birga, kechki smenada ishlab ham turibman.

ODDIY GAP BO'LAGI FORMASIDAGI TO'LDIRUVCHILAR

Bu xil to'ldiruvchilar o'zidan oldingi to'ldiruvchining ma'nosini izoxlaydi, unga aniqlab kiritadi, boshqa turdagi ajratilgan bo'laklar kabi, uziga xos intonasiyaga ega bo'ladi. Vositasiz to'ldiruvchilar ham, vositali to'ldiruvchilar ham ajratiladi.

AJRATILGAN VOSITASIZ TO'LDIRUVCHILAR

1. Endi ular faqat birgina saylni-dushman ustidan g'alaba qilingan kun tantanasini umid qiladilar.
2. Qaynotangni, Zunnunxo'jani, oldin ham ko'rganmiding?

AJRATILGAN VOSITALI TO'LDIRUVCHILAR

1. U oilasi bilan-xotini, chaqaloq qizi, o'n besh yoshli singlisi bilan, Oltiariqqa ko'chib bordi. (E.V)
2. Bektemirga, sobiq sodda cho'ponga, komandiring g'oyat ëqdi.

Ajratilgan to'ldiruvchi bilan ajratilmish to'ldiruvchi bir xil grammatik shaklda bo'lib, bir xil so'roqqa javob bo'ladi. Bu jixatdan uyushiq bo'laklarga o'xshaydi. Biroq bularda intonasiyada o'ziga xos pauza bo'ladi. Oddiy gap bo'lagi formasidagi ajratilgan to'ldiruvchilar o'zlari izoxlab kelayotgan to'ldiruvchilar bilan, ya'ni, shu jumladan, masalan, kabi, yordamchi so'zlar orqali bog'lanishi ham mumkin. Masalan: Jahon kitobxonalari qirg'iz yozuvchisi, ya'ni Chingiz Aymatovni yaxshi biladi, yoki: Bu xabar ko'plarni, shu jumladan, Maxkamni ham, juda quvontirdi. (P.K)

3. AJRATILGAN ANIQLOVCHILAR

Ajratilgan aniqlovchilar uch xil bo'ladi:

1. Ajratilgan sifatlovchi.
2. Ajratilgan qaratuvchi.
3. Ajratilgan izohlovchi.

AJRATILGAN SIFATLOVCHI predmetning belgisini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida ajratiladi. Ajratilgan sifatlovchilar sifatlanmishdan keyin kelsa ajratilgan sanaladi.

Masalan:

Ma'lum bo'lishicha u, ya'ni universitet domlasi dosent Obidov, bir necha yillardan beri biologik metodi ustida ish olib bormoqda ekan. (O.Ė) Ajratilgan aniqlovchilar, ya'ni sifatlovchi odatda birikma yoki uyushgan xolda keladi.

Masalan:

Qo'chqarov-do'ng peshona, qirra burun, ko'krakdor, polvontaxlit yigitcha-kichkina tuman gazetasiga ko'z tikib o'tirardi. Bunda predmetning belgisini bo'rttirib berish uchun sifatlanmishdan keyin keltirilgan. Ayrim paytda yakka kelgan sifatlovchilar ham ajratilishi mumkin.

Masalan:

Saxarlab mardikorlar, yalang oyoq . . . bozorga, ishga, chopdilar.

AJRATILGAN QARATUVCHI.

Bunda qaratuvchi o'zidan oldin kelgan boshqa bir qaratuvchini izoxlash, konkretlashtirish yo'li bilan ajratiladi.

Masalan:

Bu dugonamning, Xalimaning, ro'moli.

Yoki:

O'sha otga mana bu bolaning, Xudoyberdining, ishki tushib qolgan. (M.A)

AJRATILGAN IZOXLOVCHILAR.

Izoxlovchilar ko'pincha ajratilgan bo'ladi. Bunda ular izoxlanmishdan keyin kelib, maxsus intonasiya bilan talaffuz qilinadi.

Masalan:

Dadang-bizning qadrdon do'stimiz-hamisha qalbimizda yashaydi. Izoxlovchi o'ziga oid so'zlar bilan kengayib kelsa, uning ajratilganligi tez payqaladi. Masalan: Denisov-dehqonlar orasida ko'p yurgan sobiq irrigator sodda, odamshinavanda lekin talabchan, haqiqatchi edi. (O)

AJRATILGAN XOLLAR.

Ajratilgan xol o'z formalariga ko'ra ikki xil.

1. Oborot formasidagi ajratilgan xol.
2. Oddiy gap bo'lagi formasidagi ajratilgan xol.

OBOROT FORMASIDAGI AJRATILGAN XOL.

Oborot formasidagi ajratilgan xol o'z navbatida uchga bo'linadi.

1. Ravishdosh oboroti formasidagi ajratilgan xol.
2. O'xshatish oboroti formasidagi ajratilgan xol.
3. Ko'makchi konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan xol.

Ravishdosh oboroti formasidagi ajratilgan xol. Ravishdoshlar o'ziga oid so'zlar bilan kengayib kelishi mumkin. Bular ravishdosh oboroti deyiladi. Ravishdosh oboroti odatda ajratilgan bo'ladi.

Masalan:

1. Shu payt ikki "Pobeda" birin-ketin signal berib, boqqa kirib keldi. (S.N)
2. Dilmurod ko'zlarini yerdan olmay, sekin-sekin odimlab boryapti.
3. Biz institutdan qaytgach, bir oz dam oldik.

Ravishdosh oboroti quyidagicha ma'noni ifodalaydi.

1.Ish-harakatning bajarilish xolati. Masalan:

- 1.Mavlon ota uzoq-uzoqlarga tikilib, roxatlanib nafas oldi. (S.N)
- 2.Kanizak o'tirgan odamlarni oralib narigi tomonga o'tib ketdi. (A.K)

2.Ish-harakatning bajarilish payti. Masalan:

- 1.Botir mehmonlar bilan salomlashib, ayvonli uyga o'tdi. (S.N)

2.Ekskursantlar manzilga yetguncha, bir necha doyda dam oldilar.

3.Ish-harakatning bajarilish shartini. Masalan:

1.Dunyoni tanimay, dunyo kishisi bo'lmaysizlar.

4.Ish-harakatning bajarilish sababini. Masalan: 1. bo'taboy cholning kallasida nima borligini bilolmay, ancha vaqtgacha u ëqqa-bu ëqqa to'lg'onib uxlayolmadi. (S.A) 2. Akmal aka paxtazordan ko'nglini uzolmay, sanatoriyadan ham vaqtdan ilgari ketdi.

5._____ ma'noni. Masalan: Ochiq derazadan kirgan salqin shabadaga qaramay, har ikkisining peshonasida tomchi-tomchi suv yiltirab ko'rinardi.

O'XSHATISH OBOROTI FORMASIDAGI AJRATILGAN XOL.

-day,-dek affikslarni olib kelgan so'zlar ham kengayib ajratilishi mumkin.

Masalan:

1.Onaxon xozirgina yugurib kelgan odamdek tez-tez nafas olar edi.

2.Oltinsoyliklarning suv uchun kurashi dengizga quyilgan daryodek, butun xalqimizning qurg'oqchilikning yengish uchun boshlagan kurashiga munosib xissa bo'lib qo'shildi.

3.Traktorchilar bo'ron bilan o'chakishganday, tun bo'yi yer xaydadilar.

KO'MAKCHI KONSTRUKSIYA OBOROTI FORMASIDAGI AJRATILGAN XOL.

Ko'makchili konstruksiyasi formasidagi xol kesimdan uzoqda kelib, o'ziga oid so'zlar bilan kengayib, boshqa gap bo'laklardan ajralishi mumkin. Bunda konstruksiya kabi, bo'yicha, tufayli, yarasha, xolda, muvofiq kabi ko'makchi so'zlar bilan shakllanadi.

Masalan:

1. navoiy bir qo'lini ko'ksiga qo'ygan holda, boshini kamtar, yengil qimirlatishi bilan xalqning tabrigiga samimiy javob berib bordi.

2. To'ppon, ishda to'rt kishining ishini qilgani kabi, ovqatda ham to'rt kishining ovqatini yegan edi.

Ko'makchili konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan bo'laklardagi kabi, ma'lum darajada predikativlik mavjud. Ko'makchili konstruksiya oboroti formasidagi ajratilgan xol quyidagi ma'noni ifodalaydi.

1. Turli xolatni

Masalan:

1. Nor xola xursandlik bilan yuragi to'ygan xolda, bog'ni aylanib keldi.

2. O'ktam allanechuk bo'shashgan holda otliq qizning orqasidan ancha vaqt o'ychan qarab qoldi.

2. O'xshatishni,

Masalan:

1. Buloqning suvi, podshox zamondagi mazlumlarning ko'zlaridan oqqan yosh kabi tinmay to'lib toshdi. (SH.R)
2. Farxodning qoyalarni o'pirgan afsonaviy teshasi kabi, shoir fikri toshlarni yaxlid kesib, misralarga boylab, qalab ketdi.

ODDIY GAP BO'LAGI FORMASIDAGI AJRATILGAN XOLLAR.

Oddiy gap bo'lagi formasidagi ajratilgan xollar o'zidan oldin kelgan xolning so'rog'i va vazifasiga teng bo'ladi. Ajratishning bu turi tilimizda keng qo'llanadi. Ayniqsa, ajratilgan payt va o'rin xollari juda ko'p ishlatiladi.

AJRATILGAN O'RIN XOLI.**Masalan:**

1. Nariroqda, garb tomonda, Lena tog'lari yuksaldi. (O.T)
2. Ayvon oldida, otxonaning lang ochiq eshigi yonida, otlar qarsillatib yem yeb turardi.

AJRATILGAN PAYT XOLI**Masalan:**

1. Bugun, darsdan keyin, maktabda ota-onalar yig'ilishi chaqirilgan edi.
2. Shu kuni kechqurun, daladan qaytishda, qori Siddiqjonga hamrox bo'lib qoldi.

AJRATILGAN BO'LAKLARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

Ajratilgan bo'laklarda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi.

1. Ajratilgan bo'laklar odatda vergul bilan ajratiladi.

Ajratilgan bo'lak gapning boshida kelsa, undan so'ng, oxirida kelsa undan oldin, gapning ichida kelsa, har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi.

Misollar:

1. Ko'm-ko'k barglarga burkangan daraxtlarni tebratib, salqin shabada esadi.

2. "Dunyoning ishlari ko'p qiziq-da", dedi Zebixon, o'ziga-o'zi gapirganday. (S.Z)

3. Jangchilar, nima haqida gap kelayotganligini bilmay, qiziqish va xayrat bilan qarashardi. (O)

3. Ajratilgan bo'lakning sostai keng bo'lsa yoki uning ichida vergul bo'lsa, bunday ajratilgan bo'laklar tire (-) bilan ajratiladi.

Masalan:

1. Axir u mana shu o'tirganlar -erkaklar, ayollar va besh yosh bolalar uchun-frontda kon to'kmaganmi?! (SH.R)

2. Soraxon shuncha kundan beri yetolmagan niyatiga -Roziyani avvaliday go'zal, shod ko'rish niyatiga-Sattor bir laxzada yetdi. (P.K)

3. Ajratilgan bo'lak izoxlanmishning ma'nosini ochib bersa (ular o'rtasida ya'ni so'zini ishlatish mumkin bo'lsa), bunday ajratilgan bo'lak ham tire (-) bilan ajratiladi. Bunday xolatda ajratilgan bo'lak bilan keyingi gap bo'laklari

orasiga hech qanday belgi qo'yilmaydi. Chunki ular o'rtasida ajratuvchi pauza yo'q. Ular umumiy intonasiyaga ega bo'ladi.

Masalan:

1.Bambur Nargizning vatani-Gullar bog'ini bilardi. (SH.R)

2.Biri aks etadi gullarda,

Biri olim-ëqimli, xushfe'l. (X.P)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1.O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashri T. "O'zbekiston" 1991 y.

U.Tursunov, J.Muxtorov, SH.raxmatullayev, Xozirgi o'zbek adabiy tili. T., "O'zbekiston" 1992 y.

2.A.Nurmonov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi. T. "Fan" 1992 y.

3.R.Rasulov. so'z valentligi va sintaktik aloqa "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 5-6 1992 y.

4.A.Aliyev, K.Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik) T. "O'zbekiston" 1994 y.

5.G'.Abduraxmanov, S.Mamajonov. O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T. "O'zbekiston". 1995 y.

6.M.Mirtojiyev Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 2. 1995 y.

7.F.Ubayeva, R.Saydullayeva To'liqsiz gaplar to'g'risida ba'zi bir muloxazalar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 1. 1997 y.

8.A.Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1998 y.

Mavzu: Gap bo'laklari, sanalmaydigan so'z va birikma.

Reja:

1. Undalma va ularda tinish belgilar.
2. Kirish so'z va kirish birikma.
3. Kirish gap va unda tinish belgilarning ishlatilishi.

Mavzuga doir muamollar

1. Undalmani gap bilan grammatik bog'lanmasligini izoxlang.
2. Kirish so'z nima uchun gap bo'lagi vazifasida qo'llanmaydi?
3. Kirish gap asosiy fikrni iroda etuvchi gapdan qaysi jixati bilan farq qiladi, misollar asosida tushintiring.
4. Undalma, kirish so'z va kirish xamda kirish gaplarni qo'llanadigan tinish belgilar xususida to'xtaling.

Tayanch so'zlar: Undalma, kirish so'z, kirish gap,
qo'llanish o'rni, bog'lanish,
vazifa.

Undalmalar. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsini bildirgan so'z yoki so'z birikmasi undalma deyiladi. Undalma aytilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortish uchun xizmat qiladi. Undalma bosh

kelishikdagi ot yoki ot ma'nosidagi so'zlar orqali ifodalanib, gapning umumiy mazmunini to'ldiradi, gapning kimga qarashli ekanini ko'rsatib beradi. Bu jixatdan undalma egaga o'xshaydi, ammo u gapning kesmi bilan grammatik jixatdan bog'lanmasligi, o'ziga xos intonasiyasiga ekanligi bilan farq qiladi.

Masalan: Kamtarlik qilma, Yigitali, buni o'zingning xalol mehnating bilan olding (S.K.).

Undalma asosan dialog gaplarda qo'llanadi va aksariyat ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Shunigdek, monologda, avtor nutqida, murojaat, shior, buyruq, chaqiriq, e'lonlarda ishlatiladi.

Masalan: Nazir aka, bu yil yangi terim mashinalari yoshlarga xam tegadimi? (Z.U.)

Undalma gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'laklari bilan moslashuv, boshqaruv va bitishuv aloqasiga kirisha olmaydi. Ammo u gapning ayrim bo'laklari yoki butun gap mazmuniga aloqador bo'lib, gapning zarur qismlaridan biri xisoblanadi. Shuning uchun xam u ayrim gap bo'laklari va gapning umumiy mazmuni bilan o'ziga xos grammatik aloqaga kirishadi. Ma'lum bir gapdan undalmaning chiqarilishi yoki xatto o'rnini o'zgartirilishi gapning umumiy mazmuniga ta'sir etadi, muallifning aytmoqchi bo'lgan fikri anglashilmay qoladi. Undalmaning ajratilgan izoxlovchiga yaqin bo'lgan turida grammatik aloqaga kirishish xususyati aniq ko'rinadi, chunki undalma ma'lum bir bo'lakning ma'nosini izoxlaydi. Masalan: Bosh turmishim turi, ko'nglimning shuuri. Bularning hammasi

sen, Vatanim, onam. (X.O.) Misolidagi Vatanim-onam undalmasi sen olmoshining ma'nosini izoxlaydi, aniqlashtiradi. Vatanim-onam undalmasi butun gap mazmuni bilan xam aloqadordir. Bu xil undalmaning asosiy vazifasi undalma bo'lsa xam, unda izoxlash xususiyati xam bor. Bunday undalmalarning ajratilgan izoxlardan farqi quydagicha :

1. Undalma chaqirish intonasiyasi bilan talafuz qilinadi. Ajratilgan izoxlar esa ajratilgan, sust intonasiya bilan aytiladi. Undalma ko'pincha butun bir gapga qaratilgan, izoxlar esa biror bo'lakni izoxlaydi, to'ldiradi. Undalma bosh kelishikda bo'ladi, izoxlar esa ma'lum kelishik affikslari vositasida ifodalanadi. Shunigdek, undalmalar nominativ (atov) gaplarga shaklan o'xshash bo'ladi. Biroq ulardan farqli tomonlari mavjud: 1. Nominativ gaplar ma'lum bir xis-xayajon, maqsad ifodalangan gapdir. Shuning uchun xam u gap intonasiyasi bilan talaffuz etiladi. Undalma tugal bir maqsad yoki tugal bir xis-xayajonni ifodalamaydi, intonasiyada xam tugallik bo'lmaydi. 2. Nominativ gaplar asosan boshlanish o'rnida qo'llanadi. Undalmalar esa gap boshida, o'rtasida, oxirida kelishi mumkin.

Masalan: Nominativ gap:

1. Kuz. Izg'irin shabada xushtak chalib turibdi. (I.T).
2. Erta tong. Quyosh xali o'zining zarrin nurlarini sochganicha yo'q.

Undalma.

1. Bobo, to'qayda arslon bo'ladimi?

2. Topshiriqni o'z vaqtida bajarganigiz uchun raxmat,azamatlar!

Undalmalar ko'pincha shaxs otlari, qarindoshlik, xunar-kasbni anglatuvchi so'zlar orqali ifodalanadi. Tarkibida undalma bo'lgan gaplarda, odatda ega tushiriladi.

Masalan :

1. Xamid, badiy o'qish to'gaaragiga qatnashasanmi ?
2. Onajon, bu ishda endi orqaga qaytib bo'lmaydi.
3. Usta bormisiz? Anchadan beri ko'rinmaysiz?

Ba'zan undalmalar - u(-yu),-ov,-ey kabilar bilan qo'llanadi.

Masalan :

1. Ey rais, bu kitoblarni avval o'qib ko'ring, undan keyin mag'zini tushinasiz.
2. Saodat-u, tez-tez kelaqol.
3. Zulfiya-yu, qayerdasiz?

Undalma ba'zan aniqlovchi, izoxlovchi so'zlar olib, birikma xolida bo'ladi.

Masalan:

1. Sizni istab keldim, ulug' sardorim!
2. Bu yoshlar, Tojiboy aka bizning baxtimiz uchun kurashuvchilardir.

Undalmalar ba'zan uyushib kelishi mumkin.

Masalan:

1. Xurmatli onaxonlar, otaxonlar, biz sizlarning mexnatingiz bilan faxrlanamiz.

Undalma gap boshida kelganda undosh, chaqiriq intonasiyasi ega bo'lib, pauza bilan ajratiladi.

Masalan:

1. Usta A'zim, paxta ishida qulosimizni rosa keraylik.
2. O'rtoq Nishonov, ota-onalarni chaqirishni unitmang!
3. Saodat, mana bu etyuddagi peyzaj juda ajoyib ekanmi?

Undosh ma'nosini kuchaytirish uchun ba'zan undalma takrorlanib qo'llaniladi.

Masalan: Bolam, jon bolam, o'zingni extiyot qil... Xo'pmi, jon bolam ! Tushundingmi-a !

Undalmani kuchli ifodalash uchun undalma oldindan e, xoy, obbo, ox kabi undovlar xam qo'llaniladi. Masalan: Ex, bolam. Dadangning ishi ko'payib ketdi. Ba'zan undovlar undalma vazifasida qo'llash mumkin. Masalan: Dada-chi, dada, bugun bog'chada poyezdg'poyezd o'ynadik. Undalmalr nutq qaratilgan ob'yektni ifodalaydi. Ob'yekt esa uch xil bo'lishi mumkin.

1. Shaxs
2. Shaxs bo'lmagn jonli predmet
3. Jonsiz predmet.

4. Undalmalar shaxsni ifodalaganda, kishining nomi, familyasi, taxallusi, qarindoshligi, yoshi, jinsi, kasbi, unvoni va boshqa xususyatlarini ko'rsatish mumkin.

Masalan :

1. Sobir Umarovich, sizni tabriklayman.
2. Qani, dakang xo'roz, zakazingni qila ber.
3. Xech qayerga borma, Musa tog'a, xech qayerga.
4. Xammamizga xam ruxsat eting, o'rtoq leytenant .

2. Undalma jonli predmet bo'lishi mumkin. Bunday undalmalar xayvon, parranda, xashorat nomlari bo'lib, ko'pincha, masal, matal, ertak, xamda she'ryatda qo'llanishi mumkin.

Masalan :

1. Xoy tulkivoy, qayoqqa ketyapsan?
2. ayiq polvon, o'rmonga birga bormaymizmi?

Undalma jonsiz predmet bo'lishi mumkin. Bu asosan she'ryatda qo'llanadi.

Masalan :

1. Seni unitolmas yuragim aslo, Ey O'rta Osiyo, O'rta Osiyo!
2. Shamol, yuzlarini silab o't.

Undalmada gapning boshida kelsa, yozuvda undalmadan so'ng vergul qo'yiladi.

Masalan: Unsin, bu oila qalay, ketasanmi yo bu yerda turasanmi? Agar gap boshida kelgan undalma xayajon bilan aytilsa, undan so'ng undov belgisi qo'yiladi. Gapning davomi bosh xarf bilan boshlanadi.

Masalan: Kechir meni! Nodon,ko'zi ko'r, toshmexr dadangni kechir, qizim!

2. Undalma gap ichida kelsa, uning xar ikki tomonidan vergul qo'yiladi.

Masalan: So'zla, ko'zgujon, xaqiqatni et bayon!

3.Undalma gapning oxirida kelsa undan oldin vergul qo'yiladi.

Masalan: Shunday demaysizmi, azizim !

4. Undalmani kuchli ifodalash uchun undalmaning oldidan undovlar qo'yiladi, undov bilan undalmaning orasiga vergul qo'yiladi.

Masalan: Xoy, Jamila, nega bular radioni gapirtira oladi-yu, sen bilmaysan?

Kirish so'z va kirish birkma.

So'zlovchining o'zi bayon qilayotgan fikriga bo'lgan turli munosabatini bildiruvchi so'z yoki so'z birkmasi kirish so'z yoki kirish birkma deyiladi.

Masalan: Darvoqe, Anvarga ko'p mexnatim singan. Kirish so'z shodlik, gumon, ishonch, umid, taajub, fikrini kimga qarashli ekanligi, uning oldingi fikri bilan bog'liqligi, shubxa, eslatish kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Kirish so'z ko'pincha modal so'zlar bilan, kirish birkma esa so'z birkmasi orqali ifodalanadi. Masalan:

1. Umuman, ezgu ishning cheki yo'q.

2. Axmadning aytishicha, ertaga yugurish musobaqasi o'tkaziladi.

3. Kirish so'z butun gapga, qo'shma gaplarda esa odatda uning bir qismiga aloqador bo'ladi.

Masalan:1. Darxaqiqat, Pugachyov o'sha yetakchiga juda o'xshar ekan.

2. Nazir o'qishni bitirsa, albatta, men uni tabriklayman.

Birinchi gapda kirish so'z butun bir gapga aloqador, ikkinchi gapda esa gapning so'ngi qismi(men uni tabriklayman)ga aloqador.Bunday sharoitlarda kirish so'z gapning o'zi aloqador bo'lgan bo'lagidan oldin yoki keyin keladi.

2. Kirish bo'lak ayrim gap bo'laklariga talluqli.

A)gapning kesmiga.

Masalan: Siz bu gaplardan bexabarsiz-da,albatta.

B) gapning egasi.

Masalan: Og'a,extimol, siz xam ëqmoqchidirsiz?- deb so'radi.

V)gapning aniqlovchisiga.

Masalan : Bu, shubxasiz, bizning yutug'imiz -deb gap boshladi Samandarov.(A.Q.)

Kirish bo'lak bir gap tarkibidan ortiq bo'lishi mumkin. Bunday xolat kirish bo'lakning bir gapning bir kesmiga (yoki biron bo'lagiga) qarashli bo'lgan o'rinlarda bo'ladi.

Masalan:

1. Demak, Vatan mamnun bo'lgan o'g'ildan mexribon yana xam mamnun, albatta! (M.B)

2. Aftidan, qari deysan, shekili.(X.K)

3. Xolbuki, razvedka, ayniqsa, bu razvedka extiyot shart.(U)

Kirish so'z va kirish birikma.

1. So'zlovchining aytilayotgan fikriga bo'lgan munosabatini ifodalaydi: albatta, extimol, balki, shubxasiz, xaqiqat, darxaqiqat, baxtimizga, afsus, esiz va boshqalar.

Bular turli ma'nolarni anglatdi:

1. Ishonch yoki tasdiqni (albatta, shubxasi, so'zsiz, xaqiqat kabilar) masalan:

1. Ko'prik, shubxasizshu yerga yaqin joyda.
2. Darxaqiqat, bu ishda sobiq bo'lishi kerak.
3. Gumonni(balki,extimol,aftidan,shekili)kabilar.

Masalan:

1. Extimol, bu vazifani uddalaymiz.
2. Balki, jarlik tomon borishimiz kerak.
3. Shodlikni (baxtimizga, tolemizga kabi) masalan: Baxtimizga, bugun xavo uncha sovuq bo'lmadi.
4. Afsus va taajubni.(afsus, attang, esiz, esizgina, baxtga qarshi)kabi. Masalan : 1. Baxtga qarshi, kecha bulutli kun bo'ldi.
2. Attang biroz kechikibmiz.
2. Bayon qilingan fikrni kimga qarashli ekanligini ifodalaydi(menimcha, sizningcha aytishlaricha,...so'ziga

qaraganda,... so'ziga ko'ra,... yozishicha kabi)masalan: Akmal akaning aytishicha, bu yil saraton juda issiq boshlanadi.

3. Bayon qilingan fikrning tartibini ifodalaydi (avvalo, oxiri, nixoyat, birinchidan, ikkinchidan) masalan: 1. Birinchidan, bugun Mingbuloq tumanida xalima opaning yubley kechalari, ikkinchidan, ertaga viloyat yozuvchilarning konfrensiyasi ochiladi.

2. Nixoyat, cho'lga suv keldi.

3. Aytilgan fikrning oldingi fikr bilan aloqasini ifodalaydi. (demak, xullas, xulosa qilib, aytganda, shunday qilib, binobarin, ko'rinadiki, anglashiladiki kabilar).

Masalan: 1. Binobarin, xayotda inson ensikorpedyasi. 2. Shunday qilib, tarxiy shartnomaga qo'l qo'yildi.

Kirish so'z va kirish birikmalarida vergulning ishlatilishi.

Kirish so'z va kirish birikma gap boshida kelsa, unda keyin, gap o'rtasida kelsa, xar ikki tomondan, gap oxirida kelsa kirish so'z va kirish birikmadan oldin yozuvda vergul qo'yiladi. Masalan: 1. Demak, xato qilibsan, bo'tam, senda sinchkovlik yetishmas ekan. (X.T).

2. Tamom bo'ldi, nazarimda ichim yonib, burnimdan tutin chiqayotganga o'xshaydi.

3. Xullaskalom, sabrni qanoatni unutadi.(O)

4. Kirish gap. Nutqda so'zlovchi biron xodisa to'g'risida yo'l-yo'lakay izox beradi. Asosiy fikr ichida yo'l-yo'lakay fikrini anglatuvchi gap kiritma gap deyiladi. Kiritma gap o'zi kiritligan gapning biron bo'lagiga aloqador bo'ladi. Masalan: 1. Men Umaralini(u bilan ikki yil avval tanishgan edim) kecha dalada uchratib qoldim. 2. Biz, sinf raxbarimiz aytdi, ertaga ekskursiyaga boramiz.

Kirish gapda qavs va tinish belgilarni ishlatilishi.

1. Kirish gap odatda qavs olinadi. Masalan: O' ktam temirko'l Nortoy polvonga (mushti bilan g'isht ushutar edi)qichqirdi.
2. Kirish gap ba'zan vergul bilan ajratiladi. Masalan: Shunday qilib, Asal va Samad,- o'g'lining ismi shunday ekan - bizning yo'l uchastkamizda qolibdi.(CH.A)

Foydalangan adabiyotlar

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2- nashr T. "O'zbekiston". 1991y.
- U. Tursunov, J. Muxtorov, SH. Raxmatullayev, xozirgi o'zbek adabiy tili. T., "O'zbekiston" 1992 y.
2. A. Nurmonov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi. T. "Fan" 1992 y.
3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 5G'6 1992 y.
4. A.Aliyev, K. Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik)T. "O'zbekiston". 1994 y.
5. G'. Abduraxmonov, S. Mamajonov. O'zbek tili va adabiyoti.(Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T. "O'zbekiston". 1995 y.
6. M. Mirtojiyev. Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №2. 1995 y.
7. F. Ubayeva, R. Saydullayeva. To'liqsiz gaplar to'g'risida ba'zi bir muloxazalar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №1. 1997 y.
8. A.Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali . 1995 y.

Mavzu ikki tarkibli va bir tarkibli gaplar.

Reja:

1. Ikki tarkibli va bir tarkibli gaplar xaqida tushincha.
2. Egasi topiladigan gap.
3. Egasi topilmaydigan gap.
4. Nominativ gap.
5. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar.
6. To'liq va to'liqsiz gaplar.

Mavzuga doir muamollar.

1. Ikki tarkibli gaplarni tushintiring.
2. Egasi topiladigan gapdan misollar asosida izoxlang.
3. Bir tarkibli gaplar va ularning turlarini ayting.
4. Nominativ gapni o'ziga xos tomonlarini gapiring.
5. Bo'laklari ajiralmaydigan gaplar deb qanday gaplarga aytiladi?
6. To'liq va to'liqsiz gaplarni o'zaro farqli tomonlarini izoxlang.

Tayanch iboralar.

Ikki tarkibli va bir tarkibli gap, egasi topilmaydigan gap, egasi topiladigan gap, nominativ gap, to'liq gap va to'liqsiz gap, so'z gap.

1. Ikki tarkibli va bir tarkibli gaplar xaqida tushincha.

Gap xosil qilish uchun zarur bo'lgan minimal shakl gapning struktura asosini tashkil qiladi.

Gapning grammatik asosi uning bosh bo'laklaridir. Masalan. Kuz keldi. Bolalar mashqulotlarga muntazam qatnashyaptilar kabilar. Bu misollarda ega va kesim (kuz keldi, bolalar qatnashyaptilar) mavjud. Demak, gapning struktura asosi ega va kesimdan hamda yo ega yoki kesimdan iborat bo'ladi. Masalan. Baxor. Ko'm-ko'k dala. Soy bo'ylab ketdi. Bu yo'ldan shaharga boriladi. Bu misollarda yo ega mavjud (bahor) yoki kesim mavjud (ketdik, boriladi) kabi. Bu turdagi gaplarda ega sostavi va kesim sostavi mavjud bo'ladi. Egagacha bo'lgan so'zlar egsha sostavini, kesimgacha bo'lgan so'zlar kesim sostavini tashkil etadi. Masalan: bizning guruxda a'lochi o'quvchilar ko'p, gapida egagacha bo'lgan so'zlar (bizning guruxda a'lochi) ega sostavini tashkil etigan bo'lsa, biz ertaga ekskursiyaga boramiz gapida kesimgacha bo'lgan so'zlar (erataga ekskursiyaga) kesim sostavini tashkil qilgan.

Sodda gaplar sruktura asosining tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

1. Ikki tarkibli gaplar
2. Bir tarkibli gaplar

Ikki tarkibli gapning struktura asosini bosh bo'laklarining har ikkisi, ya'ni ega va kesim tashkil etadi.

Masalan: Mehnat insonga baxt keltiradi. Otam meni ham o'zi bilan birga olib ketmoqchi bo'ldi.

Bir tarkibli gaplarning asosini ega yoki kesim sostavi tashkil etadi. Egadan yoki ega sostavidan tashkil topgan gaplarda kesim, yoki kesim sostavidan tashkil topgan gaplarda esa ega qatnashmaydi. Bunday bo'lakka extiyoj ham bo'lmaydi. Bir sostavli gaplarda predikativlik bir bo'lakda ifodalanadi. Masalan: Boshqa gapdan gaplashaylik. Bahor. Hamma tomonidan atir gullarning xidi anqiydi.

Bir tarkibli gaplar bosh bo'laklarning qaysi biridan tashkil topishiga, ko'ra ikki katta guruxga bo'linadi.

1. Egasiz gaplar
2. Kesimsiz gaplar

Egasiz gaplar faqat kesim sostavidan iborat bo'ladi. Bularda harakatni bajaruvchi shaxsni-egani topib bo'lmaydi yoki uni kesimdan anglab olish mumkin bo'ladi.

Shunga ko'ra egasiz gaplar ikki xil:

1. Egasi topiladigan gap
2. Egasi topilmaydigan gap

Kesimsiz bir sostavli gaplar nominativ gaplarni birlashtiradi.

2. Egasi topiladigan gap.

Bir tarkibli gaplarning bu tipida ega bo'lmaydi, lekin uni gapning kesimidan anglab olish mumkin. Bunda diqqat bajaruvchi shaxsga emas, balki harakatga qaratilgan bo'ladi. Bunday bir tarkibli gaplarning bosh bo'lagi,

asosan fe'l bilan ifodalanadi. Egasi topiladigan gaplarda shaxs tasavvuri turlicha bo'ladi. Mana shu jixatdan, bu gap tiplarni:

1. shaxsi aniq
2. shaxsi noaniq
3. shaxsi umumlashgan gaplarga ajratish mumkin.

Shaxsi aniq gap.

Kesim fe'l bilan ifodalanib, xarakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko'rsatib tursa, bunday bir sostavli gaplarni shaxsi aniq gap deyiladi.

Shaxsi aniq gapning kesmi quydagicha ifodalanadi:

1. Aniqlik maylidagi fe'l bilan. Masalan: Sermanzara dalalarni tomosha qilib yuraman. (O) Yoppasiga xush kelibsizlar. (YA)
2. Buyruq mayli shaklidagi fe'l bilan. Masalan: Endi o'zingizning ishingiz xaqida gaplashib olaylik. (Tuyg'un)
3. Shart-istak maylidagi fe'l bilan. Masalan: Birodarlar, shu ishni birgalikda bajarsak.

Shaxsi aniq gapning kesmi ba'zan ot kesim bo'lishi xam mumkin.

Shaxsi aniq gaplar badiiy adabiyotda, ayniqsa, dialog formasidagi nutqda ko'p qo'llanadi.

Shaxsi noaniq gap.

Kesim fe'l bilan ifodalanib, shaxsni aniq ko'rsatib turmaydigan bir sostavli gap shaxsi noaniq gap deyiladi.

Shaxsi noaniq gapning bosh bo'lagi uchinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. Lekin bajaruvchi shaxs noaniq bo'ladi.

Shaxsi noaniq gapning kesmi quydagicha ifodalanadi.

1. Aniqlik mayli formalari bilan. Masalan: Yoshlik xotirasini yozilmagan oq varoq deyiladi. (Shuxrat). Bu yigitni muncha qiynashadi.
2. Buyruq istak maylining 3-shaxs formasi bilan. Masalan: Sen borib xabar ber, yana bizni qidirib yurishmasin.
3. Shart istak maylining 3-shaxs formasi bilan: Kitob ëg'ochmidiki, uni tesha bilan chopsa (X.G)

Bu gaplarning hammasida ham bosh bo'lak 3-shaxs formasidagi fe'l bilan ifodilangan. Lekin ularda harakatni bajaruvchi shaxs noma'lum. Bunday konstruksiyali gaplarda diqqat harakatga qaratilgan. Bularda ega tushirilgan deb bo'lmaydi.

Shaxsi noaniq gaplar shaxsi aniq gaplarga qaraganda kam qo'llaniladi. Bu tip gaplar ilmiy adabiyotlarda qo'llanilmaydi.

Shaxsi umumlashgan gap.

Kesim fe'l bilan ifodalanib, mazmunan umumga qaratilgan bir sostavli gaplar shaxsi umumlashgan gap deyiladi.

So'zlovchi bu tip gaplarni qo'llash bilan o'z xabariga nasixat, xikmatli so'z xarakterini beradi, ibora qilinayotgan xarakatning tipikligini ta'kidlaydi. Bunda umumga qaratilgan xayotiy xulosalar, uzoq asrlik xayotiy tajribalar, umumiy qoidalar, mehnat yakunlari, umumlashgan muloxazalar ifoda qilinadi.

Shaxsi umumlashgan gaplarning kesmi ko'pincha buyruq maylining 2-shaxs formasi bilan ifodalanadi.

Maqollar ko'proq shaxsi umumlashgan gap shaklida bo'ladi:

Salobatli bo'lma,sabotli bo'l. Yetti o'lchab bir kes. Bugungi ishni ertaga qoldirma, kabilar. Shaxsi umumlashgan gaplarning bosh bo'lagi ba'zan birinchi shaxsning ko'plik formasida bo'lishi xam mumkin . Masalan: Tinchlik uchun kurashaylik!

Shaxsi umumlashgan gaplarning bosh bo'lagi - kesim quydagicha ifodalanadi:

1. Aniq maylidagi fe'l formalari bilan: Xayajondan nima deyishga so'z xam topolmay qolar ekansan.

2. Buyruq-istak mayli formalari bilan: Burinni ayasang,seni talaydi.

Shaxsi umumlashgan gaplarda xarakat hammaga qaratilgan. Unda zamon xam umumiy bo'ladi. Bu jixatdan bunday gaplarda shaxs va zamon tushinchasini bir-biridan ajiratib bo'lmaydi. Shuning uchun xam shaxsi umumlashgan gaplarning shaxsini xam, zamonini xam o'zgartirib bo'lmaydi. Agar o'zgartirilsa, gap tipi xam o'zgaradi. Shaxsi umumlashgan gaplarda undalma, kirish so'z, kirish gaplar, modal so'zlar ishtirok etmaydi.

3.Egasi topilmaydigan gap

Kesim orqali xarakatni bajaruvchi shaxsni- egani topish mumkin bo'lmagan bir sostavli gap egasi topilmaydigan gap deyiladi. Bunday gaplarda xarakatni bajaruvchi shaxs-ega umuman qatnashmaydi. Uni kiritib xam bo'lmaydi, gapning kesmi orqali aniqlab xam bo'lmaydi.

Egasi topilmaydigan gapning kesmi ko'pincha sostavli bo'ladi. U fe'lning 3-shaxs formasi bilan ifodalanadi. Egasi topilmas gaplarning kesmi quydagicha aniqlanadi.

1. Ravishdosh xamda bo'ladi-bo'lmaydi bilan. Oyni

etak bilan yopib bo'lmaydi.Egasi topilmaydigan gaplarning kesmi ravishdosh hamda "Bo'lmas ekan" shaklida ifodalanishi xam mumkin. Sizdan xech narsani sir tutib bo'lmas ekan. Egasi topilmaydigan gapning kesmi ba'zan shart maylidagi fe'l bilan xamda bo'ladi- bo'lmaydi shaklda. Bir epini qilsa bo'ladi. Bug'doydan go'ja osh qaynatsa bo'ladi. Egasi topilmaydigan gapning bu tipida xarakatning bajarilishiga yo'l qo'yilishi yoki yo'l qo'yilmasligi ifoda qilinyapti.

2. Xarakat nomi xamda kerak, zarur,lozim, darkor, mumkin

so'zlarning biri bilan: Bu ishlarning barchasini bajarish mumkin.

Ba'zan xarakat nomi o'rnida belgi oti kelishi mumkin. Buning uchun birinchi galda dalillik kerak.(O)

Egasi topilmaydigan gapning bu tipida ish-xarakat yoki xolatini bajarish majburiy yoki zaruriyligini, majburiy yoki zaruri emasligini ifoda qilinyapti.

3. Majxul nisbatning affiksini olgan fe'l bilan.

To'rt-besh kundan keyin terimga tushiladi. (S.Z.)

Egasi topilmaydigan gaplarning bu tipida kishi istagi, irodasiga bog'li bo'lmagan xarakat yoki xolat ifoda qilinyapdi.

4. "To'g'ri so'zi" xamda kelmoq fe'lining tuslangan formasi bilan. Rejani yana qaytadan ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Egasi topilmaydigan gapning bu turida noilojlikdan kelib chiqqan zaruryatning bajarilishi yoki bajarmasligiga ifoda qilinyapdi.

5. Nominativ gap

Bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'z bilan ifodalanib, predmet yoki voqea- xodisalarning mavjudligini tasdiqlovchi bir sostavli gap nominativ gap deyiladi.

Nominativ gaplarda fikrning nisbiy tugalligi predikativlik intonasiya orqali ifoda qilinadi. Intonasiya bunday gaplarda birinchi darajali rol o'ynaydi.

Oddiy so'z intonatsiya tufayli gapga aylanadi. Nominativ gap yakka xolda qo'llanilmaydi, undan keyin boshqa bir tipdagi gap keladi.

Nominativ gaplar quydagilarni ifoda qiladi.

1. Tasviriyligni ifoda qiladi: Martning oxiri. Kunduz soat uch chamasi. Yangi shaxar ko'chalari. Ilk baxor shamollari ëqimli esadi. Jo'raxonning uyi. Yorug'. Ozoda. Birinchi xona. Bir chetida pianino. Xonaga kichik koridorlardan kiriladi.

2. Ko'rsatishni ifoda qiladi. Mana, Kratoy. U jamiki boylarga o't bilan suvday.

3. Baxolashni ifoda qiladi. Bunga turli ekspressiv
ottenka (shodlanish,afsuslanish, taajublanish kabilar)ni ifoda etuvchi gaplar
kiradi.

“Voy bechora!”-dedi Gulsunbibi birdan.(O) Nominativ gap
bosh kelishikdagi ot, otlashgan so'z,olmosh, son kabi so'zlar bilan ifodalanadi.

A)ot bilan : Qish. Xamma ëqni qor qoplagan.

B) otlashgan so'z bilan : Mana beshinchilar. Xammaning
diqqat-e'tibori maydonga kirib kelgan voleybolchilarga qaratildi.

V) olmosh bilan : Ana u! Yurak urishlar bilan
zoriqib,zoriqib kutganim Saodat ! (G'.G')

Nominativ gap quydagi semenatik xususyatlarga ega.

1. Konkret predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi.

Mana qip-qizil gullar. Bulardan atir xidi anqiydi.

2.Turli abstrakt predmetlarning mavjudligini
tasdiqlaydi.

Ingilzlarning ko'rsatgan marxamati. Mana ko'ring . (YA)

3.Turli onomistik- topominik xarakterdagi
predmetlarning mavjudligini tasdiqlaydi. Cheksiz Qoraqum. Eski xarob bir
qo'rg'on. Vaq saxardan oshgan. (YA)

4. Kishilik olmoshlari orqali ifodalangan shaxslarning
mavjudligini tasdiqlaydi. Mana men ! Xozir qarasang menga o'xshaganlar. (O)

5. O'rin-joyning mavjudligini tasdiqlaydi. Zindon.
Kishanlaangan maxbuslar uyquda.

6. Turli tabiat xodisalarini mavjudligini aniqlaydi.

Kuchli yomg'ir. Tezda ariqlarga suvlar tosha boshladi.

Nominativ gap yig'iq gap yoki yoyiq bo'lishi mumkin.

Maslan: Yig'iq : Kuz. Atrofdan ish qizg'in.

Yoyiq : Qum-qum dala. Orqadan otliq askarlar kelib qoldi.

5. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar.

Sodda gaplar bo'laklarga ajirinish ajiralmasliklarga ko'ra ikkiga bo'linadi.

1. Bo'laklarga ajiraladigan gaplar.

2. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar.

Yuqorida ko'rib o'tilgan gaplarning barchasi bo'laklarga ajiraladigan gaplardir. Masalan :

1. Ish boshlandi.

2. Mashg'ulot qiziqarli o'tdi.

3. Darsdan so'ng oyimga yordamlashyapman.

Nutqimizda sodda gaplarning yana shunday turi ham uchraydiki, ular ega va kesim sostaviga ajiralmaydi. Shuning uchun ham bunday gaplar bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar deb yuritiladi.

Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar bir so'z bilan yoki bo'laklarga ajiralmaydigan xamda boshqa so'zlar bilan kengaymaydigan so'z birikmasi bilan ifodalanib, tasdiq, inkor, so'roq, xis-xayajon kabilarni ifoda qiladi. Bular xamma vaqt kontekst bilan bog'liq bo'lib, o'zi ishtirok etgan dialog va monologdagi mustaqil gaplar sostaviga kiradi.

Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar turli mazmunini ifoda qiladi. Ularning xarakteri quydagilar:

1. Tasdiq yoki inkorni ifodalaydi.

-Xa... - deb javob berdi Yo'lchi . (O)Dodxox (kulib)- bularni ozod qiling demoqchisiz-da-a?

Muqumiy- shunday, janob dodxox.(S.Abd)

2. Suroqni ifodalaydi. Bular so'roq intonasiyasiga ega bo'ladi. Bu vazifada rostdanmi,naxotki, rostmi, shundaymi, bo'libdimi, rost bilan-a kabi so'zlar keladi. Masalan:Salim(xovliqib)- rostdanmi?(U)- Rostmi? - dedi yelkasini ushladi chol.(O)

3. Rasm-odat va tabrikni ifodalaydi. Bunday vazifada salom,xayr, tasanno, ofarin, qulluq,qoyil, raxmat, balli,xayr kabi so'zlar keladi. Masalan: Ashurboy: Qulluq, salomat bo'ling.Barakalla, oppoq qizim. (O)

4. Xis-xayajonni ifodalaydi. Bu vazifada emosional undovlar keladi. Masalan: - Ux... badanim yonib borardi.(O) Voy- deb o'zimni yerga tashladim.(O) Ox,ox,ox,otangizga raxmat,kamol toping do'stim.

5. Buyruqni ifodalaydi. Bunday vazifada asosan, buyruq, xitob ifoda qiluvchi so'zlar keladi. Misol: Muqimiy-Bas,janob dodxox (S. Abd), jim! - mushtini ko'tardi Ermat.

6. Undalma shaklida bo'lib,chaqirish, achinish, ta'na,gina, g'azab, kabilarni ifodalaydi. Bunday gaplar voqativ gaplar deyiladi. Misollar: - San-sang nima ?Ablax! (O)—Soxiba . - Oyijon, oyijonginam... (Tuyg'un)Gulnora !

deb qichqirdi. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar quydagi xususyatlar bilan bir sostavli gaplardan ajirilib turadi.

1. Bir tarkibli gaplarning ko'pchiligi uchun fikriy to'liqlik, semantik mustaqillik xos. Bulaklarga ajiralmaydigan gaplar uchun bunday xususiyat xos emas. Ularning mazmuni kontekst, situatsiya bilan bog'liq bo'ladi.

2. Bir sostavli gaplarning bo'lagi mustaqil so'zlar bilan ifodalanadi. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplarning ko'pchiligi mustaqil bo'lmagan so'z turkumlari (yuklama modal so'zlar, undov) bilan ifodalanadi.

3. Bir sostavli gaplar ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengayib kela oladi. Bo'laklarga ajiralmaydigan esa bu xususyatga ega emas.

4. Bir tarkibli gaplarning ko'pchiligi xabar intonasiyasi bilan aytiladi. Bularda intonasiya yetakchi rol o'ynamaydi. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplarda esa intonasiya yetakchi rol o'ynaydi.

5. Bir tarkibli gap qo'shma gap kompanetlari bo'lib kela oladi. Bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar esa qo'shma gap kompaneti bo'lib kela olmaydi.

6. Bir tarkibli gaplar asosan monolog nutq uchun xos bo'lsa, bo'laklarga ajiralmaydigan gaplar esa dialog nutqga xosdir.

7. To'liqsiz gaplarga uxshab ketishi bir sostavli gaplarga nisbatan bo'laklarga ajiralmaydigan gaplarda kuchli bo'ladi.

8. To'liq va to'liqsiz gap.

Gaplar zarur bo'laklarning to'la ifodalanishi yoki tushirilishiga qarab, ikkiga bo'linadi.

1. To'liq gap.

2. To'liqsiz gap.

To'liq gaplarda aytilayotgan fikrni ifoda qilish uchun zarur bo'lgan bo'laklarning barchasi mavjud bo'ladi. To'liqsiz gaplarda esa, aytilayotgan fikrni ifodalash uchun zarur bo'lgan gap bo'laklarning bir qismi qatnashmaydi. Lekin bu bo'laak kontekstdan, oldingi gapdan yoki nutq so'zlanib turgan sharoitdan bilinib turadi. Masalan :

- Oting nima ?
- Ta'lat.
- Kimning o'g'lisan ?
- Nazir akaning. (R.F.)

To'liqsiz gap jonli so'zlashuvda,dialogda ko'p uchraydi. Masalan :

- Gapiring,nega jim bo'lib qoldingiz?- dedi Bo'ston.
- Xayol olib qochdi.
- Qayoqqa?
- Ajoyib shinam boqqa.

Ko'rinadiki, savol-javoblarning tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xar bir savol yoki javobda dialog mavzusiga yangilik qo'shuvchi gap bo'laklari ishlatilayotir.

To'liqsiz gapda quydagi gap bo'laklari tushirilishi mumkin.

1. Kesim va kesimga oid oid so'zlar tushiriladi.

A) - Kim so'zladi?

- Liza.

B) Dodxox :- So'z qaytarishga sizga kim xuquq berdi?

Muqimiy:- Insof, vijdon, idrok va andisha. (S. Abd)

2. Ega tushiriladi.

- Zulfiya nima qildi?

- O'qidi.

3. Ega va kesim tushiriladi.

- Sidiqjon nima to'g'risida so'zladi?

- Maktab tajriba yer uchastkasi xaqida.

4. Ikkinchi darajali bo'laklar tushiriladi.

- Ertaga ekuskursiyaga kimlar qatnashadi?

-Xammamiz qatnaashamiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. M. Usmonova, E. Azlarov O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2- nashr T. "O'zbekiston". 1991y.
2. A. Nurmonov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi. T. "Fan" 1992 y.
3. I. Rasulov. Bir sostavli gaplar tasnifi. Til va adabiyot jurnal. 1991 y. № 4.
4. F. Ubayeva, R. Saydullayev To'liqsiz gaplar to'g'risida ba'zi bir muloxazalar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 5. 1997 y.

Mavzu: Qo'shma gap

Reja:

1. Qo'shma gap haqida ma'lumot
2. Qo'shma gap turlari
3. Bog'langan qo'shma gap
4. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning birikish usullari.

Mavzuga doir masalalar.

1. Qo'shma gapni tushuntiring
2. Qo'shma gapni turlarini ayting, misollar asosida izohlang.
3. Bog'langan qo'shma gapni ayting.
4. Tinish belgilarining qo'llanishi xususida gapiring.

Turli vosstalar yordami bilan o'zaro birikib, intonasiya va mazmun jihatidan bir butunlik xosil qilgan bir necha sodda gap qo'shma gap deb ataladi.

Qo'shma gap qismlari bo'lgan sodda gaplarning o'zaro birikishi yordamchi so'zlar (bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar) bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, turli qo'shimchalar intonasiya orqali bo'ladi. barcha hollarda qashma gap intonasiya jihatidan bir butunlikni tashkil etadi. Masalan: Daraxtlarning tanalariga hayot suvi yugurdi-da, ko'm-ko'k barglar mavj ura boshladi. (SH.R).

yomg'ir tindi, ammo jo'yaklarda suv hali ham jildiramoqda edi. (S.N). Chollarning mehnati unum bermasa ham, maslahati unum beradi-ku! (I.R). Oltin olovda bilinadi, odam-mehnatda (maqol). Bu qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o'zaro turlicha birikkan. Ular simantik, grammatik, intonasiya aloqalari har xildir. 1-2 qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro teng aloqaga kirib, -da yuklamasi, ammo teng bog'lovchisi yordamida birikkan; simantik jihatdan mustaqillikka ega; kesimlari esa tushlangan fe'l bilan ifodalangan. 3-qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bu xususiyatga ega emas. Ular o'zaro tobe bog'lovch yoki tobe bog'lovchisi vazifasidagi so'z, turli qo'shimchalar orqali bog'langan.

Ularning biri shaklan va mazmunan nisbiy mustaqillikka ega bo'lib, ikkinchisi bunga ergashib, mazmunini izohlab, to'ldirib, aniqlab kelayotir; kesimlari shart fe'li bilan ifodalangan. Gap intonasiyasi ham tobelanish ko'rsatmoqda. 4-qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro

birikishiyana boshqachadir. Bularda bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar yo'q. Ular o'zaro intonasiya orqali bog'langan.

Intonasiya qo'shma gapning boshqa tiplarida ham ishtirok etadi. Lekin tip qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lashda asosiy rolni bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi vositalar bajarib, intonasiya esa unda yordamchi vazifasida keladi.

Qo'shma gaplar, tarkibidagi sodda gaplarning semantik, grammatik va intonasion xususiyatlariga ko'ra, 3 guruhga bo'linadi.

1. Bog'langan qo'shma gap
2. Ergashgan qo'shma gap
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap

Bog'langan qo'shma gap

Bog'langan qo'shma gaplarni tashkil qilgan sodda gaplar o'zaro teng aloqada bo'ladi. Masalan: Yigit yonida so'z kutib bordi, lekin chol ha deganda gapiravermadi. (M.I). Kun qaytgan va bahor kunlarining uchdan ikki ulushi o'tgan edi.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro teng bog'lovchilar va inkor bog'lovchilari, yuklamalar, bo'lsa, esa (qo'shimchalari) yordamchilari bilan bog'lanadi. Shularga ko'ra, bog'langan qo'shma gaplarni to'rt gruxga bo'lish mumkin.

1. Teng bog'lovchilar yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap

2. Inkor bog'lovchisi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap
3. Yuklama yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap
4. Bo'lsa, esa yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Teng bog'lovchi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gaplar uch xil ko'rinishga ega.

1. Biriktiruv bog'lovchi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap
2. Zidlov bog'lovchi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap
3. Ayiruv bog'lovchi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Biriktiruvchi bog'lovchi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Biriktiruvchi bog'lovchi (va, hamda, ba'zan shu vazifa kelgan ham yuklamasi) yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarda payt munosabati ikki xil bo'ladi.

1. Har ikki sodda gapdagi harakat, holat yoki biror belgi bir paytda ro'y beradi.

Masalan:

Ish bo'lmasining ochiq turgan katta derazalaridan sement hovuz, uning atrofidagi gulzor, butun bog' ko'rinar va yumshoqqina kechki shabada esib turardi.

2. Sodda gaplardagi harakat, holat yoki biror belgi ketma-ket ro'y beradi.

Masalan:

Qizil choyxonadagi g'ovur bosildi va eshik oldida bir necha iljaygan siymo paydo bo'ldi.

Zidlovchi bog'lovchi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Bu tip bog'langan qo'shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid bo'ladi. Bu zidlik ammo, lekin, biroq bog'lovchilari yordami bilan ifoda qalinadi. Masalan:

Odam ham g'o'zaga o'xshab oftobga intiladi, lekin uning oftobi-odamdan ko'radigan mehr-oqibati.

Ayrim hollarda bu xil qo'shma gaplardagi sodda gaplarning kesimi yuklamalari bilan keladi. Bu vaqtda zidlik mazmunini yanada bo'rtadi. Masalan:

Men xalqqa juda oz o'rgatganman-u, lekin o'zim undan juda ko'p narsalarni o'rganganman (A. M).

Zidlov bog'lovchi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplardan anglashilgan mazmun bir-biriga qiyos qilinishi mumkin.

Masalan:

Ota, yuritimizning bu kuni baxtli, chiroyli, lekin ertasi, indini yana ham chiroyliroq, baxtliroq bo'ladi. (O).

Ayiruv bog'lovchi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir-birlari bilan yo (ë..., ë) ye, yoki (yoki..., yoki), dam..., dam; goh..., goh; xoh..., xoh; ba'zan..., ba'zan bog'lovchilari orqali birikadi. Bunday qo'shma gap birini tanlash lozim bo'lgan yoki galma-gal ro'y beradigan voqea, hodisa, belgi-xususiyatini ifodalovchi gaplarni birlashtiradi.

a) yo (yo.., yo), yo.., yo bo'lmasa; yoki (yoki.., yoki); yo.., yoki; xoh.., xoh bog'lovchilari birini tanlash lozim bo'lgan voqea, belgi-xususiyatini ifodalovchi sodda gaplarni birlashtiradi. Bu sodda gaplarning biridan anglashilgan mazmun ro'y beradi. Masalan;

YO podsho biror yerga chiqadi, yoki elchi kelishi kutiladi. (O).

b) goh.., goh; dam.., dam; ba'zan.., ba'zan bog'lovchilari voqea, xodisalarning har ikkisi vujudga keladigan sodda gaplarni bog'laydi. Lekin bu voqea xodisalar galma-gal ro'y beradi. Masalan: Ba'zan men gapiraman, ba'zan u gapiradi.

Inkor yuog'lovchisi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar inkor bog'lovchisi na.., na orqali ham birikadi.

Bunday qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir paytda yoki turli paytda yuz bermagan voqea, xodisa yoki belgi-xususiyatlarini ifoda qiladi. Masalan:

Nazarimda, sevgiga

Men ham qattiq tutildim,

Na kunduzi oromim bor,

Na uyquda halovat. (U)

Yuklama yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Yuklamalardan –u (-yu), -da bog'lovchi vazifasida kelib, ketma-ket yoki bir paytda ro'y beradigan voqealarni ifoda qiluvchi sodda gaplarni biriktiradi.

Masalan:

Daraxtlarning tanalariga hayot suvi yugurdi-da, ko'm-ko'k barglar mavj ura boshladi. (SH.R).

Bo'lsa, esa yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gap.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bo'lsa, esa yordamchilari bilan ham birikishi mumkin. Bu vaqtda ular bir paytda yoki ketma-ket ro'y beradigan voqealarni ifoda qiladi. Bularda, payt munosabatidan tashqari, qiyoslash ham ifoda qilinadi. Masalan:

Arava tinmay g'ijirladi, yo'lovchilar esa so'zsiz borishardi. (S.Z).

O'q goh u tomondan, goh bu tomondan minut sayin g'uvillab o'tib turardi, Begimjon-bo'lsa nima qilishini bilmay har tomonga alanglab turardi. (N.Safarov).

Bog'langan qo'shma gaplarda tinish belgilarini ishlatilishi.

1. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro biriktiruvchi bog'lovchi yordamida biriksa ular orasida vergul qo'yilmaydi. Masalan: Yo'paradagi tog'ning bag'ridan tutun ko'tarildi va u yerdan yo'talgan singari tovush eshitildi.

2. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar zidlovchi bog'lovchilar (ammo, lekin, biroq) yordamida biriksa, bunday bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: Yomg'ir tindi, ammo jo'yaklarda suv hali ham jildiramoqda edi. (S.N).

Ba'zan zidlovchi bog'lovchilar bilan birga yuklamalar ham keladi. Bunday hollarda ham vergul qo'yilaveradi. Masalan: Ba'zi kishilarimiz Toshkent tomonga qanotini rostlab turibdi-yu, lekin sen borganing ma'qul. (O).

3. Bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar yuklamalar, bo'lsa, esa elementlari yordamida biriksa ham, sodda gaplar orasiga vergul qo'yiladi.

Masalan: Bilasanmi, meningcha, bunday qizni sevganingdan keyin, o'ziga aytish kerak, bo'lmasa hech narsa chiqmaydi. (M.G).

4. Bog'langan sodda gaplar tarkibidagi sodda gaplar ayiruvchi bog'lovchi yoki inkor bog'lovchisi yordamida biriksa, takrorlanib kelgan bog'lovchidan oldin vergul qo'yiladi. Masalan: Goh ko'lankalar yonib ketadi, goh shulalarni ko'lankalar yutadi. (O).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika inistitutlar uchun) qayta ishlangan 2 nashri. T., "O'zbekiston" 1991 y.
U. Tursunov, J.Muxtorov, SH. Raxmatullayev, Xozirgi o'zbek adabiy Tili. T., "O'zbekiston" 1992 y.
2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi. T., "Fan", 1992 y.
3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №5G'6. 1992 y.
4. A.Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabalari uchun darslik) T., "O'zbekiston" 1994 y.
5. G'. Abduraxmonov, S. Mamajanov O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T., "O'zbekiston" 1995 y.
6. M. Mirtojiyev Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi. "O'zbek tili va adabiyoti jurnali" №2. 1995 y.
7. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar xaqida ba'zi bir muloxazalar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №1. 1997 y.
A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir.
"O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1998 y.

Mavzu: Ergashgan qo'shma gap.

Reja:

1. Ergashgan qo'shma gap haqida ma'lumot.
2. Ergash gap bilan bosh gapning birikish usullari.
3. Ergash gapning turlari.

Mavzuga doir muammolar.

1. Ergashgan qo'shma gapning boshqa qo'shma gaplardan farqini izohlang.
2. Ergash gaplar bosh gapdagi bo'lakni izohlashga ko'ra necha turga bo'linadi va ularni ko'rsating.
3. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi soda gaplar qanday vositalar yordamida birikadi?
4. Ergash gapning turlarini sanang.
5. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi soda gaplar asosan qaysi bog'lovchilar yordamida birikadi?

1. Ergashgan qoshma gap.

Ergashgan qo'shma gap sostavidagi soda gaplarning biri ikkinchisiga mazmunan va gramatik jihatdan tobe bo'lib, uni aniqlash, to'ldirish kabi vazifalarni bajaradi.

Masalan: Nargiz olislardagi yorining yo'liga ko'z tikib kuylarkan, uning kuyi boshqa barcha sevuvchilar quyidagi nafisroq, so'limroq, yoqimliroq yangraydi. (Sh.R.)

Bu qo'shma gap ikki soda gapning birikuvidan hosil bo'ladi.

Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi soda gaplar ikki xil bo'ladi. Biri boshqasiga bo'ysunib, tobe holatda keladi. Bu gap ergash gap deb ataladi. Ikkinchisiga esa ergash gapni o'ziga qaratib, bo'ysundirib keladi. Bunday gap bosh gap deb aytiladi.

Masalan: Tong yorishgach, paxta dalalarini terimchilar qopladi. Ergashgan qo'shma gap tarkibidagi soda gaplar o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar, turli morfologik ko'rsatkichlar yordamida birikadi. Bular, asosan, quyidagilar:

-Ergashtiruvchi bog'lovchilar yordamida: Karimovning nomi butun yurt fuqarolari uchun aziz va qadrlidir, chunki u insonlarni ozodlik yo'liga chorlaydi.

- Ko'makchilar yordamida: Ota-onasi yonida bo'lgani uchun, kichkina Tojiev va Tojievalar osma ko'prikdan qarshiliksiz o'ta oldilar.

- Yuklamalar yordamida: Bahor quyoshining tig'ida Komiljonning ko'zi qamashdimi, g'uborsiz ko'm-ko'k osmon unga dastlab kumushsumon yarqirab, so'ngra zarga o'xshab tovlanib ko'rindi.

-Nisbiy so'zlar yordamida: Tog'asi qancha asabiylashsa, oygiz o'zini shuncha og'irlikka solardi.

- Sifatdosh formasi va kelishik affiksi yordamida: Bu uy ilgari bedanaxona bo'lganidan, darchasi ham yo'q edi. Oygiz har safar biron maslahatni ko'pchilik o'rtasiga tashlaganda, kolxozchilar hamma vaqt uning fikrini maqull edi.

- Fe'ning ravishdosh formasi yordamida:

Shu vaqt cabinet eshigi ochilib, undan Qalandarovning yuzi ko'rindi.

-Shart mayli formasi yordamida: Qalovini topsang, qor yonar:

Ergash gaplar bosh gapdan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin.

Masalan: Paxta qor yog'sa, yurakka tosh yoqqandan battar bo'ladi.

Ba'zi hollarda ergash gap bosh gap ichida ham kelishi mumkin.

Masalan: Biz, ob-havo sharoiti yomon bo'lsa ham. Ekskursiyamizni davom ettirdik.

2. Ergash gap bilan bosh gapni qo'llanishi.

Ergash gap bosh gapdan yozuv vergul bilan ajratiladi. Bunda vergul quyidagicha qo'yiladi:

1. Ergash gap bosh gapga chunki, shuning uchun, go'yo kabi yordamchilar bilan birikkan bo'lsa, vergul shu yordamchilardan oldin qo'yiladi.

Masalan: Ona uni anchadan beri kormagan edi, shuning uchun birinchi qarashdayoq ko'ziga tashlangan narsa qizginaning g'ayri tabiiy to'laligi bo'ldi.

Ba'zan gap tugallangan ohang bilan aytilib, vergul o'rniga nuqta qo'yiladi va ergash gap bosh harf bilan boshlanadi.

Masalan: Sayramov iljayib qo'ydi. Chunki u raisning bu odatini oldindan bilardi.

2. Bosh gap kesimiga — ki bog'lovchisi qo'shilib kelganda, vergul shu bog'lovchidan keyin qo'yiladi.

Masalan: Biz istaymizki, mustaqilligimiz abadiy bo'lsin.

3. Ergash gap bosh gapga fe'lining ravishdosh formasi, shart mayli formasi, sifatdosh formasi va kelishik affiksi yordami bilan birikkanda, vergul bu vositadan keyin qo'yiladi.

Masalan: Gulnor bu yot kishining ellikboshi ekanligini bilgach, g'azabi shiddatlandi.

Xalq g'ayrat qilsa, umidi tush bo'lib qolmaydi. Yulduzxon osh yuziga solish uchun ariq bo'yidagi rayxon barglaridan terayotganida, G'ulomjon ishdan qaytdi. Aziza hech qachon Iqbollarnikiga bormagan bo'lsa ham, qaerda turishlarini bir kuni Ra'no unga ko'rsatgan edi.

4. Ergash gap bosh gapni ichida kelsa, har ikki tomondan vergul bilan ajratiladi.

Masalan: O'rta bo'yli, soddagina kiyingan Jo'raboev, sochlari oqarib ketgan bo'lsa ham, yoshlar singari chaqqon, g'ayratli edi.

3. Ergash gapning turlari

Ergash gaplar angelayotgan mazmuni, shakillanishi va bosh gapga bog'lanish usuliga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: ega ergash gap, Kesim ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, aniqllovchi ergash gap, payt ergash gap, o'rin ergash gap, sabab ergash gap, maqsad ergash gap, shart ergash gap, to'liqsiz ergash gap, natija ergash gap, o'xshatish ergash gap, miqdor-daraja ergash gap, ravish ergash gap.

1. Ega ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan egani izohlab, kim? Nima? Degan so'roqlardan biriga javob bo'ladi.

Ega ergash gap bosh gapga bog'lanishi:

1. Ergash gapning kesimi shart mayli formasida bo'ladi. Bunda bosh gapning egasi u, o'sha, o'zi kabi olmoshlar bilan ifodalanadi.

Masalan: Kim birovga yaxshilik qilsa, u yomonlik ko'rmaydi.

2. Ergash gapning kesimi aniqlik maylida formasida bo'ladi.

Masalan: Kim o'qishda ko'proq jonkuyarlik ko'rsatar ekan, u mehnatda qiynalmaydi.

3. Ergash gapning kesimi ot kesim bo'lsa, bosh gapga ekan, bo'lsa yordamida bog'lanadi: masalan: Kim talaba ekan, u doimo shu ulug' nomga yarasha ish qilsin.

4. Ega ergash gap bosh gapdan keyin kelib, bosh gapga – ki bog'lovchi yordamida bog'lanadi.

Bosh gapning kesimi bor so'zi bilan yoki sifat bilan ifodalanadi, tarkibida shu olmosh qatnashadi. Masalan: Shu narsa ravshanki, ta'lim-tarbiya hayot bilan bog'liq bo'lishi lozim.

2. Kesim ergash gap bosh gapning olmosh bilan ifodalangan kesimini izohlaydi.

Kesim ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. Bosh gapning kesimi shu, shunda, shunday kabi so'zlar bilan birikadi. Ergash gap bosh gapga-ki bog'lovchisi yordamida birikadi. Masalan: Yutuqlarimizni butun omili (shundaki) shuki, butun xalqimiz mustaqillik uchunkurashni o'zini bevosita burchi deb biladi.

2. Bosh gapning kesimi "Chiqish kelishigidgi olmoshdan iborat" shaklida ifodalanishi mumkin. Bunda –ki bog'lovchisi keyingi ko'chadi. Masalan: Botirning yutug'i shundan iborat ediki, u uztoz Michurin ko'rsatmasiga amal qilib, changlanuvchi navlardan eng yaxshi changlanuvchi navlarni topdi.

3. To'ldiruvchi ergash gap bosh gapning olmosh bilan ifodalangan to'ldiruvchisining izohlaydi yoki bosh gapning kesimidan anglashilgan ma'noni to'ldiradi.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga birikishi:

1. Ergash gapning kesimi, odatda, shart mayli formasida bo'ladi:

ergash gap tarkibida kim, kimki, nima olmoshi bo'lib, bu olmoshlar bosh gapga to'ldiruvchi vazifasida kelgan, u, shu, o'sha olmoshlariga mos keladi. Masalan: Sportda kim ilg'or bolsa, uni hamma hurmat qiladi

2. Ergash gap bosh gapga —ki bog'lovchisi yordamida birikadi. Bosh gap tarkibida ko'pincha shu olmoshi bo'lib, ergash gap o'sha olmoshining ma'nosini oladi. Masalan: Shunga erishaylikki, kursimizda birorta ulgurmovchi talaba bo'lmasin.

Ko'pincha bosh gap tarkibidagi olmosh ishlatilmaydi. Masalan: Kishilar istaydayki, hamisha ravshan bo'lsin kuni-kuni ertalar, kuni-kuni istiqbol.

4. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan biror bo'lakning belgi, xususiyatni aniqlaydi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga birikishi:

1. Ergash gap tarkibida kim, kimki, kimda-kim, kimning kabi olmoshlar qatnashib, kesimi shart mayli formasida bo'ladi. Bunday ergash gap bosh gap tarkibidagi qaratqichni aniqlaydi. Bu qaratqich III-shaxs olmoshi bilan yoki u, o'sha ko'rsatish olmoshlari va otdan tarkib topgan birikma bilan ifodalangan bo'ladi. Masalan: Kim ko'p kitob o'qisa, uning bilimi doirasi keng bo'ladi.

Ba'zan bosh gapdagi uning so'zi umuman tushirishi yoki bu olmosh o'rnida u, o'sha, olmoshlari ishlatilishi mumkin. Masalan: Kim ko'p kitob o'qisa, o'shaning bilim doirasi keng bo'ladi.

2. Ergash gap tarkibida qaysi, qanday olmoshlari qatnashib, kesimi

shart mayli formasida bo'ldi. Bunday ergash gap bosh gapdagi shunday, o'sha, shu so'zlari aniqlab kelayotgan predmetni izohlaydi. Masalan: Lolaxonga siz qanday muomala qildingiz, To'lqin ham shunday muomala qiladi.

3. Ergash gap bosh gap bilan —ki bog'lovchisi yordamida birikadi.

Bunda bosh gap tarkibida shunday, ergash gap tarkibida esa bunday so'zi keladi. Bu holda ergash gap bosh gapdagi shunday olmoshni aniqlayotgan predmetni izohlaydi. Masalan: Sizlar shunday zo'r g'ayrat va sidqidillik bilan ishladingizki, bunday mehnat katta g'alaba olib kelishi muqarrar edi.

Ba'zan ergash ga'p tarkibidagi bunday so'zi o'z aniqlashi bilan birgalikda tushirilgan bo'lishi ham mumkin. Masalan: Ular shunday shaxs bo'lsinki, har tomonlama etuk va xalqiga sodiq bo'lib xizmat qilsinlar qilsinlar.

Ayrim paytda esa ergash gapdagi aniqlovchi va aniqlanmish o'rnida u, bu, ular kabi olmosh keladi. Masalan: Ish jarayonida shunday masalalar ham chiqardiki, bu Oyoq uchun uchun hal qilib bo'lmaydigan darajada murakkab va mas'uliyatli tuyulida.

Ba'zan bosh gap tarkibidagi shunday so'zi o'rnida shu qadar, shuncha (lik), shu xil kabi so'zlar ishlatiladi. Masalan: Anvar Munisxonga shu qadar nazar tashladiki, buni payqagach Munis uyalib, sekin erga qaradi.

Ayrim hollarda olmoshlar ergash gapda ham, bosh gapda ham tushirilgan bo'ladi. Lekin bunda —ki bog'lovchisi saqlanadi.

Masalan: Odam borki odamlarning naqshidir, odam borki xayvon undan yaxshidir. (maqol).

5. Payt ergash gap bosh gapning kesimidan anglashilgan ish-harakatning bajarikish paytini bildiradi.

Ergash gap bilan bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga kelishi quyidagicha:

1. Bosh gap bilan ergash gapdagi ish-harakat bir paytda yuzaga keladi. Bunda bosh gap bilan ergash gapning o'zaro birikishi quyidagicha:

1. Ergash gapning kesimi sifatdash formasida bo'lib, o'rin – payt kelishigi affiksini olgan *cjg'*, *payt*, *zamon* so'zlari bilan birikib keladi. Masalan: Oyoqlari uyning ostonasiga etgan *chog'da*, *Komil* ko'zlarini erdan uzib olib, boshini yuqoriga ko'tardi.

2. Ergash gapning kesimi o'rin-payt kelishigi affiksini olgan sifatdash bilan ifodalanadi. Masalan: O'qituvchi so'zining oxirida *Salimni* nomini o'qiganda, xona yana jim qoldi.

3. Ergash gapning kesimi – *P (-ap)+ ekan"* shaklida bo'ladi: Naq yarim kechada odamlar uy-uylariga tarqalarkan, *Navoiy* Sultonmurodning to'xtatdi. *Jilam* daryosida suzar ekanmiz, *qirg'oqlarda* sunray sadolari, yoqimli qoshiqlar yangraydi.

Ergash gapning kesimi – *P (-ap)* bilan yasalgan sifatdashning bo'lishli-bo'lishsiz formasidan tusilgan juft so'z bilan ham ifodalanadi. Masalan: Yarim soat o'tar-o'tmas, *samalyot* qo'nadigan maydonchaga etib keldik.

II. Bosh gapdagi ish-harakat, holat ergash gapdagi ish-harakat, holatdan oldin yuzaga keladi. Bunda gap bilan bosh gap o'zaro quyidagicha bo'ladi:

1. Ergash gapning kesimi-guncha affiksi bilan yasalgan ravishdash bo'ladi. Masalan: *Majlis* boshlanguncha, bir oz kulishib o'tiraylik.

Ba'zan ergash gap kesimi "*Fe'l+guncha qadar"* shaklida keladi. Masalan: Uy egasi dasturxonni mehmon oldiga solguncha qadar, *Fotima* ham barkashni olib keldi.

2. Ergash gapning kesimi ravishdashning bo'lishsiz formasi (*-ma y, -ma-s-dan*) bilan ifodalangan bo'ladi. Masalan: Oradan ko'p vaqt o'tmay, kimdir shoirning kelganidan habar berdi. Tong yorishmasdan, ko'chada harakat boshlandi.

Ba'zan bu xil ergash gplarning kesimi ilgari, avval, oldin kabi so'zlar bilan keladi.

Masalan: Mustaqil bo'lmasdan ilgari, o'zbeklar qaram halq edi.

III. Bosh gapdagi ish-harakat, holatdan keyin yuzaga keladi. Bunda ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi.

1. Ergash gapning kesimi (-gan+dan keyin, so'ng) shaklida ifodalanadi. Masalan: Suhbat tugagandan keyin, odalar tarqaldi.
2. Ergash gapning kesimi – gach affiksi bilan yasalgan ravishdosh bo'ladi. Masalan: Yo'chining hasharga kelgani Nurining qulog'iga etgach, unda sabr qolmadi.
3. Ergash gapning kesimi – gan (yotgan) edi + shaxs son affiksi shaklida ifodalanadi. Bu vaqtda ergash gapni bosh gapga bog'lovchi maxsus intonatsiya ham bo'ladi: Sodiq eshikdan chiqqan ham edi, Otabek boshini sekingina ko'tardi.

Ba'zan bu xil ergash gaplarning kesimi – ki bog'lovchisini ham olib kelishi mumkin: Boy endi ovqatlanayotgan ediki, xizmatkori kirib keldi.

IV. Bosh gap bilan ergash gapdagi ish-harakat, holat ketma-ket yuz beradi. Bunda ergash gapning bosh gapga bog'lanishi quyidagicha bo'ladi:

1. Ergash gapning kesimi –gan+dan beriyoki buyon shaklida ifodalanadi. Masalan: Kumush kelgandan beri, Otabek o'zini kun sayin sariqroq bir doiraga kirib borganini sezar edi.
2. Ergash gapning kesimi –gan sayin yoki hamon, sari shaklida ifodalanadi. Masalan: Komiljonni fikri oydinlashgani sari, hamma Komiljon tarafiga o'ta boshladi.
3. Ergash gapninh kesimi Harakat nomining –sh formasi + bilan

shaklida ifodalanadi. Masalan: Shokirxonning xikoyasi tugashi bilan, oy ham botdi.

Ba'zan ergash gap kesimi tarkibidagi bilan so'ziga –oq yuklamasi qo'shilib keladi. Bunda harakatning juda tez almashuvi ifoda qilinadi. Masalan: mehmonlar jo'nashi bilanoq, hovli jim\jit bo'lib qoldi.

6. O'rin ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan ish-harakat, holatning bajarilish o'rnini bildiradi.

Ergash gapning kesimi shart mayli formasda bo'ladi. Ergash gap tarkibida qaerga, qaerda, qaerdan, qayoqqa kabi nisbiy so'zlar bo'lib, bular bosh gap tarkibidagi shu erda, u erda, o'sha erda, o'sha erga kabi holga mos keladi. Masalan: Ko'z qaerda bo'lsa, mehr ham o'sha erda bo'ladi. Qaerda kurash bo'lmasa, u erda o'sish ham bo'lmaydi.

7. Sabab ergash gap bosh gap kesimidan anglashilgan ish-harakatni bajarish sababini bildiradi. Sabab ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

1. Ergash gapning kesimi – gan + egalik af + uchun shaklida ifodalanadi. Masalan: Majlis bo'lgani uchun, dars bo'lmadi. G'ulomjon uzoq o'y surib qolgani sababli, uzilib qoldi. Ergash gapning kesimi ba'zan –lik affiksini ham olib keladi. Masalan: Talabalar qiziquvchan bo'lganligi uchun, darslar qiziqarli bo'ladi.

2. Ergash gapning kesimi – gan + egalik af +dan shklida ifodalanadi. Masalan: Qishloq sharoitida ish ko'p bo'lganidan, o'qishga vaqt bo'lmaydi.

Ergash gapning kesimi ba'zan –lik affikasini ham olib keladi. Masalan: Kumush juda hafa ko'ringanligidan, uning ko'nglini olmoqqa to'g'ri kelardi.

3. Ergash gap bosh gapga shuning uchun, shu sababli, shu tufayli so'zlari yordamida bog'lanadi.

Masalan: Biz o'z vatanimizni sevamiz, shuning uchun go'zal tarixini yaxshi bilmog'imiz kerak.

4. Ergash gap bosh gapdan keyin kelib, bosh gapga chunki bog'lovchisi yordamida bog'lanadi.

Masalan: Yo'lchining ko'ngli quvonch bilan to'la edi, chunki yori yonida edi.

O'rni bilan chunki bog'lovchisi ishlatilmasligi ham mumkin. Masalan: Egilgan tayoqqa suyanma: seni ham egadi.

5. ergash gap bosh gapga –mi yuklasi yordamida bog'lanadi.

Masalan: Modomiki xaloyiq qo'lga tosh olibdimi, uning ko'nglida dardi bordir.

6. Ergash gapda shekilli so'zi keladi. Masalan: Olimjon kelmadi, shekilli, majlis hali ham ochilgani yo'q.

8. Shart ergash gap bosh gapdan anglashilgan mazmunning qanday shart bilan bajarilishini bildiradi. Shart ergash gapga quyidagilar bog'lanadi:

1. Shart maylidagi fe'l yordamida:

Masalan: Ter to'kib mehnat qilsang, erdan xatto zar unadi.

2. Ba'zan shart ergash gapning kesimi –gan + da shaklida ifodalanadi.

Masalan: mustaqillik bo'lganda, biz bunday erkin hayot kechirmas edik.

Bosh tarkibida u holda, u vaqtda, shunda, bunda kabi so'zlar keladi. Masalan: Elning, yurtningbaxti barqaror bo'lsa, u holda saltanat ham bezatar bo'lur.

-mi –chi yuklamasi qo'shilib yoki bormi so'zi keltiriladi: Masalan: Mehnatni ayamasangiz-chi, barakasi oshaveradi.

Ergash gapdagi shart ma'nosini ta'kidlash uchun ergash gap tarkibidagi agar, basharti, mobodo kabi so'zlar keladi. Masalan: Agar astoydil mehnat qilinsa, mo'ljaldagi hosil etishtirilishi mumkin.

Ayrim shart ergash gaplarda payt manosi ham bo'ladi. Masalan: Amudaryoni jilovlasak, O'zbekiston butun-butun paxta vodiylari yaratadi.

9. Maqsad ergash gap bosh gapdagi anglashilgan ish-harakatning maqsadini bildiradi. Maqsad ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi:

1. Ergash gap qo'shma gap shaklida bo'lib, bosh gapga deb bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Masalan: Anorxonning qo'llari kuymasin deb, Sobir o'zi qumg'onlarni ildam o'choqdan oldi.

2. Ergash gap bosh gapga toki yordamida bog'lanadi. Masalan: Biz o'z bilimimizni kun sayin chuqurlashtirib boraylik, toki Vatan oldidagi o'z burchimizni muvoffaqiyatli hal qilaylik.

10. To'liqsiz ergash gap mazmuni bosh gap mazmuniga zid bo'lsa ham unda ifoda qilinayotgan fikrning bajaralishiga to'siq bo'lmaydi. To'liqsiz ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi.

1. Shart mayli affiksi (] egalik affiksi)] ham yordamchisi orqali: Masalan: Bir kishi tarixni yoritmasa ham, kishining tarixda yuksak o'rni haq.

Ba'zan ma'noni kuchaytirish uchun bosh gap tarkibida zidlovchi bog'lovchi ham keladi.

Masalan: Kumushbib boya yo'l ustida yigitlar orasida korgan bo'lsa ham, biroq daxshat ichida o'rdaga qarab yugurgan edi. Ergash gap tarkibida keladigan garchi so'zi ham to'liqsiz ma'nosini kuchaytiradi. Masalan: Garchi bahor fasli bo'lsa ham, peshinning issig'l jazirama yozdek qizdirardi.

2. Shart mayli affiksi] –da yuklamasi orqali: masalan: Quyosh botgan esa-da, hali hamma yoq yorug'.

3. Ergash gapnin gkesimi buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanadi. Masalan: O'z o'qituvchisiga ona singari mehribon bo'lmagan har bir o'qituvchi, garchi u ko'p tajribali bo'lsin, oxirida pushymon bo'lur.

11. Natija ergash gap bosh gapdan ergashilgan ish-harakatni natijasini bildiradi. Natija ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi: 1. Bosh gapning kesimiga –ki bog'lovchisi qo'shiladi: tarkibida esa shunday, shu qadar, shu darajada, shuncha (lik), shunaqa, gunoh kabi bog'lovchi vazifasidagi so'zlar keladi. Masalan: Olimjon shuncha tez va ildam ishlardiki, u ajratib olgan er bir pastda tizza bo'yi chuqurlashdi.

Ba'zan ergash gap tarkibida natijada, oqibatda kabi so'zlar kelib, gapning mazmunini bo'rttirib ko'rsatdi. Masalan: Men shunchalik hayajonlandimki, oqibatda bir og'iz ham so'z ayta olmadim.

Bosh gap tarkibida kelgan bog'lovchi vazifasidagi so'z tushirilgan bo'lishi ham mumkin. Masalan: Bizning tilimiz Navoiyning so'zida ulug'

12. O'xhatish ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat holat, belgi-xususiyatni boshqa bir voqea = hodisa, belgi – xususiyatga o'xshatadi, qiyos qiladi. O'xshatish ergash gap bosh gapga quyidagicha bog'lanadi.

1. ergash gapning kesimi –day –dek affiksini olgan sifatdosh bilan ifodalanadi. Masalan: Adrlarga qip-qizil gilam yopganday, lolalarchaman bo'lib ochilib yotibdi.

2. Ergash gapning kesimi –gan] egalik ar r]kabi shaklida ifodalanadi. Masalan: Xotin kishining o'zi nozik bo'lgani kabi, hissi ham, ko'ngli ham nozik, sezuvchan bo'ladi.

3. Ergash gap tarkibida go'yo, go'yoki yordamchilari keladi. Masalan: Childirmalarning sho'x ovozi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi

kuylaydi. Ba'zan bosh gap tarkibida – u, -yu, Yuklamalari ham keladi. Masalan: Munisxon osmonda porlab turgan bir yulduz-u, go'yo Qudrat shu yulduzning suvda aks etgan shulasi edi.

13. Miqdor daraja ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat, holatning qanday darajada, qancha miqdorda bajarilishini bildiradi. Miqdor daraja ergash gapning kesimi shart mayli shaklida bo'ladi. Bunda ergash gap tarkibida kelgan qancha, qanchalik, nechalik olmoshlari bosh gap tarkibida kelgan shuncha, shunchalik, shu chog'li, shu qadar kabi so'zlarga mos keladi. Masalan: Oshnalar qancha ortsa, yotlar bo'lar shunch kam.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika inistitutlar uchun) qayta ishlangan 2 nashri. T., "O'zbekiston" 1991 y.
U. Tursunov, J.Muxtorov, SH. Raxmatullayev, Xozirgi o'zbek adabiy Tili. T., "O'zbekiston" 1992 y.
2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi. T., "Fan", 1992 y.
3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №5G'6. 1992 y.
4. A.Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabalari uchun darslik) T., "O'zbekiston" 1994 y.
5. G'. Abduraxmonov, S. Mamajanov O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T., "O'zbekiston" 1995 y.
6. M. Mirtojiyev Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi. "O'zbek tili va adabiyoti jurnali" №2. 1995 y.
7. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar xaqida ba'zi bir muloxazalar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №1. 1997 y.
A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir.
"O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1998 y.

Mavzu: Ikkinchi darajali bo'laklar.

R e j a :

1. Ikkinchi darajali bo'laklar ha=ida ma'lumot.
2. To'ldiruvchi va uning ifodalanishi.
3. Aniqlovchi va uning ifodalanishi.
4. Hol va uning ifodalanishi.

Mavzuga doir mummolar.

1. Gapning ikkinchi darajali bo'laklari deb qanday bo'laklarga aytiladi.
2. To'ldiruvchi va uning turlari, so'roqlari to'g'risida ma'lumot bering.
3. Sifatlovchi, qaratqich, aniqlovchilarninig so'roqlari, ifodalanishini misollar yordamida izohlang.
4. Izohlovchilarni tushuntiring.
5. Hol, uning turlari, so'roqlarini misollar asosida izohlanang.

Tayanch iboralar: Ifodalanishi, vositali va vositasiz, sifatlovchi va sifatlanmish, qaratuvchi va qaralmish, izohlovchi va izohlanmish, hol ma'no turlari, so'roqlar, vazifasi.

Ikkinchi darajali bo'laklar haqida ma'lumot.

Ikkinchi darajali bo'laklar bosh bo'laklar orqali ifoda qilingan gapning asosiy mazmuni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladi.

Masalan:

Qahraton qishning achchiq sovug'i badanni achitardi. (R.F).

Yoki

Opa-singil uyda onalarining majlisdan kelish kutar edilar (A.Mux).

Yuqoridagi misollarda sovuq achitardi, opa-singil kutar edilar bo'laklari gapning bosh bo'laklari bo'lib, gapning asosiy mazmunini ifodalaydi. Qolgan bo'laklar ularga bo'g'lanib, gap mazmunini kengaytiradi.

Ikkinchi darajali bo'laklar, odatda, yo egaligi yoki kesimga tobe bo'ladi. Ayrim hollarda esa ikkinchi darajali bo'laklar o'zaro bir-biriga ergashib, gapning bosh bo'laklariga tobe bo'ladi. Ayrim hollarda esa ikkinchi darajali bo'laklar o'zaro bir-biriga ergashib, gapning bosh bo'laklariga tobe bo'ladi.

Masalan:

Kuchli shamol eng katta daraxtlarni tebratmoqda edi.

Bu gapda shamol tebratmoqda edi bosh bo'lagiga kuchli, eng katta daraxtlarni so'zlari ergashib, tobe bo'lib kelmoqda.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari uchga bo'linadi:

1. To'ldiruvchi
2. Aniqlovchi
3. Hol

To'ldiruvchi va uning ifodalanishi.

Gapning biror bir bo'lagiga boshqaruv yo'li bilan bo'lanib, uning ma'nosini to'ldirib keluvchi gap bo'lagi to'ldiruvchi deb ataladi.

Boshqaruvchi sozning talabiga ko'ra to'ldiruvchi biror kelishikda (qaratqichdan tashqari) bo'ladi yoki ko'makchi bilan keladi.

Masalan:

U olim va fozil odamlar bilan suhbatlashishdan zavqlanar edi. (M.Osim).

Bilim manbai-kitobni seving.

Birinchi misolda to'ldiruvchi (odamlar bilan) ko'makchi bilan, ikkinchisida (suhbatlashishdan) chiqish kelishigi bilan kelib, kesimga boshqaruv yo'li bilan bog'langan. Ikkinchi gapda esa to'ldiruvchi (kitobni) tushum kelishigi bilan ifodalangan.

To'ldiruvchi egaga, aniqllovchiga, boshqa bir to'ldiruvchiga ham bo'lanib kelishi mumkin. Bunday hol ko'pincha ega aniqllovchi, to'ldiruvchining sifat-dosh va harakat nomi bilan ifodalanganida ro'y beradi.

Masalan:

1. To'ldiruvchining egaga bo'lanib kelishi

Gulni sevgan tikanni ham sevadi.

2. To'ldiruvchining aniqllovchiga bo'lanib kelishi

Betga aytganni zaxri yo'q.

3. To'ldiruvchining to'ldiruvchiga bo'lanib kelishi

Direktorimiz musobaqaga qatnashganlarni qzg'in tabrikladi.

To'ldiruvchilar odatda, ot, olmosh, harakat nomi, son, sifat, sifat-dosh bilan ifodalanadi:

Ot bilan: ifodalanishi.

Qarsak ikki qo'ldan chiqadi. (maqol)

Ochiq gapir, so'zingni anglat.

Olmosh bilan: ifodalanishi.

Supa ustida o'tirib choy ichayotgan Saodat opa voqeani undan surishtira boshladi. (S.N.).

Qiz kim bilandir so'zlashib borardi. (O).

Harakat nomi bilan ifodalanish.

Yo'lchi chindan ham nay chalishni bilar edi. (O).

Son bilan ifodalanishi.

Yigirmaning ikkiga bo'lsak, o'n bo'ladi.

Sifat bilan ifodalanishi.

Mardni mehnat engolmas. (maqol).

Qochoqqa shavqat yo'q, qo'rqqoqa hurmat. (maqol).

Sifatdosh bilan ifodalanishi.

Qo'rqqanga qo'sh ko'rinibdi. (maqol).

Ayirilganni bo'ri er. (maqol).

To'ldiruvchilar birikma holiday ham ifodalanadi.

Masalan: Elmurod tabora kunlarni qanday o'tayotganini sezmay qoldi. (P.T).

Vositasiz va vositali to'ldiruvchilar

To'ldiruvchi o'zi tobelanib kelgan gap bo'lagi bilan bog'lanib kelishiga ko'ra ikki hil bo'ladi.

- a) Vositasiz to'ldiruvchi.
- b) Vositali to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi.

Vositasiz to'ldiruvchi harakatni o'ziga bevosita qabul qilgan predmetni ifodalab, kimni? Nimani? Qaerni? degan so'roqlarni biriga javob bo'ladi.

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigidagi so'z bilan ifodalanadi.

Masalan:

Bolalar paraxod modelini yasadilar. Opa, menga o'sha Omonimni kuy, menga o'sha o'sha yomonimni kuy. (X.O).

Uyqu arslonni ham yiqitar. (maqol).

Vositasiz to'ldiruvchi ba'zan chiqish kelishigi so'z bilan ham ifodalanishi mumkin. Bunday hollarda harakat predmetning bir qismiga o'tganligi ifoda qilinadi: Elmurod odatdagiday, brigadaga gazeta yangiliklaridan o'qib berdi. (P.T)

Vositasiz to'ldiruvchi bo'lib kelgan soz tushum kelishik affikasini hamma vaqt ham olavermaydi, ayrim hollarda tushum kelishigi qo'shimchasiz kelishi ham mumkin. Albatta bu holat ma'no va grammatik talabga ko'radir.

So'zlovchi va tinglovchi avvaldan ma'lum bo'lgan predmet, voqea xodisa yoki belgi ifoda qilinganda, tushum kelishigi affiksi saqlanadi, predmet, voqea-hodisa, belgilar yoki predmetlarning biror turi umuman ifoda qilinganda, tushum kelishigiaffiksi tushiriladi.

Qiyoslang:

Zulfiya bobsidan eshitgan hikoyalarni so'zlab berdi. (Gaz).

Botir anchagacha elektr yorug'ida kitob o'qidi. (S.N).

Vositasiz to'ldiruvchi quyidagi hollarda tushum kelishigi affiksini saqlaydi:

1. Atoqli ot, kelishik olmoshlari bilan ifodalanganda.

Lolani barcha gullar kutib olishdi. (Sh.R).

Meni hamma qarsaklar bilan kutib oldi.

2. Ko'rsatish olmoshi, sifat va sifatdosh bilan ifodalangan aniqlovchisiga ega bo'lsa:

Egilgan boshni qilich kesmas. (maqol).

Men bu kitobni ilgari o'qigan edim.

3. Kesm bilan vositasiz to'ldiruvchi orasida boshqa so'z kelganda:

Tog'u toshni suv buzar el orasini so'z buzar. (maqol).

4. Otlashgan so'zlar bilan ifodalanganda: O'qiganni hamma hurmat qiladi.

5. Egali affiksini olib kelganda: Saodat qizining shirin uyquda engil nafas oloshini anchagina tomosha qildi. (I.R).

6. Vositasiz toldiruvchiga alohida diqqat qilinganda: Behuda harakat belni sindirar. (maqol).

Vositali to'ldiruvchi

Vositali to'ldiruvchi bosh, qaratqich, tushum kelishiklaridan boshqa kelishikdagi so'zlar bilan hamda ko'makchili ishlatilgan so'zlar bilan ifodalanadi. Ularning ma'nolari, ifodalanishi, so'roqlari ham turlichadir.

1. Kelishik affikslari bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchilar:

1. Jo'nalish kelishikdagi so'z bilan ifodalangan to'ldiruvchilar harakatning kimga yoki nimaga qaratilganligini ifoda qilib, kimga? Nimaga? So'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Sevgi pulga sotilmas, ko'ngil pulga topilmas. (maqol).

Vositali to'ldiruvchining bu turli atash ma'nosini ham ifodalaydi.

Men bu sovg'ani ukamga oldim.

2. Chiqish kelishigidagi so'z bilan ifodalangan to'ldiruvchilar kimdan? Nimadan? So'roqlarining biriga javob bo'lib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi.

a) predmetning chiqish o'rnini.

Odam odamdan baxra oladi. (A.K.).

b) Qiyoslash ma'nosi.

Otaning mehridan ustozning jabri abzal. (S.Z).

v) to'da va bo'lakdan ajratib ko'rsatish ma'nosini:

axmedov gapni Kapsancilar qishlog'ining tarixidan boshladi. (A.K).

g) predmetning nimadan tayyorlanganligini: O'quv xonasi betondan qilingan.

d) Harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni:

Komandir avtomatdan osmonga o'q uzdi.

O'rin kelishigidagi so'z bilan ifodalangan to'ldiruvchilar kimda? Nimada? so'roqlarining biriga javob bo'lib, harakatning yuz berish o'rnini ifodalaydi. Bunda:

- a) harakatning yuz berish o'rni ifodalanadi: Dilshodda yoshlikdan ilmga havas bor edi. (M.I).
- b) Harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni ifodalaydi: Mehmonlar belgilangan manzilga mashinada etib bordilar.

2. Ko'makchi so'z bilan ifodalangan to'ldiruvchilar:

1. To'g'risida, ustida, haqida kabi komakchi ishlatilsa, to'ldiruvchi harakatni kim yoki nima haqida ekanligini ifoda qilib, kim to'g'risida? nima haqida? so'roqlarining biriga javob bo'ladi. Institutda Alisher Navoiy haqida baxs-munozara bo'lib o'tdi.

2. Uchun ko'makchi ishlatilsa, to'ldiruvchi ko'pincha atash ma'nosini ifodalab nima uchun? Kim uchun? so'roqlarining biriga javob bo'ladi: O'zbekiston mustaqilikka erishgach, oddiy xalq uchun, etim-esirlar uchun talaygina tadbirlar o'tkazildi.

3. Bilan ko'makchi ishlatilsa, to'ldiruvchi kim bilan? nima bilan? so'roqlarining biriga javob bo'lib, haraktatni yuzaga kelishida birgalikda ifoda qiladi: Osh egasi bilan shirin. (maqol). Adirlar maysalar bilan qoplangan.

Aniqllovchi va uning ifodalanishi.

Predmetning belgisini bildirgan ikkinchi darajali bo'lak aniqllovchi deyiladi.

Aniqllovchi predmetning sifatini, rang-tusini, xususiyatini, mazasini, shklini, xajmini, miqdor-darajasini yoki qarashlilikini bildiradi. Shu bois aniqllovchining so'roqlari turlichadir: qanday? Qancha?, qanaqa?, qaysi?, nechanchi?, kimning?, nimaning?, qaerning? va boshqalar.

Aniqllovchi doim aniqlanmishga bog'liq holda qo'llanib, undan oldin keladi. Aniqllovchi bilan aniqlanmish birgalikda aniqllovchili birikmani tashkil qiladi.

O'zbekistnning joshqin, sho'h bahori cho'lga gul va ko'kat sepini yoydi. (O).

Mazkur misolda O'zbekistnning (qaerning?) qaratqichli aniqllovchi, joshqin, sho'h (qanday?) sifatlovchi aniqllovchidir.

Aniqllovchi ikki xil bo'ladi.

1. Sifatlovchi aniqllovchi.
2. Qaratqich (ko'rsatuvchi) aniqllovchilar.

Sifatlovchi aniqllovchilar.

Predmetni belgisini, vaqtga va o'ringa munosabatini, miqdor,tartibini bildiradigan aniqllovchilar sifatlovchi aniqllovchilar deyiladi. Sifatlovchi bog'lanib kelgan so'z sifatlanmish deyiladi. Masalan: Soyning tagida kom-kok suv oqib o'tadi. Bunda kom-kok sifatlovchi, suv esa ifatlanmishdir.

Sifatlovchi quyidagi so'z tur quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Sifat bilan: Ufq qizil atlaslarga o'ralib, oltin sochning yo'llariga boqadi. (U).
2. Son bilan: O'n ikki gektar er kaftdek tekkis qilib qo'yilgan. Nilufar bu yil meditsina bilim yurtining ikkinchi kursini tugatdi.
3. Olmosh bilan: Qandaydir bolalar yugurib chiqdi. (O). Allaqanday xatni o'qigan edim.

4. Ot bilan: Asfalt ko'chaning y er-bu erida suv xalqob bolib yotardi. (U.X).
5. Sifatdosh bilan: Gurillagan shaboda ularning yuzlarini silay boshladi. (P.T).
6. Ravish bilan: Tog'ning uzoq-yaqin yon bag'irlarida yanada balandroq va daxshatliroq aks-sado eshitildi. (S.A).
7. Taqlid soz bilan: G'uj-G'uj qushlar daraxtlarda sayray boshladi.

Sifatlovchi aniqlovchi aniqlanmishga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi. Sifatlovchi ba'zan yopiq holda, ya'nibirikma holda kelishi ham mumkin: Daladan guvirlab esgan shamol yalang koylakli qizlarni junjitdi. (O).

Yoki: Katta, gavdali, oppoq soqoli ko'kragiga tushib turgan chol Berdiqulovga qaradi. (C.N).

Qaratqich aniqlovchilar:

Bir predmet yoki shaxsning boshqa bir predmet yoki shaxsga qarashli ekanini bildirgan aniqlovchi qaratqich aniqlovchi deuladi. Masalan: Bu yilgi bahorning kech kelishi ko'plarninig tinkasini quritdi. (S.Karomatov)

Yoki: Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l. (maqol).

Birinchi gapda bahorning ko'plarninig so'zlari, ikkinchi gapda esa yaxshining va yomonning so'zlari qaratqich aniqlovchidir.

Qaratqich aniqlovchilar quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot yoki uni o'rnida qo'llanuvchi olmosh bilan: Kishining muxim burchlaridan biri – ota va onanig hurmatidir (Navoiy).
2. Otlashgan sifat bilan: Botirning mushti ham yarog'. (maqol).
3. Otlashgan son bilan: Uning yarmi-besh.
4. Otlashgan sifatdosh bilan: O'qiganning tili ko'p uzun bo'ladi. (Pulkan).

Bir qaratqich aniqlovchi bir necha qaralmish bilan bog'lanib kelishi yoki, aksincha, bir qaralmish bir necha qaratqich bilan bog'lanib kelishi mumkin.

Masalan: Mehmonlar orasida Xirotning olimlari, xofizlari ham ko'pgina edi. (O).

2. Ayvonlarning shiftlariga ilingan osma chiroqlardan taralgan nurdan kechki olma va bexi gullari qorong'ida yanada oqarib ko'rinadi. (S.A.).

qaratqich aniqlovchi belgili yoki belgisiz bo'ladi. Belgili bo'lganda kelishik affikasi saqlanadi, belgisiz bo'lganda esa bu affks saqlanmaydi: Maktabimiz bog'l yildan-yilga yashnamoqda.

Izlar bo'ldim Qoraxonning qizini, Ot ko'targan Zulfiqorning o'zini. (Folklor)

Izohlovchi:

Predmetni boshqa bir nom berish bilan aniqlaydigan bo'lak izohlovchi deyiladi.

Masalan:

Professor Nazarov kirib keldi. (A).

Izohlovchi bog'langan bo'lak izohlanmish deyiladi.

Izohlovchi aniqlovchi izohlanmish xilma-xil belgilarini bildiradi. Izohlovchilar, asosan ot bilan ifodalanib, quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Unvonni: General Sobir Rahimov misilsiz qahramonlik ko'rsatdi.
2. Mashg'ulot, kasb, mutaxassislikni: Oshpaz kampir choy damlab keltirdi. (S.N).
3. Amalni: Yig'ilishni shahar hokimi Qobilon ochdi
4. Jinsni: Og'il bolalar ham, qiz bolalar ham sportga faol qatnashdilar.
5. Qarindoshlik yoki shunga o'hshatilgan munosabatni: Xadicha hola ertalab biznikiga kirib keldi.
6. Laqabni: Ayvon pastida Soli sovuq bilan Juman pismi qo'l qovushtirib turdi.

7. Taxallusni: Kechada Toxir Usmon she'rlaridan o'qildi.

8. O'xshashlikni: Vatan – ona so'zi naqadar laziz.

Rahmatulla Otaqo'ziev Uyg'un, Vatan-ona tipidagi izohlovchi va izohlanmish orasiga yozuvda defis qo'yiladi.

Hol va uning ifodalanishi.

Ish-harakatning qaytarzda bajarilishini, sabab yoki maqsadini, uning bajariishi bilan bog'liq bolgan o'rin va paytni bildiruvchi gap bo'lagi hol deyiladi. Hollar qanday?, qanday qilib?. Qaytarzda? Qachon?, qachongacha?, qaerda?, qayerdan?, qancha?, nima maqsadda? Kabi so'roqlaridan biriga javob beradi.

Hol ravish, ravishdosh, jo'nalish, chiqish, o'rin kelishigidagi ot yoki ko'makchili ishlatilgan ot bilan, shuningdek, taqlid so'z, son bilan ifodalanadi.

Ravish asosan, hol vazifasida keluvchi so'z turkumidir.

Gapda asosan hol vazifasida qo'llanish ravishdosh uchun ham xosdir.

Masalan: G'ulomjon qishloqda bo'lgan voqealarni oqizmay-tomizmay so'zlab berdi. (M.I).

Zanjirlanmagan eshik sekingina shirq etib ochildi. (P.T.) .

Ot jo'nalish, chiqish, o'rin kelishigida kelib yoki ko'makchi bilan ishlatilib, gapda hol bo'lib keladi. Bunda o'rin, payt, sabab, maqsad, miqdor kabi ma'nolar ifodalanadi.

Masalan: Mashina kichik kocha bilan adir tomonga jo'nadi. (I.R).

Botir endi ikki quloq bo'lgan g'o'zalar orasidan borar edi. (S.N).

Harakat nomi hol bo'lib kelganda, u ham ot kabi shakillanadi.

Masalan: Jamoa boshqaruvi raisi brigadalarga yana besh sentiner oshirmoq uchun shart qo'ydi.

Hol taqlid so'z bilan ham ifodalanishi mumkin:

Xayot piq-piq yig'lar, elkalari dir-dir titrar edi. (M.I).

Son hol vazifasida kelganda, kopincha, marta, karra so'zlari bilan ishlatiladi.

Masalan: Tepalik bir necha soat moboynda besh marta qo'ldan-qo'lga o'tdi. (O).

Ayri hollarda hol birikma tarzida ifodalanishi mumkin.

Masalan: Poezd Xovosga erta bilav soat sakkizda etib keldi. (G.G).

Hol hamma vaqt ham kesimga bog'lanavermaydi, u gapning boshqa bo'lagiga bog'lanishi ham mumkin.

Masalan: Uzoqda qop-qorayib turgan tog'ning usti ko'rindi. (A.K). Tashqirida o'tirgan ayollarni ham qotib-qotib kulgani ichkariga eshitildi.

Birinchi gapda hol (uzoqda) aniqlovchiga (qop-qorayib turgan) ikkinchi gapda esa hol (qotib-qotib) egaga (kulgani) bog'lanib kelgan.

Hollar ma'nolarga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi:

1. Ravish holi.
2. O'rin holi.
3. Payt holi.
4. Sabab holi.
5. Maqsad holi.
6. Miqdor daraja holi.

Ravish holi

Ish – harakatning qay tarzda bajarilishini yoki qanday bo'lishini bildiradi. Ravish holi ish – harakatning qanday bajarilishini bildirib kelganda, qanday? Qanday qilib? So'roqlarining biriga javob bo'ladi.

O'rin holi harakat bo'lishidagi eng so'nggi chegarani ifoda qilib, -gacha, -ga, -qadar, -ga dovur kabi formada kelishi mumkin:

Sayohatchilar Hamzaobodga qadar mashina bilan borishdi.

3. Harakatning boshlanish o'rnini ifoda qilib, qaerdan so'rog'iga javob bo'ladi. Bu hol chiqish kelishigidagi so'z bilan shuningdek, ko'makchili ishlatilgan so'z bilan ifodalanadi: qirdan g'ir- g'ir shabada esadi.

Payt holi.

Ish-harakatning bajarilish payitini, uning chegarasini bildirib, qachon? Qachongacha?, qachondan beri?, kabi so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Payt holi payt ravishi bilan, o'rin, chiqish, jo'nalish kelishigidagi so'z bilan, ko'makchi ishlatilgan so'z bilan, birikma bilan ifodalanadi.

Masalan: Qizlar kechasi bilan dars tayorladilar. (S.N.).

Bir necha kundan song Botir uyiga qaytdi.

Payt holi.

1. Harakatning bajarilishidagi paytni bildiradi. Kechqurun xayot a'zolari yana klubga to'plandilar.

2. Harakatning bajarilishidagi chegarani bildiradi. Bunda hol "payt bildiruvchi so'z + ga dovur", "payt bildiruvchi so'z + ga qadar", shaklida bo'ladi. Masalan: Yaxyoxon kechqurunga dovur mehmonlar yonida boldi. Yo'lchi shu vaqtga qadar dala bilan ovora edi. (O) Shuningdek, payt holi ish harakatning bajarilishpaytidagi dastlabki chegarani bildiradi. Bu xil hol "payt bildiruvchi so'z + dan beri" , "payt bildiruvchi so'z + dan buyon" shklida bo'ladi.

Masalan: O'zbek ahli necha yillardan beri mustaqillikni orzu qilib kelganlar.

Sabab holi.

Ish harakatning bajarilish sababini bildirib, nimaga? Nima sababli?, so'roqlaridan biriga javob bo'ladi.

Sabab holi vazifasidagi soʻz kopincha uchun, sababli, tufayli kabi koʻmakchilar bilan keladi.

Masalan: Komiljon nazariy jihatdan kuchli boʻlganligi uchun koʻpincha Zunonov bilan baxlashib turdi. (I.R).

Sabab holi chiqish kelishigidagi soʻz bilan ham ifodalanadi.

Masalan: Elmurod xursandchiligidan tez-tez qadam bosib ilgari yurib ketdi. (P.T).

Maqsad holi.

Ish harakatning bajarilishidagi maqsadni bildirib, nima uchun?, nimaga? Nima maqsadda?, kabi soʻroqlarning biriga javob boʻladi.

Masalan: Nozimbek qishloq ahli turmash-tarzini tekshirish uchun yoʻlga chiqdi.

Maqsad holi joʻnalish kelishigidagi soʻz bilan, maqsad ravishdoshi bilan ham ifodalanadi.

Paxtakorlar Qurultoy ishtirokchilarini qarshi olgani shoshildilar.

Miqdor – daraja holi.

Ish Harakatning bajarilishini miqdor va daraja jihatidan aniqlab qancha? Qanchalik? Nech marta? Qanchalab? kabi soʻroqlarning biriga javob boʻladi.

Miqdor – daraja holi koʻpincha miqdor – daraja ravishlari bilan ifodalanadi.

Masalan: Koʻp bilgan oz soʻzlar. (maqol).

Sonlar ayrim hollarda marta soʻzi bilan kelib, gapda miqdor – daraja holi boʻlib keladi.

Masalan: Notanish yo'lovchi Manzuraning yuziga bir-ikki marta erostidan qarab qo'ydi.

Yoki:

Bugun qurilishda odam kundagidan ikki-uch marta ko'p edi. Miqdor daraja holi birikma bilan ham ifodalanadi.

Xokimiyatdan kelgan mutaxassisliklar birigada yumushini uch kun tekshirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun) qayta ishlangan 2-nashr T. "O'zbekiston" 1991 y.
2. A.Nurmatov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi. T. "Fan" 1992 y.
3. R.Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali № 5-6 1992 y.
4. A.Aliev, K.Sodiqov. O'zbek adabiy tili tarixidan. (Universitet talabalari uchun darslik) T. "O'zbekiston" 1994 y.

Mavzu: Bog'lovchisiz qo'shma gap.

R e j a

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap haqida ma'lumot.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gap turlari.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gapda tinish belgilarining ishlatilishi.

Mavzuga doir muammolar.

4. Qo'shma gap turlarini ayting.
5. Bog'lovchisiz qo'shma gap deb qanday gapga aytiladi.
6. Bog'lovchisiz qo'shma gapda qaysi tinish belgilari qo'llanadi.

Bog'lovchi vositalarsiz birikib kelgan sodda gaplarda tuzilgan qo'shma gap Bog'lovchisiz qo'shma gap deyiladi. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibida sodda gaplarning o'zaro bog'lanishida na bog'langan qo'shma gap, na ergashgan qo'shma gapdagi bog'lovchi vositalar qatnashmaydi.

Ular ohang yordamida bog'lanadi Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning birikishi.

1. Ayrim so'zlar orqali. Tarkibida bunday so'z mavjud bo'lgan sodda gap ikkinchi bir gapni talab qiladi. Masalan: Hamma yoq qop-qorong'i: chirog'lar ham, tog'ning bag'rida miltillab yonib turadigan gulhan ham allaqacjn o'chgan.

2. Ayrim so'zlarning takrorlanishi orqali; yoki o'rnida olmosh kelishi bilan: Ko'payashagan bilmas, ko'p ko'rgan bilar. (maqol). Ikkinchi sodda gapda takrorlanishi yoki o'rnida kelishi kerak bo'lgan so'z ayrim holda tushib, mazmundan bilinadi:

Yomg'ir quydi, tomchisi nangaday edi.

3. Gap qurilish orqali. Sodda gaplardan birisiz ikkinchisini tushinib bo'lmaydi. Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat.

4. Umumiy bo'lgan ikkinchi darajali bo'laklardan: Butun sayllarda ish qizidi, bir necha kubametr tuproq qirg'oqqa chiqarildi. Butu sayllarda hali qo'sha gapga bir butun holda taaluqlidir.

5. Ohang orqali. Mard o'zar-nomard to'zar. Faqat ohangda bog'langan.

6. Sodda gaplarning o'rni orqali. Kech kirdi, tevarak atrofga qorong'ulik tusha boshladi. Ularning o'rnini almashtirib bo'lmaydi.

7. Zamon munosabati orqali. Ariqda zilol suv shildiraydi, bog'da sayroqi bulbul tinimsiz honish qiladi. Sodda gaplarning kesimidan harakatning bo'lishi qo'shma gapda ifodalangan mazmunga mos keladi.

Bo'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibidagi soda gaplarning o'zaro mazmun munosabati va ohangiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

1. Bir tipdagi soda gaplardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gap. Bunday qo'shma gapning tarkibidagi soda gaplar bir xil shakillanadi, mazmun ham bir xil bo'ladi.

Masalan: Mehnat ahlining g'ayratlari misli ko'rilmagan darajada ortmoqda, ularning mehnatlari tobora serbaraka bo'lib bormoqda.

Bu tupdagi bog'lovchisiz qo'shma gapning tarkibidagi sodda gaplar o'zaro quyidagicha sematik munosabatlar xosil qiladi:

1) Bir paytda yuz beradigan voqea hodisalar anglashiladi:

Masalan Qirda o'tlovchi qo'y qo'zilar tinmay ma'rashar, uzoqlarda kimdir nay chalar edi. (I.R)

2) Ketma-ket yuz bergan voqea hodisalar anglashiladi:

Masalan: Saodatxon fortochkani ochib yubordi, uyga myzday kuz havosi kirdi. (S.Z).

3) Voqea-hodisalar qiyoslanadi. Masalan: Olim ilmi bilan hurmat topur, hofiz hush ovozi bilan odamlarning dilini hush qilur. (I.R).

4) Voqea-hodisalar o'zaro zid qo'yiladi. Masalan: Yaxshi etar murodga, yomon qolar yuatga. (maqol).

2. Turli tipdagi gaplardan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gap.

Bunday qo'shma gap tarkibidagi soda gaplarning kesimlari turlicha shakillanadi, ohang ham har xil bo'ladi. Bir soda gapdan anglashilayotgan voqea-xodisa ikkinchisidan anglashilayotgan voqea-xodisaga bog'liq bo'ladi. Qo'shma gap tarkibidagi soda gaplarning o'rni ham qat'iy bo'ladi. Masalan: Unsin yolg'izgina Yo'lchini uo'qlaydi, yuragi uning hasrati bilan to'la. (O).

Shu tipdagi bog'lovchisiz qo'shma gapning tarkibidagi soda gaplar o'zaro quyidagicha semantic munosabat hosil qiladi:

1. Sabab munosabati: Direktorni o'zi bilan so'zlashish kerak edi, to'g'ri uning qabulxonasiga kirdim.
2. Payt munosabati: Quruvchilar oqimi tog'on tomonga yo'l olgan, engil mashinalarning signallari yangraydi. (Sh.R).
3. Natija munosabati: Quyosh daraxt orqasiga cho'kdi, dala qoraydi.
4. To'liqsizlik munosabati: Havo sovib ketdi, studentlar stadiondan ketmaydilar
5. Izoh munosabati: Yangiorni obod qilishda o'zgacha kayf bor: kun sayin atrofiga ko'proq husunga to'lib, boyib. Yashnab ketaveradi. (O).
6. Shart munosabati: Ishchilarni biriktir, qiziqtir-har birining yuragida bo'ron qo'zg'oladi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi.

1. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bir paytda yoki ketma – ket bo'ladigan voqea-hodisalarni ifoda etsa, ular bir-biridan vergul bilan ajratiladi.
2. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatdan mustaqilroq bo'lsa, qo'shma gap tarkibida vergul ishlatilgan bo'lsa, qo'shma gap tarkibidagi soda gaplar nuqtali vergul bilan ajratiladi.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi ikkinchi gap birinchi gapning biror bo'lagini izohlasa, mazmununi to'ldirsa, qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar orasiga ikki nuqta qo'yiladi:
 - 1) Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmunan zid bo'lsa.
 - 2) Birinchi gap ikkinchi gap kesimidan anglashilgan ish harakatning

bajarilish natijasini yoki shartini bildirsa.

- 3) Birinchi gap mazmuni ikkinchi gap mazmuniga o'hsatilsa.
- 4) Sodda gaplardan tez almashinuvchi voqea-hodisalar anglashilsa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika inistitutlar uchun) qayta ishlangan 2 nashri. T., "O'zbekiston" 1991 y.
U. Tursunov, J.Muxtorov, SH. Raxmatullayev, Xozirgi o'zbek adabiy Tili. T., "O'zbekiston" 1992 y.
2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi. T., "Fan", 1992 y.
3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №5G'6. 1992 y.
4. A.Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabalari uchun darslik) T., "O'zbekiston" 1994 y.
5. G'. Abduraxmonov, S. Mamajanov O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T., "O'zbekiston" 1995 y.
6. M. Mirtojiyev Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi. "O'zbek tili va adabiyoti jurnali" №2. 1995 y.
7. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar xaqida ba'zi bir muloxazalar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali №1. 1997 y.
A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir.
"O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1998 y.

Mavzu: Murakkab qo'shma gap.

R e j a :

1. Murakkab qo'shma gap xaqida ma'lumot.
2. Ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.
3. Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.
4. Bo'lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo'shma gap.
5. Aralash murakkab qo'shma gap.

Mavzuga doir muammolar.

1. Murakkab qo'shma gaplar boshqa qo'shma gaplardan qanday farqlanadi.
2. Murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar bog'lanishiga ko'ra turlarga bolinadi.
3. Uyushgan va uyushmagan ergashish usuli bilan birikkan murakkab qo'shma gaplarni izohlang.
4. Aralash murakkab qo'shma gapni tushuntiring.
5. O'ga gap va uning turlarini misollar asosida izohlang.
6. O'zbek tili pungtuatsiyasi va uning asosiy tamoillarini ayting.
7. Tinish belgilari va ularning turlarini tushuntiring.

Ikkitadan ortiq sodda gaplarda tuzilgan qo'shma gap murakkab qo'shma gap deyiladi. Masalan: shunday bir vaqt bo'larki, lochinlar havoga uchajaklar, xalq ozod bo'lajak. Murakkab qo'shma gap tarkibidagi sodda o'zaro turlicha munosabatda bo'ladilar. Shunga ko'ra, murakkab qo'shma gaplar quyidagicha ko'rinishlarga ega.

1. Ergashish yo'li bilan tuzilgan qo'shma gap.

Murakkab qo'shma gapning bu turida ergash gap bir necha bo'lib, ular bitta bosh gapga tobelanadi. Qo'shma gapning bu turi bir necha ergash gapli qo'sh gap deb ham yuritiladi.

Masalan: Yomg'ir tinsa, havo ochilib ketsa, biz maktab bog'idagi mevali daraxtlarni butaymiz.

Tashqari hovli yorug' bo'lsa-da, eshik yopilgani uchun, derazamiz xujra qop-qorog'l bo'ladi.

Murakkab qo'shma gapda ergash gaplarning bosh gapga bog'lanish usuli

2 xil:

1. Birgalik ergashish.
2. Ketma-ket ergashish.

1. Birgalik ergashish

Qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplarning har biri gapga to'g'ridan -to'g'ri bog'lansa, birgalik ergashish deyiladi.

Masalan: mana bu kanal bitsa, yangi er ochilsa, paxta ham ko'payadi.

Ergash gaplarning turiga ko'ra, bu murakkab qo'shma gap ikki xil bo'ladi.

1. Bir tipdagi birgalik ergashish.

Bunda ergash gaplar bir tipli bo'ladi. Ularning har biri bosh gapning ma'lum bir bo'agini bir xilda izohlaydi, aniqlaydi, to'ldiradi. Ular bir xil so'roqqa javob bo'ladilar. Bunday ergash gaplar uyishgan ergash gaplar deyiladi.

Masalan: nargizaninig sevimlisi qancha uzoqda bo'lmasin, bu savdo qancha qiyin bo'lmasin, bu yol qancha mashaqqatli bo'lmasin, u o'z yuragidagi olijanob sevgi tantanasiga qattiq ishonadi. (SH.R)

Qo'shma gap tarkibida ergash gapning har bir turi uyishib kelishi mumkin.

Masalan:

Shart ergash gapning uyishb kelishiga:

Mening kolxozimda olimlar tajriba yasasa, keyin-keyin bundan hamma foydalanilsa, kishining obro'sa bu. (O)

2) To'ldiruvchi ergash gaplarning uyishib kelishiga:

Ko'ryapsiz-ku, xaq joyiga qaror topadi, noxaq jazosini topadi. (Sh.R)

3) Sabab ergash gaplarning uyishib kelishiga:

ekinzorlarda qumzorlardagidek toyg'oq yo'q edi, shamol ham orqadan esardi, shuning uchun uyga qarab borishim uncha qiyin emasdi. (S.A)

4) Payt ergash gaplarning uyishib kelishiga:

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgandan keyin, butun milliy boyliklar xalqqa teggach, o'zbek xalqi ham erkin nafas oldilar.

5) To'siqsiz ergash gapning uyushib kelishiga:

million ishlar o'tganda ham, toshga yo'nilgan xatlar o'chib ketganda ham, xalq qahramonlari kishilarning qalbidan o'chmaydi.

2. Turli tipdagi birgalik ergashish.

Bunda ergash gaplar turli tipli bo'ladi. Ularning har biri bosh gapdagi bo'laklari turli tomondan izohlaydi, to'ldiradi/ ularning so'roqlari ham turli xildir. Bunday ergash gaplar uyushmagan ergash gaplar deyiladi. Masalan: Havo ocjilib turgan bo'lsa

ham, belgilangan tadbirimiz amalgam oshsin deb, ekskursiyani o'tkazishga axd qildim.

3. Ketma-ket ergashish.

Bunda qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplar bosh gapga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanmay, biri ikkinchisiga tobeylanib, so'ng birgalikda bosh gapga tobelanadi.

Masalan:

Ovqat tanavvul qilinarkan, suhbat jiddiylashib, so'zning kalavasi chuvalmasdan sug'irilaverdi.

Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Bog'lanish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gaplarda soda gaplar o'zaro bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida birikadilar.

Bunday murakkab qo'shma gaplar mazmunan bog'langan qo'shma gaplardan farq qilmaydilar. Farq faqat soda gaplarning miqdirida boladi bo'ladi, ya'ni ikkitadan ortiq sodda gap gap qatnashadi.

Masalan: Bahor keldi, lekin havo uncha ochilganicha yo'g'u, daraxtlar kurtak ota boshladi.

4. Bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qoshma gap.

Bog'lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qoshma gap o'z tarkibidagi soda gaplarning o'zaro bog'lanish usuli, sodda gaplarning tuzilishi va semantik munosabati jihatdan qo'shma gapdan farq qilmaydi. Faqat soda gaplarning o'zaro munosabati murakkabroq bo'ladi.

Masalan: Bir tomonda qo'ylar so'yildi, =ozon osildi, tandirlar qizidi, sermoy sho'rva, issiq zog'ara tayyor qilindi. (S.A)

5. Aralash murakkab qo'shma gap.

Aralash murakkab qo'shma gap bir necha ko'rinishga ega.

1. Bog'lanish va ergashish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Masalan: Bahor keldi, ammo havo hali ancha sovuq edi, chunki bu yil qish bir oz cho'zilib ketdi.

2. Bog'lanish yo'li bilan va bog'lovchisiz munosabatga kiritish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap. Bunday aralash gaplarda sodda gaplarning o'zaro munosabatli turlicha bo'ladi.

Masalan: Tuproq semiz, suv yaxshi, havosi ochiq, quyosh esa yil bo'yi bu erga oshiq. (Sh).

Bunda 1,2,3 –gaplar o'zaro intonatsiya, to'rtinchisi bilan esa bog'lovchisi yordamida bog'langan. Bularda solishtirish munosabati ifoda qilingan. Har uch munosabat: bog'lanish yo'li bilan, ergashish yoli bilan va bo'lovchisiz munosabatga kirishish yo'li bilan tuzilgan murakkab qo'shma gap.

Masalan: o'rtoq Holnazarov, ovqatga ishtahasi bo'lmay, chalqancha yotib papiros tortar ekan, u ko'z oldidan g'alati manzaralarni o'tkazdi va toliqqan ko'zlari uyquga ketdi, tushiga ham shu manzaralar kirdi. (S.A).

O'zlashtirma gap

O'zgalarning shaklan o'zgartirib bergan gapi o'zlashtirma gap deyiladi. Masalan:

Ko'chirma gap: "Men a'lo o'qish uchun butun kuchimni sapf qildim", -dedi Zulfaya.

O'zlashtirma gap: Zulfaya a'lo o'qish uchun butun kuchimni sapf qilganini aytdi.

Ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aylantirilsada shakli o'zgarsa-da, mazmuni to'la saqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. M.Usmonova va boshqalar O'zbek tili Toshkent "O'zbekiston" 1991 y.
3. U.Tursunov va boshqalar hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent "O'zbekiston" 1992 y.
4. A.Aliev, K.Sodiqov o'zbek adabiy tili tarixidan Toshkent "O'zbekiston" 1994 y.
5. M.Mirzaev, I.Rasulov, I.Usmonov o'zbek tili Toshkent 1978 y.

Mavzuga doir muammolar

1. Murakkab qo'shma gapni oddiy qo'shma gapdan farqi nimada?
2. Aralash murakkab qo'shma gapning boshqa qo'shma gapdan farqini tushintiring.
3. Murakkab gap bilan murakkab qo'shma gap o'xshash va farqli tomonlarini izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika institutlari uchun qayta ishlangan 2-nashri) T. "O'zbekiston" 1991 yil.
2. A.Nurmatov va boshqalar. O'zbek tilining nazariy sintaksisi. T. Fan. 1992 y.
3. R.Rasulov so'z valentligi va sintaktik aloqa "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali 1992 yil №5 -6
4. A.Aliev va boshqalar. O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitetlar va talabalar uchun darslik) T. "O'zbekiston" 1994 yil.

Mavzu: O'zga gap va uning turlari

R e j a :

1. O'zga gap haqida tushuncha.
2. Ko'chirma gap haqida ma'lumot.
3. O'zlashtirma gap haqida.

Tayanch iboralar.

O'zga gap, ko'chirma gap, o'zlashtirma gap, turlari, tinish belgilar.

1. O'zga gap haqida tushuncha.

Ba'zan so'zlovchi o'zining gapini o'z nutqida ishlatadi. So'zlovchi nutqida ishlatilgan boshqa shaxsning gapi o'zga gap deyiladi.

O'zga gaplar uch xil bo'ladi ya'ni:

Ko'chirma gap, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap.

2. Ko'chirma gap haqida ma'lumot.

O'zgalarning hech o'zgarishsiz aynan berilgan ko'chirma gap deb ataladi. Ko'chirma gap yolg'iz o'zi yoki avtor gapi bilan birgalikda kelishi mumkin.

Masalan: "Alisher Navoiy go'zal xatotdir, - dedi faxrlanib Zayniddin" Ko'chirma gapdan asosiy maqsad boshqa shaxs gapinig barcha leksik, sintaktik, intinatsion xususiyatlarini saqlashdir.

Masalan: "Biz xalqni qutlaymiz, xalq bizni qutlaydi", -dedi Sobolev.

Ko'chirma gap va avtor gapi o'zaro quyidagicha aloqaga kirishadi.

Bog'lovchi vazifasidagi so'zlar yordamida aloqaga kirishadi. Bunda ko'chirma gap bilan avtor gapini o'zaro bog'lashda demoq fe'lini deb (deya), degan shakllarda xizmat qiladi. "Hatto qurt-qumursqa ham yashash uchun kurashadi", -degan gapi keldi.

Bog'lovchi vazifasidagi bunday so'z avtor gapi ko'chirma gapdan keyin kelganda ishlatiladi.

2. Bog'lovchisiz aloqaga kirishadi.

Bunda avtor gapining kesimi demoq, aytmoq, so'ramoq, gapirmoq, javob bermoq kabi fe'llar bilan ifodalanadi. Masalan: "xiyonatkor o'z chuqurlariga o'zlari yiqilurlar", - dedi Navoiy ishonch bilan.

Ko'chirma gap bilan avtor gapining bog'lanishi va unda tinish belgilarining ishlatilishi

a) Ko'chirma gap yozuvda qo'shtirniqqa olinib bosh harf bilan boshlanadi.

b) Ko'chirma gap avtor gapidan keyin keladi. Bu naqtda avtor gapining kesimi so'radi, javob berdi, tugadi, gapirdi, dedi kabi fe'llar bilan ifodalanadi.

Ko'chirma gap avtor gapidan keyin kelganda, avtor gapidan so'ng ikki nuqta qo'yiladi. Bu vaqtda: 1) k'chirma gap oxirida nuqta qo'yish lozim bo'lsa, qo'shtirnoq bulardan keyin qo'yiladi. Masalan: 1. Michirun aytadi: "O'simlik qancha yosh bo'lsa, yangi sharoitda shunchalik tez moslashadi". 2. O'qituvchi so'radi: Oybekning "Qutlug'qon" pomanidagi Yo'lchi obrziga kim harakteristika bergan?.

3. Ko'chirma gap avtor gapidan oldin keladi. Bu vaqtda avtor gapidagi bo'laklarinversiyaga ychraydi: kesm sostavi oldin, ega sostavi keyin keladi. Avtor gapining kesimi ko'pincha deb aytdi, so'radi, gapirdi, dedi, der edi kabi fellar bilan keladi.

Ko'chirma gap avtor gapidan oldin kelganda, ko'chirma gapdan keyin qo'shtirnoq yopiladi. Agar ko'chirma gap darak gap bo'lsa, qo'shtirnoq yopilgach, vergul hamda tire qo'yiladi. Agar ko'chirma gap so'roq yoki undov gap bo'lsa, qo'shtirnoq yopilish oldidan shu belgilarning o'zi qo'yiladi: qoshtirnoq yopilgach, tire qo'yiladi.

Masalan: 1. "Mehmonni laziz ovqatlar bilangina emas, shirin latifalar bilan ham kutmoq kerak", -dedi kulib Sultonmurod.

2. "Ko'rishgan odam shunaqa siqar ekanmi?"-dedi Oyto'ti Karimaga.

3. "Dunyo mojarolaridan qo'l yuvmoqchi bo'lgan bir otaga keksaygan kunlarida farzand dog'ini ko'rmaslikning o'zi ham mukofotdir!"-dedi va ko'ziga yosh oldi.

4. Ko'chirma gap avtor gapning har ikki tomonida keladi. Bu vaqtda avtor gapi inversiyaga uchraydi: kesim sostavi oldin, ega sostavi keyin keladi.

Avtor gapi ko'chirma gapning ichida kelganda, tinish belgilari quyidagicha qo'yiladi:

1) Ko'chirma gap bo'lingan joyda hech qanday tinish belgisi bo'lmasa yoki u erda vergul, nuqtali vergul, tire, ikki nuqta belgilaridan biri bo'lsa, vergul va tire qo'yilib, avtor gapi boshlanadi: avtor gapidan so'ng yana vergul va tire qo'yib, ko'chirma gapning qolgan qismi kichik harf bilan davom ettiriladi, masalan: "Odamning qo'lidan kelmaydigan hech bir ish yo'q,-dedi bolalarga bir-bir qarab Saodatxon, - odam hamma narsadan zo'r". "Xo'b, men har qanday jabr tog'ini ko'tarmoqqa roziman, -dedi Navoiy keskin va dadil, - lekin ichi qora zotlar shuni yaxshi bilsinlarki, men qaerda bo'lmayin, haqiqatni qo'riqlaymen".

2) Ko'chirma gap bo'lingan joyda nuqta bo'lsa, avtor gapidan keyin esa nuqta va tire qo'yiladi. Ko'chirma gapning qolgan qismi bosh harf bilan davom ettiriladi. Masalan: "Haqiqiy sevgini hech narsaga tenglashtirib ham bo'lmaydi, do'stim,-dedi Elmurod.-Sevgi-kishining eng yuksak bebaho orzusi"

3) Ko'chirma gap bo'lingan joyda so'roq yoki undov belgisi bo'lsa, bu belgilar o'z o'rnida saqlanadi va shundan keyin tire qo'yiladi. Avtor gapidan so'ng esa nuqta va tire qo'yilib, ko'chirma gapning qolgan qismi bosh harf bilan davom ettiriladi ettirildi. Masalan: "Ishing yirik, - O'sarjon"! —qichqirdi o'tkinchi, otboqar Qo'ziboy-G'o'zang dastlab mazasi yoq edi, nazarimda: xayronman, birdan avj olib ketdi.

4) Ko'chirma gap avtor gapining o'rtasida keladi. Bu vaqtda avtor gapining "Ega sostavi esa avtor gapidan keyin keladi". Ba'zan kesim sostaviga oid to'ldiruvchi yoki hol kochirma gapdan oldin kelishi ham mumkin.

Ko'chirma gap avtor gapining ichida kelganda, vtor gapi bo'lingan joyda ikki nuqta qo'yiladi va qo'shtirnoq ochilib ko'chirma gap bosh harf bilan boshlanadi: ko'chirma gap oxirida qo'shtirnoq yopiladi. Bundan keyin:

2) Ko'chirma gap darak gap bo'lsa, qo'shtirnoq yopgach vergul va tire qo'yiladi, so'ng avtor gapining davomi yoziladi. Masalan: Kechqurun kanizak eshikdan kirishi bilan: "Siddiqjon aka, bizning zvenoda ishlar emishsiz,- dedi".

3) Ko'chirma gap oxirida so'roq yoki undov belgisi qo'yiladigan bo'lsa, ular qo'shtirnoqni yopilishidan oldin qo'yiladi: Qo'shtirnoq yopilgach tire qo'yiladi. Masalan: Bir kuni podsho afandidan: "Katta hovuzdagi suv necha chelak chiqadi?"-deb so'radi. Navoiy: "Shohona marhamatingiz uchun rahmat iloji bo'lsa, meni har qanday rasmiy mansablardan ozod etsangiz!" -dedi qat'iyat bilan.

6. Dialog tipidagi ko'chirma gaplar.

a) Ketma-ket yozilsa, ularning har biri qo'shtirnoqqa olinib bir biridan tire bilan ajratiladi. "Asosiy vaqtimni zavodga bermay nimaga beray?"- "Dissertatsiya ham zavodning ishi mavzui ham zavoddan kelib chiqqan"

b) Har bir ko'chirma gap yangi yo'ldan boshlansa, undan oldin tire qo'yiladi.

-Juda shod ko'rinasiz, Manzura.

-Shundaymi? Dedi Manzura o'zining quvuchli kayfiyatini endi sezgandek. – Sendan juda minnatdorman, maruse, meni kechgacha kutibzan.

-ovqatingiz sovimasin.

-Kel, o'tir, birga ovqatlanamiz.

Izoh. O'zgalarning ayrim so'zlari, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va birikmalar ham qo'shtirnoq ichiga olinib, kichik harf bilan yoziladi, lekin bular ko'chirma gap

hisoblanmaydi. Masalan: Onda-sonda aravalar g'ijirlab, "po'sht-po'sht" degan tovushlar eshitiladi.

O'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap

Ba'zan o'zining fikri avtorgapisiz ko'chirilib, so'zlovchi ishtirok etmasdan bayon qilinadi. Bu vaqtda avtor ko'chirma gapdagi so'zlovchi sifatida ishtirok qiladi. Bunday gaplar ko'proq badiiy asarlarda uchraydi: Rais keng kabinetida bir o'zi qoldi. U shiliq etib divanga tashlandida, a'zoyi badani bo'shashib ketganday bo'ldi. ... Mana uzoq davr ichida qilingan gunohlar uchun javob berish vaqti keldi. Hozirgach sen bu payt to'f'risida o'ylab ham ko'rmagan eding, Qodirov.

O'zlashtirma gap haqida

Ayrim paytlarda o'zgalarning gapi o'zlashtirilib bayon qilinadi. Bunda k'chirma gap mazmuni to'la saqlanadi. Faqat uning shakli o'zgartirilib, avtor gapi ichiga kiritiladi.

O'zgalarning shaklan o'zgartirilib, berilgan gapi o'zlashtirib berilgan gapi "o'zlashtirma gap" deb ataladi.

Ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga aylantirish yo'llari quyidagicha:

1. Ko'chirma gapning kesimi o'tgan zamon fe'li bo'lsa, o'zlashtirma gapga aylantirishda bu kesmdagi shaxs, son zamon affikslari – gan +- lik + egalik affiksi + tushum kelishigi affiksi bilan almashtiriladi. Bu vaqtda ko'chirma gapning egasi qaratqichga aylanadi. Avtor gapining kesimi ham odatda, boshqa so'z bilan almashadi.

Ko'chirma gap: "Toshkentda chindan hamqadamim qutlug' bo'lib ketdi", - dedi O'ktam hayajon bilan.

O'zlashtirma gap: O'ktam hayajon bilan Toshkentda chindan ham qadamining qutlug' bo'lib ketganligini aytdi.

Agar ko'chirma gapning egasi kishilik olmoshi bo'lsa, o'zlashtirma gapga aylantirishda bu esa o'z olmoshi bilan almashib, egalikaffiksini olib keladi, shundan so'nggina –ning qo'shiladi:

Ko'chirma gap: "Men a'lo o'qish uchun butun kuchimni sarf qildim", -dedi Zulfiya.

O'zlashtirma gap: Zulfiya a'lo o'qish uchun butun kuchini sarf qilganligini aytdi. Ko'chirma gapning kesimi – gan affiksi bilan yasalgan o'tgan zamon fe'li bo'lsa, undan keyin – lik + egalik affiksi + ni qo'shiladi:

Ko'chirma gap: "Maktab tajriba er maydonchasiga turli xil ekinlar ekansiz", - dedi o'qituvchi. O'zlashtirma gap: O'qituvchi Maktab tajriba er maydoniga turli xil ekinlar ekanliklarini aytdi.

2. Ko'chirma gapning kesimi – yomg'ir, - yap bilan yasalgan hozirgi zamon fe'li bo'lsa, zamon yasovchisi yotgan affikasiga almashtiriladi, so'ng – lik + egalik affiksi + ni qo'shiladi.

Ko'chirma gap: Dokladchi o'z nutqida "Butun dunyodagi tinchlik sevar xalqlar tinchlik uchun kurashayotir," - dedi.

O'zlashtirma gap: Dokladchi o'z nutqida butun dunyodagi tinchlik sevar xalqlarning tinchlik uchun kurashayotganini aytdi.

Ko'chirma gapning kesimi – moqda bilan yasalgan hozirgi zamon fe'li bo'lsa, o'zlashtirma gapga aylantirishda ekan to'liqsiz fe'li orttiriladi. Keyin keladigan affikslar shu to'liqsiz fe'lga qo'shiladi.

Ko'chirma gap: Studentlarning hammasi "Butun kuchimizni institutni muvaffaqiyatli bitirish uchun sarf qilmoqdamiz", - deyishdi.

O'zlashtirma gap: Studentlarning hammasi butun kuchlarini institutini muvaffaqiyatli bitirish uchun sarf qilmoqda ekanliklarini aytdi.

3. Ko'chirma gap kesimi –a (-y) bilanyasalgan kelasi zamon fe'li bo'lsa, o'zlashtirma gapga aylantirishda bu zamon yasovchi-ajak (yajak) bilan yoki harakat nomining - (i) sh shakli bilan almashtiriladi, so'ngra egalik affiksi + - ni qo'shiladi:

Ko'chirma gap: "Urug'likning o'z paxtamizdan o'zimiz tayorlaymiz", - dedi jiddiyat bilan.

Tansiq.

O'zlashtirma gap: Tansiq jiddiyat bilan urug'likning o'z paxtalaridan o'zlari tayorlayajaklarlari aytdi.

4. Ko'chirma gap: kesimi buyruq fe'li bo'lsa, tuslovchi o'rniga harakat nomining – (i) sh affiksi + egalik affiksi + kerak, (lozim, zarur)-lik + egalik affiksi + ni qo'shiladi:

Ko'chirma gap: "O'g'it g'o'zaning tomir – tomirlariga singsin!"-dedi Anor

O'zlashtirma gap: Anor O'g'it g'o'zaning tomir – tomirlariga singishi kerakligini (zarurligini, lozimligini) aytdi.

5. Ko'chirma gap kesimi bor, yoq so'zlari bilan ifodalansa, unga – lik + ergash affiksi + ni qo'shildi:

Ko'chirma gap: "Bizning g'o'zamiz orasida bir qadar shuhrat topganligi haqida haqida rivoyatlar bor", - dedi Navoiy kamtarinlik bilan.

O'zlashirma gap: Navoiy kamtarinlik bilan o'z g'azali el orasida bir qadar shuhrat topganligi haqida haqida rivoyatlar borligini aytdi.

6. Ko'chirma gap kesimi ot kesim bo'lganda bo kesimga ekan + - lik + egalik affiksi + - ni qo'shiladi:

Ko'chirma gap: "Bog' chindan go'zal, - dedi atrofiga qarab Binoiy,-chiroyli manzara!".

O'zlashirma gap: Binoiy atrofiga qarab, bog'ning chinday go'zal manzara, manzaraning chiroyli ekanligini aytdi.

7. Ko'chirma gap-mi yuklamasi bilan tuzilgan so'roq gap bo'lsa, bu gapning kesimigani + ... magan + -lik + egalik affiksi + -ni shaklini oladi:

Ko'chirma gap: "Sport bilan muntazam shug'ullanish kerakligini unutmadimmi?" - deb so'radi Nasiba.

O'zlashirma gap: Nasiba Sport bilan muntazam shug'ullanish kerakligini unutmaganligini so'radi.

Ko'chirma gap nominative gap bo'lsa, undov gap bo'lsa, yoki ko'chirma gap tarkibida undalma, kirish so'z va kirish birikma, kirish gap ha, yoq so'zlari, ta'kid va taajjub yuklamalari, undov bo'lsa, bunday ko'chirma gap o'zlashtirma gapga aynan aylantirilmaydi.

Masalan: "Agrotexnikani durust qo'lladik,-dedi O'sarjon.-Suvni, o'g'itni ham naq tabida berdik-da". U xuddi favqulotda bir narsa kashf etgandik hovliqib: "Chiroq! Elektr!" - dedi. "Qanday, kirish o'zi istasa-yu, imkoniyat topmasa?"-dedi Ivan Kuzomich.

Agar bunday kochirma gap avtor avtor gapi ichiga singdirishi lozim bo'lib qolsa, yuqorida sanalgan hodisalar tushiriladi. Masalan: "Eh, - dedi Safarqul, - hali ham u boyning uyida mol boqish, sigir sog'ish, non-osh pishirish va kir yuvish kabi uy ishlari bilan ovora".

Safarqul hali ham uning boy uyida mol boqish, sigir sog'ish, non-osh pishirish va kir yuvish kabi uy ishlari bilan ovora ekanligini aytdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek tili (Universitet va pedagogika inistitutlar uchun) qayta ishlangan 2 nashri. T., “O'zbekiston” 1991 y.
U. Tursunov, J.Muxtorov, SH. Raxmatullayev, Xozirgi o'zbek adabiy Tili. T., “O'zbekiston” 1992 y.
2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi. T., “Fan”, 1992 y.
3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa. “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali №5G'6. 1992 y.
4. A.Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet talabalari uchun darslik) T., “O'zbekiston” 1994 y.
5. G'. Abduraxmonov, S. Mamajanov O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik) T., “O'zbekiston” 1995 y.
6. M. Mirtojiyev Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi. “O'zbek tili va adabiyoti jurnali” №2. 1995 y.
7. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar xaqida ba'zi bir muloxazalar. “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali №1. 1997 y.
A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir.
“O'zbek tili va adabiyoti” jurnali 1998 y.

Mavzu: Pungtuatsiya

§1. Pungtuatsiya yozma fikrni aniq va ravon, tushunarli va ifodali bayon qilishda muhim ahamiyatga egadir. Yozma nutqning ayrim leksik-garamatik vositakar bilan ifoda qilish mumkin bo'lmagan tomonlarini ifoda qilishda pungtuatsiyaning ahamiyati yanada ortadi.

Pungtuatsiya tilshunoslikda uch ma'noda qo'llanadi: tinish belgilari sistemasi va ularning qo'llanish qoidalarini haqidagi bilim: tinish belgilarining qo'llanishi haqidagi qoidalar to'plami: tinish belgilari.

Umuman, pungtuatsiyaning tekshirish obekti tinish belgilaridir.

Pungtuatsiya grafika va orfografiya, sintaksis, intonatsiya bilan uzviy aloqadordir.

O'zbek tili pungtuatsiya sining asosi va tamoyillari.

§2. Pungtuatsiya asosi deganda tinish belgilarining qo'llanishi nimaga bog'liqligi tushuniladi.

O'zbek tili Pungtuatsiyasining birinchi asosi o'zbek tilining grammatik sistemasi nutqning mazmun, intonatsiya va tuzilish tomonlarining bir butunligini tashkil qiladi. Bu o'zbek tili pungtuatsiyasining negizidir.

O'zbek tili pungtuatsiyasining ikkinchi asosi rus tilining punktuatsion sistemasidir.

Grammatik sistema nutqning mazmuni, intonatsion va tuzilish tomonlarining bir butunligini tashkil qiladi. Bu o'zbek tili pungtuatsiyasining negizidir.

O'zbek tili pungtuatsiyasining ikkinchi asosi rus tilining punktuatsion sistemasidir. Bu- o'zbek tilidagi ko'pchilik tinish belgilarining rus tilidan o'zlashganligi, rus tilida pungtuatsiyasining ilmiy va nazariy jihatdan chuqur ishlanganligi, bilan bog'liq. Pungtuatsiya prinsipi –tinish belgilarining qaysi usul va tartibda qo'llanilishi demakdir.

O'zbek tili pungiatsiyasining prinsplsri quyidagilardir.

1. L o g i k g r a m m a t i k tamoyil. Bu prinspda tinish belgilarining qo'llanishi nutqning mazmuni, tuzilishi, intonatsiyasi bilan bog'liq.
2. S t i l l s t i k tamoyil. Bu prinspda tinish belgilarining qo'llanishi nutq stili bilan aloqador bo'ladi.
3. D i f f e r e n t s i y a tamoyil. Bu prinspda tinish belgilarining qo'llanishi yozuv texnikasi (formasi) ni aniqlash (differentsiya qilish) bilan bog'liq. Tinish belgilarining qo'sh qo'llanish sistemasi (masalan boshida yoki oxirida ikki qo'shtirnoqning barobar qo'llanishi) ham shu prinspga a'loqador.

O'zbek tilida tinish belgilari

3-§. O'zbek tilida tinish belgilari o'nta. Ular quyidagilardir:

Nomi	Shakli
Nuqta	.
So'roq belgisi	?
Undov belgisi	!
Nuqtali vergul	;
K'p nuqta (uch nuqta)	...
Vergul	,
Ikki nuqta	:
Tire	-
Qavs	()
Tirnoq (qo'shtirnoq)	“”

Tinish belgilarining tasnifi.

4-§. O'zbek tilida tinish belgilari quyidagi xususiyatlari asosida klassifikatsiya qilinadi: 1. Qo'llanish o'rniga ko'ra. 2. Qo'llanish usuliga ko'ra. 3. Tuzilishiga ko'ra.

Tinish belgilari qo'llanish o'rniga ko'ra uch gruppaga bo'linadi: 1. Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari. 2. Gap ichida qo'llanuvchi. tinish belgilari. 3. Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilari.

Gap oxirida qo'llanuvchi tinish belgilari nuqta, so'roq va undov belgilari kiradi.

Gap ichida qo'llanuvchi. tinish belgilariga vergul kiradi.

Aralash holda qo'llanuvchi tinish belgilariga ikki nuqta, nuqtali vergul, qo'shtirnoq, qavs, tire, ko'p nuqtalar kiradi. Bulardan tire gap boshida va o'rtasida, ikki nuqta, nuqtali vergul gap o'rtasida va oxirida: qo'shtirnoq, qavs, ko'p nuqta gap boshida, o'rtasida va oxirida qo'llanadi.

Tinish belgilari qo'llash usuliga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Yakka holda qo'llanuvchi tinish belgilari.
2. Yakka va qo'sha qo'llanuvchi tinish belgilari.

Yakka holda qo'llanuvchi tinish belgilari yakka va qo'sha qo'llanadi.

Tinish belgilari tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi. 1. Bir elementli tinish belgilari. 2. Ko'p elementli tinish belgilari. Bir elementli tinish belgilariga vergul, tire, nuqta kiradi. Qolgan tinish belgilari ko'p elementlidir.

Tinish belgilarining qo'llanishi

Nuqta

5-§. Nuqta quyidagi o'rinlarda qo'llanadi!

1. Darak gap oxirida: Og'irliklarni engmoq mardning ishi. (P.T)

2. Tinch oxang bilan aytilgan buyruq gaplar oxirida: Avval o'yla, keyin so'yla. (maqol)

3. Remarka tipidagi gaplar oxirida: Jamila. Jnajon, ukamni boylar xizmatiga bermang, bir iloj qilib, birovga berib o'qiting, men uchun koyimasangiz ham bo'ladi, meni qarg'amang, qarg'amang badbaxt qizingizni, onajon! Qanday issiq mehribon ko'krak bu! (Boshini Rahima xola ko'ksiga qo'yar, yig'lar) Nima qilay ilijim yo'q. (Birdan qo'rqinchli bir fikr kelar.) . Onajon! Bolam nimabo'ldi, bolam?! Axir men unga zo'r umidlar bog'lagan edim, men uni o'qitarman degan edim, u menga G'ofirjondan bir xotira edi, axir, ona, o'zingiz o'ylang, bolam kundoshlar qo'lida xo'rlanadimi? (H.H)

4. Numerativlar bilan ko'rsatilgan gaplar oxiriga: Bir sostavli gaplar bosh bo'lagining tabiatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Egasiz gaplar.

2. Kesimsiz gaplar.

5. Harflar yoki raqamar bilan ko'rsatilgan numerativlardan so'ng: ski topiladigan gaplar shaxs tasavvuri harakteriga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

a) Shaxsi aniq gap.

b) Shaxsi noaniq gap.

c) Shaxsi umumlashgan gap.

6. Ayrim shartli qisqartmalardan keyin yozuv texnikasiga ko'ra nuqta qo'yiladi: A.+ahhor, Sh. Rashidov, A.S. Pushkin va boshqalar.

7. Tsitataning manbaini ko'rsatuvchi kiritmalar tekst ichida yoki havolada berilsa, avtor gapidan so'ng va oxirgi so'zdan so'ng nuqta qo'yiladi:

1. Bobolarda bir so'z bor.

Eshint og'ajon:

"Bosgan izidan qaytmas,

O'lsa ham arslon!". (Hamza. "Berma erkingni qo'ldan".)

2. K. Nazarov. O'zbek tili pungtuatsiyasi, "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent, 1976 yil.

So'roq belgisi

6-§. So'roq belgisi quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. So'roq gaplar oxirida: *Shuncha qurilishni qachon qilishdi? Qanday ulgurishdi?*

(I.R)

2. Taqrizlarda va tsitatalarda biror so'z yoki jumla gumon yoki anglashilmovchilik tug'dirsa, bunday so'z yoki jumladan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi va bu qava ichiga olinadi: "*Mihail Ivanovich Akaskin qiriq besh yashar qolin (?) gavdali, mo'ylovdor, hushmuomala, xulqi soda va yoqimli kishi edi*". (O)

3. Kim, nima, qanday, qachon, qanday qilib, nima qildi kabi so'z va iboralar so'roq ma'nosida ishlatilsa, ulardan so'ng so'roq belgisi qo'yiladi. Ega *kim?*, *nima?*, *qaer?*, degan so'roqlarning biriga javob bo'ladi.

Undov belgisi

7-§. Undov belgisi quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Undiv gaplar oxirida: *Chindan ham poyonsiz cho'lda hayot tantana qildi!*
(Sh.P)

2. Buyruq gaplar oxirida: *Qahramonim, arslanom, mehribonim, bo'l omon!* (H.O)

3. Bo'laklarda ajralmaydigan gaplar, nominative gaplar emotsionallikka ega bo'lganda, ulardan so'ng undov belgisi qo'yiladi: *Siz chakana mehnat qilmadingiz. Qoyil!*

Nogoh katta darvoza tomondan tanish ovoz yangradi: - Erma taka!
– *Gulnoraning yuqori to'lqinlanib ketdi* (O.)

4. Gap boshida kelib, his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so'ng undov belgisi qo'yiladi: *Onajonlarim! Nechuk shmol uchirdi?* (A.Q)

Vergul

8-§. Vergul quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Bog'lovchisiz, sanash ohangi bilan uyushgan bo'laklar o'zaro vergul bilan ajratiladi: *Kelajak yorqin va eng go'zaldir. Uni sevingiz, unga intilingiz, uning uchun ishlatingiz, uni yaqinlashtiringiz.* (Chernishevskiy.)

2. Undalmalar vergul bilan ajratiladi: *Xotirjam bo'ling, oatxon, maqsadingizga etasiz.* (H.G'.)

3. Kirish so'z va iboralar vergul bilan ajratiladi: *Ilmsiz, ma'rifatsiz yangi turmush qurib bo'lmaydi, albatta.* (H.G')

4. Tasdiq yoki inkorni bildiruvchi so'zlar gap boshida kelganda vergul bilan ajratiladi: *Ha, cho'ponlar kam uyqu bo'ladi.* (Sh.R.)

Xo'p, soat beshlarda etib boraman. Yo'q, to'yni haliboshlaganimiz yoq. (A.+.)

5. Ajratilgan bo'laklar vergul bilan ajratiladi: Ko'kda, daraxtlar ustida, g'uj-g'uj yulduzlar yonadi. (O)
6. Qo'shma gap komponentlari vergul bilan ajratiladi: Darhaqiqat, bo'ron kuchli, ammo dehqonlar undan kuchli. (Sh. P.)

Qavs

9-§. O'zbek tilida quyidagilar qavsga olinadi:

1. Kiritma konstruksiyalar: Men mulla akani (Muqumiyni shunday atardilar) bohavoroq deb supachaga boshlab keldim. (Tuyg'un)
2. Remarklar: Sodiq. Qizarib ketgan ekanman, qarang, aka, mingboshini ham (Bo'ripolvonga kalla solib ko'rsatmoqchi bo'lib yoqasidan oladi, u qo'rqib dodlab yuboradi) mana shunday kalla qilib cho'ziltirmoqchi edim-u, nomardlar orqadan kelib qolimni bog'lab qoldilar. (Nazir Safarov.)
3. Tsitata yoki misolning manbai: Badantarbiya bilan mo'tadil va o'z vaqtida shug'ullanuvchi kishi kasalliklarning davosiga muhtoj bo'lmaydi. (Abu Ali Ibn Sino.)
4. Tushintirish izoh, o'qitish ma'nosidagi so'z, birikma va gaplar:
Yashsin jojajon mustaqil O'zbekistonimiz (Farg'ona viloyatiningyirik tumani) qishloq xo'jaligi maxsulotlarini etishtirishda katta muvoffaqiyatlarga erishmoqda. Lingvistika (til haqidagi fan) tez rivojlanib boryapti.
Matbutda ilmiy asarlarda uchraydigan boshi 3- betda, davomi bor kabi iboralar ham qavs ichiga olinadi.
5. Tsitalalarda gumon anglashilmovchilikni bildirish uchun qo'llangan so'roq belgisi ham qavs ichiga olinadi. (So'roq belgisining qo'llanishiga qarang.)

Nuqtali vergul

10-§. Nuqtali vergul quyidagi hollarda qo'llanadi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: Pavel noto'g'ri soliq solinayotganligi va ishdan nuqul zavod foyda qilajagini tushuntirib berdi; ular ikkovi ham qovoqlari soliq chiqib ketdilar. (M.G.)

2. Raqam yoki harflar bilan ifodalangan numerativdagi gaplar oxiriga nuqtali vergul qo'yiladi: Xozirgi asosiy vazifamiz quyidagilar;

a) Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda berilgan bilimlarni puxta egallash;

b) Ko'rsatilgan adabiyotlar bilan o'z vaqtida tanishib borish;

v) Jamoat ishlarida faol qatnashish;

g) Sessiya, imtihon va sinovlarini muvoffaqiyatli topshirish.

3. Murakkab qo'shma gap qismlari nuqtali vergul bilan ajratiladi:

Er ko'karmas, el yasharmas,

Bo'lmasa ko'k tomchisi;

Qanday olsin sh'ni shoir

Bo'lmasa ilhomchisi?

(A.To'qay)

Ko'p nuqta

11-§. Ko'p nuqta quyidagi hollarda ishlatiladi:

1. Mazmunan tugallanmagan gaplar oxirida: Karim. Ha, shunday...

Jiyaning Salimjonni ham uning quruq oqsoqol mardikorlikka haydatdi. Etti oy bo'ldi. Na xat bor na habar... buning ustiga kampir ham qazo qildi. O'sha katakday

hovlini qarzga o'tkazib... Mana shunday... Bolangdan aylanay, Rahimboy. (yig'lab ketmonni ko'rsatdi.) ana shu hol, ana shu kun...

O'zingdan ahvol so'ray? (Nazir Safarov.)

2. Tsitata yoki olingan misollardagi ayrim so'z va gaplarning tushirib qoldirilganligini ko'rsatish uchun ko'p nuqta qo'yiladi: Rus tili "eng boy tillardan biridir..." " Rus tili "shunchaki o'rganishga ham ... undagi adabiyotlarni o'qish uchun ham o'rgansa arziydigan tildir..." (F.Engles.)

3. Kuchli hayajonni, emotsionallikni bildiruvchi undov so'zlardan keyin ko'p nuqta qo'yiladi: To'raxanov. Oh... Honim bilsangiz edi yuragimda yonayotgan g'azab o'tini... (Nazir Safarov.)

4. "O'zbek tili" darsliklarida o'rganilayotgan ma'lum harf (tovush), affiks yoki so'z o'rniga ko'p nuqta qo'yadilar. 191 mashq. Nuqtalar o'rniga mos keladigan so'zlarni qo'yib ko'chiring.

Issiq..., yosh-..., sabzi-...da boshqalar.

Tire

12-§. Tire quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Ega va kesim orasida: Mardikor olish? Bu-qandayhangoma? (O)
2. Ajaratilgan bo'laklarni ajratishda: Qo'chqorov do'ng peshona, qirra burun, polvon yigitcha —kichkina tuman gazetasiga ko'z tikib o'tirardi.
3. Ko'chirma konstruktsiyalarni chegaralash uchun: Hovli o'rtasidagi yosh nihollarorasidagi bola Ma'rifat Hojining o'g'ilchasi bo'lsa kerak-kapalak quvib yurardi. ("Sharq yulduzi")
4. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: Vatanning tinch-sen tinch. (maqol)
5. Diologlarda har bir shaxs nutqini birini ikkinchisidan ajratish

uchun: Kozimbekka Saida qardi. Kozimbekning rangi bir ahvolda bo'lsa kerak, qushi uchib deraza oldiga keldi.

-Tinchlikmi?

-Tinchlik, dedi Kozimbek o'zini bosib,-Toshkentdan keldim... Saida taajjublanganday bo'ldi.

- Bilaman kecha kelgan edingiz...

- Mashinani olib keldim...

-Shunaqami... Qutlug' bo'lsin! Qani?

- Hovlida, qo'lingiz bo'shasa, bir bir aylantirib kelsam degan edim.

-Rahmat... Biron soatda bo'sharman. (A.Q.)

6. Kochirma gaplarda avtor gapini ajratish uchun:

"Ko'rdingizmi Olimjon aka dedi oyqiz erga qarab, tabiat bizning qo'limizda". (Sh.R.)

7. Umumlashtiruvchi bo'lak uyushuq bo'laklardan keyin kelganda: Payonsiz paxta dalalarining husni va barakasi, so'lim bog'larning sharbati va gullarning ming tovlangan ranglari – barchasi suv tufayli. (O.)

8. Texnik qulaylik, nutqni ixchamlashtirish uchun: Andijon-Maskva poezdi.

"Paxtakor"- "Dinamo". 22.00- "Vaqt" informatsion programmasi. Toshkent-1977 y.

Qo'shtirnoq

13-§. Qo'shtirnoq quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi: Yosh kitobxon, L.Tolstoyning quyidagi so'zlarini doimo esda tut: "Hayot qanchalik yaxshi bo'lmasin, uning yutuqlari qanchalik katta bo'lmasin, hech vaqt bu bilan hotirjam bo'lib qolma, doimo buyuk ishlarga tomon intil..."

2. Tsitatalar har vaqt qo'shtirnoq bilan chegaralanadi: "Maqollar va qo'shiqlar har vaqt qisqa bo'ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar ifodalangan bo'ladi". (M.Gorkiy.)

3. Ba'zi kesatiq yoki boshqa ma'nolarni ifoda qiluvchi so'zlar qo'shtirnoq ichiga olinadi: Tekintomoq "havaskor" larning holi ohiri voy bo'ladi.

4. Badiy asar, gazeta, jurnal, kartinalarning nomlari, ayrim muassasa, tashkilot, kolxoz, savxoz, zavod, fabrika kabilarning nomi qo'shtirnoqqa olinadi: "Qutlug' qon" romani, "Mushtum" jurnali, "O'zbekiston" mehmonxonasi, "O'rtoq" fabrikasi va boshqalar.

5. Mahsulolarning nomi, O'simliklarning turi, mashina, paraxod, samalyot, televizorlarning markasining bildiruvchi nomlar qo'shtirnoqqa olinadi:

6. Sinflar, kurslar, buyruq va qarorlarga qo'shilib yoziladigan harflar qo'shtirnoqqa olinadi: 5-"A" sinf, 11-"B" kurs, 95-"B" buyruq, 12-moddaning "G" bandi va boshqalar.

7. Baho ballari qo'shtirnoqqa olinadi: "besh baho, "yaxshi" baho.

Ikki nuqta

14§. Ikki nuqta quyidagi o'rinlarda qo'llanadi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda: Mehmon rost aytadi:

odamning himmati qilgan ishidan bilinadi. (M.G.)

2. Umumlashtiruvchi bo'lak uyshuq bo'laklardan oldin kelganda: Bularda kolxoz haqidagi asosiy ma'lutlar: - Ekin maydoni, yil sayin etirgan hosili, olgan daromadi va xokazoiar yirik raqamlar bilan ko'rsatib qo'yilgan edi. (H.N.)

3. Avtor gapi ko'chirma gapdan oldin kelganda: Rus halqining atoqli lashkarboshisi Suvorov shunday degan edi: "Son bilan emas, mahorat bilan jang qiladilar".

4. Nutq ichida masalan, misol, chunonchi, tema kabi so'zlardanso'ng: masalan: maktab, zavod: Reja: 1. Kirish. 2. Asosiy qism. 3. xulosa. Mavzu: "Turdosh va atoqli otlar".

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. **O'zbek tili (Universitet va pedagogika inistitutlar uchun) qayta**
ishlangan 2 nashri. T., “O'zbekiston” 1991 y.
U. Tursunov, J.Muxtorov, SH. Raxmatullayev, Xozirgi o'zbek adabiy
Tili. T., “O'zbekiston” 1992 y.
2. A. Nurmanov va boshqalar O'zbek adabiy tilining nazariy sintaksisi.
T., “Fan”, 1992 y.
3. R. Rasulov. So'z valentligi va sintaktik aloqa. “O'zbek tili va
adabiyoti” jurnali №5G'6. 1992 y.
4. A.Aliyev, K. Sodiqov O'zbek adabiy tili tarixidan (Universitet
talabalari uchun darslik) T., “O'zbekiston” 1994 y.
5. G'. Abduraxmonov, S. Mamajanov O'zbek tili va adabiyoti (Oliy o'quv
yurti talabalari uchun darslik) T., “O'zbekiston” 1995 y.
6. M. Mirtojiyev Mantiqiy predikatning ega vazifasida kelishi.
“O'zbek tili va adabiyoti jurnali” №2. 1995 y.
7. F. Ubayev, R. Saydullayeva, To'liqsiz gaplar xaqida ba'zi bir
muloxazalar. “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali №1. 1997 y.
A. Xojiyev. So'zning morfem tarkibi masalalariga doir.
“O'zbek tili va adabiyoti” jurnali 1998 y.